


# **YARIMO'TKAZGICHLAR SIRT FIZIKASI**



**Ks-6**

**Kitob quyida ko'rsatilgan  
muddatga topshirilishi shart**

**Oldingi foydalanishlar  
miqdori**

--	--

**Ks-7**

80840

shlar

si

16.379 ya 73

Ya 73

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

A. TESHABOYEV, S. ZAYNOBIDINOV, S. VLASOV,  
I. KARIMOV, V. ABDUAZIMOV


## YARIMO'TKAZGICHALAR SIRTI FIZIKASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida  
tavsiya etgan

Yarimo'tkazgichalarning fizik xossalaringa  
qarab qotqa jo'sintar elektronikasada yorin kuzardadi chunki bu  
xossalarning ayalish chegaralari (yarimo'tkazgich-metall, yarimo'tkazgich-dielektrik va yarimo'tkazgich-yarimo'tkazpich turdag'i)  
shartiga kengich asboblar va integral seinalarning strukturniy ele-  
mentlarining ajralmas elementlaridir. Yarimo'tkazgichlar sinti va  
yarimo'tkazgich-dielektrik zyrash chegarasi xarakteristikalarini, shan-  
da qo'shi yashbu xarakteristika kalaiga turlicha (temperatura, surʼanish,  
tegʼin va h.k.) omillar ta sirini tadeqqaishi zamonaviy yarimo'tkaz-  
gichlar tizikasining dolzarb masatasidir.

O'sabu o'quv qo'llanmada oliy o'quv yurtlarda o'qiligidagi  
yarimo'tkazgichlar sint fizikasidagi yuzunda qayd etilgen mazsalalar  
qabiliyat qamroq olagan.

O'sabu o'quv qo'llanmadan talabalik o'tilgan mayzularni yaxida  
TOSHKENT — «ILM ZIYO» — 2010



22.379  
Ya73

Taqrizchilar: **N. Rahimov** – fizika-matematika fanlari doktori,  
NamDU kafedra mudiri, professor,  
**E.A. Musayev** – fizika-matematika fanlari nomzodi,  
AndDU dotsenti.

Mas'ui muharrir: **M.K. Bahodirxonov** – fizika-matematika fanlari doktori, ToshDTU kafedra mudiri, professor.

Ushbu o'quv qo'llanma yarimo'tkazgichli kristallar sirtining tuzilishi, ulardag'i fizik va kimyoviy jarayonlar, sirdagi holatlarning tabiatи, ularga atrof-muhitning ta'siri, sirdagi holatlarning elektron asboblar ishlashiga ta'siri va ularni tadqiq etish usullarini o'rganishga bag'ishlangan.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining yarimo'tkazgichlar, mikro-elektronika va avtomatika, elektron asboblar hamda boshqa sohalar bo'yicha tahsil olayotgan talaba va aspirantlarga, shuningdek, o'qituvchi va mutaxassislarga mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-16-033-0

© «ILM ZIYO» nashriyoti uvi, 2010-v.

## **SO‘ZBOSHI**

Hozirgi kunda yarimo‘tkazgichlar sirti fizikasi fan va texnikaning eng jadal rivojlanayotgan sohasi hisoblanadi. Ushbu hol yarimo‘tkazgichlar sirtlari va yarimo‘tkazgichlarning boshqa muhitlardan ajralish chegaralari xossalaring yarimo‘tkazgich hajmida kuzatiladigan xossalardan sezilarli ravishda farqlanishi bilan bog‘liqdir. Ushbu farqlar bir qator omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning asosiyлари yarimo‘tkazgich panjarasi davriy strukturasining uzilishi va sirt oldi sohadagi kristall strukturaning qayta qurilishidan iborat. Yarimo‘tkazgich sirtida uzilgan valent aloqalar bog‘lanishlarining mavjudligi, shuningdek, ajralish chegarasining boshqa tomonida g‘alayonlanuvchi potensialning mavjudligi yarimo‘tkazgich sirt oldi sohasidagi potensial reliefning o‘zgarishiga olib keladi. Bundan ajralish chegaralarining mavjudligi yarimo‘tkazgichning optik, elektrik, mexanik va boshqa xossalariiga ta’sir ko‘rsatishini bilib olish mumkin.

Ajralish chegaralarining yarimo‘tkazgichlarning fizik xossalariiga ta’siri qattiq jismlar elektronikasida yorqin kuzatiladi, chunki bu yerda turlicha ajralish chegaralari (yarimo‘tkazgich-metall, yarimo‘tkazgich-dielektrik va yarimo‘tkazgich-yarimo‘tkazgich turdag) yarimo‘tkazgich asboblar va integral sxemalarning strukturaviy elementlarining ajralmas elementlaridir. Yarimo‘tkazgichlar sirti va yarimo‘tkazgich-dielektrik ajralish chegarasi xarakteristikalarini, shuningdek, ushbu xarakteristikalarga turlicha (temperatura, nurlanish, bosim va h.k.) omillar ta’sirini tadqiqlash zamonaviy yarimo‘tkazgichlar fizikasining dolzarb masalasidir.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan yarimo‘tkazgichlar sirt fizikasidagi yuqorida qayd etilgan masalalar atroficha qamrab olingan.

Ushbu o‘quv qo‘llanmadan talabalar o‘tilgan mavzularni yanada mukammal bilishlari uchun har bir bob oxirida savol va topshiriqlar

berildi. Talabalar savollarga javob topish maqsadida o'tilgan mavzuni yana bir marta o'qib chiqadilar va mavzuga doir bilimlarini mustahkamlaydilar. Bundan tashqari, qo'llanma so'ngida o'tilgan mavzularga doir masalalar va ularning yechimlari berildi. Shuningdek, fizik kattaliklar birliklari keltirildi. O'ylaymizki, bular talabalarga yarimo'tkazgichlar sirti fizikasini yanada to'liqroq tushunib olishlarida yordam beradi. Ushbu o'quv qo'llanma qo'lyozmasini o'qib chiqib, uni yana da yaxshilashga doir fikr-mulohazalarini bildirgan barcha do'stlarimizga minnatdorchilik bildiramiz.

### **Mualliflar.**

## **I BOB. YARIMO'TKAZGICHALAR SIRTIDA ELEKTRONLAR HOLATLARI**

### **KIRISH**

Yarimo'tkazgichlar sirti fizikasiga qiziqishning paydo bo'lishi sirtda yuz beradigan hodisalarning yarimo'tkazgich hajmidagi jarayonlarga, shuningdek, ko'pchilik yarimo'tkazgichli asboblar ishiga ta'siri aniqlanganligi bo'ldi. Hozirda yarimo'tkazgichlar elektronikasida kichik hajmli tranzistor, sig'im, induktivlik va boshqa elementlarni ko'p miqdorda o'z ichiga olgan integral mikrosxemalardan iborat bo'lgan tuzilmalar keng miqyosda ishlab chiqarilishi, ularning turli sohalarga (kompyuterlar, televizorlar, aloqa va energetik qurilmalar) joriy qilinishi yarimo'tkazgichlar sirti fizikasini astoydil o'rganish masalasini dolzarb qilib qo'ymoqda, chunki qo'llaniladigan yarimo'tkazgich elementlar hajmining tobora kichrayib borishi ular sirtining ahamiyatini kundan kunga oshirmoqda.

Yarimo'tkazgich kristalining sirtida uzuq (diskret) va uzluksiz ravishda taqsimlangan energetik sathlar tizimi mavjud. Ularning kelib chiqish sabablari turlicha. Biz quyida ularni ayrim-ayrim ko'rib chiqamiz.

Sirdagi mahalliy energetik sathlar va ulardagi sirdagi zaryadi sirt yaqinida energiya sohalarini egadi. Bu esa kristallar elektr o'tkazuvchanligini, chiqish ishini, fotoelektrik xossalarni o'zgartirib yuboradi.

Yarimo'tkazgichlar sirti ta'sirini o'rganish ko'pgina hodisalarni aniqlashga yordam beradi. Sirtning holati kristall hajmida sodir bo'ladijan jarayonlar qanday borishini ko'rsatadi. Masalan, sirdagi sathlar rekombinatsiya markazlari bo'lib, namunada muvozanatsiz zaryad tashuvchilarining yashash davriga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sirdagi sochilish masalalarini o'rganish ham muhim muammolardan biridir. Sirdagi hodisalarni o'rganish yarimo'tkazgichlar fizikasining muhim va dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, yarimo'tkazgichlar sirti xossalarni o'rganish fizik kimyoning ba'zi masalalarini, xususan, kataliz muammolarini hal qilishda ham zarur. Sirtning holati quyosh energiyasidan foydalanishga mo'ljallangan asboblar va qurilmalar

ishida alohida ahamiyatga ega. Umuman olganda, sirdagi holatlari yarimo'tkazgichli diodlar, tranzistorlar ishlashida muhim ahamiyatga ega.

Asboblarni tashqi ta'sirdan himoyalash uchun ularning sinte atrofidiagi muhiddan ajratish (saqlash) muammosi ham eng zamon amaliy vazifalardandir. Hozirda kristallarning atomar toza sirtini hosil qilish mumkin. Bunday holatni nazorat qilish usullari ham ishlab chiqilgan.


Yarimo'tkazgichlar sirti fizikasini o'rganishda ko'plab ijobiy natijalarga erishildi. Bu sohada tadqiqotlar davom etmoqda, chunki texnika va texnologiyaning rivoji, yarimo'tkazgichlar elektronikasining tez o'sishi yangidan yangi masalalarни hal etishni vazifa qilib qo'y moqda.

### **1.1. Tammning sirt holatlari nazariyasi**


1932-yilda I.E. Tamm cheksiz va chekli kristallda elektronlarning energetik spektri muhim darajada turlicha bo'lishligini ko'rsatgan. Cheksiz kristalldagi elektronlarning ruxsat etilgan energiyalari sohalardan boshqa chekli kristallda uning uzilishi natijasida elektronlarni uchun yangi energetik holatlar paydo bo'ladi. Bu holatlarga mon keladigan to'lqin funksiyalari kristall chegarasida eng katta (maksimal) bo'lib, kristallning ichiga va vakuum tomoniga o'tgan sari so'nib boradi.

Agar kristall chegaralangan va chetki elementar yachevkadagi potensial to'siq kristall ichidagisidan farqli bo'lsa, cheksiz kristall ichida taqiqlangan holatlar o'rniqa chekli kristallar sirtida ruxsat etilgan energetik holatlar vujudga kelishi mumkin. Ma'lumki, har qanday kvant tizimning energetik spektrini hosil qilish uchun Shredinger tenglamasini yechish kerak. Buning uchun to'lqin funksiya tanlashdan tashqari kristall ichidagi potensial o'zgarishini bilish kifoya (1.1-rasm).

E.I. Tamm o'zining birinchi hisobida bir o'lchovli masalanini yechishda Kronig-Pennining kuchsiz bog'langan elektronlar modelini qabul qilgan. Bunda eng chetki potensialning ichki to'siqlardan farqi bo'lgan. Shu tarzda Tamm sathlar energiyasini aniqlash uchun tenglama yaratdi.



1.1-rasm.



1.2-rasm.

Qurʼoq holatlari nazariyasining keyingi rivojida nazariya uch  
oʻsishni oʻsishni umumlashtirishi, tadqiqlashi, shuningdek, kristall  
davriy potensialning turli koʼrinish hollari qarab chiqildi.


Oʻsishni umumizam kristall sirtida kristall atomlarining davriy joyla-  
dishi kenglashtirilgan oqibatida uzuq-uzuq elektron energiyalari holatlari  
qetʼti vujudga keladi. Bu holatlari *Tamm holatlari (sathlari)* deyiladi.

Tamm holatlari zichligi (konsentratsiyasi) sirtdagagi atomlar zichligi  
zindanli amqlanadi, yaʼni bu zichlik  $\sim 10^{15}$  sm<sup>-2</sup> tartibda boʼladi.  
Bunday zichlik mayjud boʼlganida sirtdagagi energetik sohalar paydo  
boʼladi (1.3-rasm).


## 1.2. Shokli turidagi sirt sathlari

Shokli turidagi sirt sathlari ham, Tamm sathlari kabi, sirtda davriy  
potensialning chegaralanishi oqibatida vujudga keladi. Ammo Tamm  
va shokli sirt sathlarining kelib chiqishi sabablari turlichadir. Shokli  
modelida 8 atomdan iborat bir oʻlchamli chekli zanjir qaralgan.  
Davriy potensial har bir atomga nisbatan simmetrik boʼlgan ixtiyoriy  
potensial chequqlar koʼrinishida tasavvur qilingan (1.3-rasm).

Ega mulimi, potensial oʼra buzilmagan, uning shakli ichki  
chopotarnikidan farq qilmaydi. Shokli bunday zanjircha uchun  
elektrostatik energiyalari spektrini topgan va bu spektrning panjara  
davrida chekazidan to kichik kattalikkacha kichrayganida qanday  
oʻsishni oʼrgangan. Zanjirchadagi atomlar orasidagi masofa katta  
baʼlonda tizimning energetik spektri ayrim atomlar uchun diskret  
mengʼuzoq sathlar koʼrinishida boʼladi va har bir sath sakkiz karra  
aylibi boʼladi.



1.3-rasm.



1.4-rasm.

Panjara doimiysi kamaya borgan sari ayrim sathlarga parchalanadi, bunda  $d_1$  dan kichik bo'lgan atomlararo masofalarda sathlar kesishadi.

Bu holda kristallning taqiqlangan sohasida ikkita sath paydo bo'ladi, ulardan biri pastki ruxsatlangan sohada, ikkinchisi yuqorigi sohada hosil bo'ladi (1.4-rasm).

Shokli holatlari panjara doimisi kichik bo'lganda va qat'iy davr potensial (chetki chuqurniki ham) bo'lganida energiya sohalarining kesishishi natijasi sifatida vujudga keladi. Tamm holatlari esa chetki elementar kataklarda davriy potensialning shakli o'zgarishi oqibatida kelib chiqadi.

### 1.3. Boshqa turdag'i sirt sathlari

Tamm va Shokli turidagi sathlar muntazam kristall sirtida mavjud bo'lishi mumkin. Muayyan texnologiya bo'yicha olingan yarimo'tkazgich kristalining haqiqiy sirtida mazkur holatlardan boshqa elektronlar uchun energetik holatlari ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, sirtda joylashib olgan kirishma atomlari, kristall panjarasining sirt muqsonlari, dislokatsiyalar va h.k.lar ana shularga sabab bo'ladi. Sirdagi holatlarni keltirib chiqaradigan muhim sabablardan biri sirtga yot atomlarning adsorblanishi (yopishib olishi) bo'lib, bunda sirt sathining energetik vaziyati panjara parametrlariga, shuningdek, adsorblanuvchi modda (adsorbant) ga bog'liq bo'ladi. Tabiiyki, bu hollarda sirdagi sathlar zichligi har xil bo'ladi. Zichligi katta bo'lganda bu sathlar ham energetik sohalar tashkil qilishi mumkin.

#### ? Savol va topshiriqlar

1. Tamm sirt holatlari paydo bo'lishining sababi nimada?
2. Shokli turidagi sirdagi holatlari nima sababdan kelib chiqadi?
3. Tamm va Shokli sathlaridan boshqa sathlarni hosil qiluvchi sabablarni aytib bering.

## **II BOB. YARIMO'TKAZGICHALAR SIRTIDA FAZOVIY ZARYAD SOHASI**

Kristall sirtida energetik sathlarning borligi ularda elektr zaryad hosil bo'lishiga olib keladi. Kristallning haqiqiy sirti unda oksid qatlami hosil bo'lishi, atrof-muhit bilan o'ralganligi, ionlar adsorblanishi natijasida zaryadlanib qolishi mumkin.

Erkin zaryad tashuvchilar kristall hajmidan uning sirti sohasiga tortiladi. Shu tufayli qo'sh zaryadlangan qatlam hosil bo'ladi.

Faraz qilaylik, sirdagi har bir atom bitta sirt sathini beradi. Bu sathlar zaryadlangan bo'lsin, bu holda ularning zichligi taxminan  $10^{15} \text{ sm}^{-2}$  bo'ladi.

Metallarda erkin elektronlar zichligi hajmi  $10^{22} \text{ sm}^{-3}$ , bir atom tekislikda  $10^{14} \text{ sm}^{-2}$  chamasida bo'ladi. Metalda sirdagi zaryadni kamaytirish uchun 10 atom tekislikdagi, ya'ni  $10^{-7} \text{ sm}$  qatlamdagagi erkin zaryadlar ishtirok etishi kifoya. Bu hajmiy zaryad qatlami metall xossalari muhim ta'sir ko'rsatmaydi.

### **2.1. Yarimo'tkazgichlar sirtidagi fazoviy zaryad qatlami**

Yarimo'tkazgichlarda metaldagiga nisbatan erkin zaryad tashuvchilar zichligi ancha kichik. Masalan,  $n$ -tur yarimo'tkazgichda erkin elektronlar zichligi  $n=10^{15} \text{ sm}^{-3}$  yoki bir atom tekislikka  $N_1=10^7 \text{ sm}^{-2}$  to'g'ri keladi desak, sirdagi sathlar zichligi  $N_{ss}=10^{11} \text{ sm}^{-2}$  bo'lsa, sirt zaryadini neytrallash uchun  $10^{-4} \text{ sm}$  qalinlikdagi qatlamdan, ya'ni  $10^4$  chamasidagi atom tekislikni o'z ichiga olgan qatlamdan erkin zaryad tashuvchilar uzoqlashtirilishi kerak bo'ladi. Bu qatlam *fazoviy zaryad qatlami* deyiladi. Erkin zaryad tashuvchilar zichligi yana ham kam bo'lgan yarimo'tkazgichlarda fazoviy (hajmiy) zaryad qatlami ancha ichkariga kirishi mumkin.

Shunday qilib, yarimo'tkazgichlarda sirt fazoviy zaryad qatlami mavjud bo'lib, u yarimo'tkazgichlar xossalariiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu sohada energiya sohalari egiladi. Ordinata o'qi bo'yicha kristallda elektronlarning potensial energiyasi, abssissa o'qida esa sirtdan kristall ichiga tomon masofa qo'yilgan (2.1-rasm).

Fazoviy zaryad sohasi chuqurligi xususiy yarimo'tkazgich uchun Debay ekranlash uzunligi  $L$  ga teng deb olinadi:

$$L = \sqrt{\frac{\epsilon kT}{2\pi n_i}}, \quad (2.1)$$

bunda,  $\epsilon$  – dielektrik doimiyligi,  $n_i$  – yususiy yarimo'tkazgichda zaryad taqiluvchilar zichligi,  $e$  – elektron zaryadi.

Yarimo'tkazgich sirti yaqinida fazoviy zaryad sohasi hosil bo'lishi mumkin. Kristalldagi bu soha yarimo'tkazgichlarning ko'p xossalariiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun yarimo'tkazgich sirtining fazoviy zaryad qatlami o'rganiladi.


Fazoviy zaryad sohasi umumiy nazariyasini Garret va Brattayn ishlab chiqqan. Bu nazariya asosida olib borilgan tadqiqotlar yarimo'tkazgich kristali sirti elektron tuzilishi haqida miqdoriy ma'lumotlar olib imkonini berdi. 2.2-rasmida  $n$ -turidagi yarimo'tkazgich sirti yaqindagi sohaning energetik diagrammasi keltirilgan. Bu yerda,  $\varphi$  – elektrostatik potensial,  $U$  energiya sohalari egilishini ifodalaydi:  $\varphi_0$  – hajmdagi potensial, uni taqiqlangan soha o'rtasiga mos potensialga teng deb qabul qilingan; mazkur potensialning sirdagi qiymati –  $\varphi_s$ ;  $E_F$  – yarimo'tkazgich hajmdagi fermiy sathi;  $Y_s$  – sirtda energiya sohalari egilishi kattaligi. Sirdagi elektrostatik potensial sathidan Fermi sathigacha masofa  $F_s$  ni ba'zan sirt potensiali deyiladi.

Mazkur nazariya o'z oldiga quyidagi masalalarni qo'yadi:


- 1) fazoviy zaryad  $\varphi(x)$  potensiali qanday o'zgarib borishini aniqlash;
- 2) sirt yaqini sohasida hajmdagiga nisbatan ortiqcha zaryad taqiluvchilar zichligini, hajmiy zaryad kattaligini va ular aniqlaydigan urt.  $\Delta\varphi$  o'tkazuvchanlikni topish.

Nazariyada ushbu farazlar qabul qilingan:

- 1) yarimo'tkazgich hajmida kirishmalar zichligi kichik, binobarin, yarimo'tkazgich aynimagan va sohalardagi elektronlar hamda kovaklarga nisbatan klassik Bolsman statistikasini qo'llash mumkin;
- 2) sirt yaqinida sohalar egriligi yetaricha kichik, bu joyda ham yarimo'tkazgich aynimagan, sirt yaqinida sohalar chegarasi Fermi sathidan yetaricha uzoqda;



2.1-rasm.



2.2-rasm.

3) kristall hajmida kirishmalar to'la ionlashgan deb hisoblanadi. Kremniyda III va V guruh elementlar kirishmali sathi xona temperaturasida (300 K) to'la ionlashgan bo'ladi. Sirt yaqinida elektrostatik potensial  $\phi(x)$  ning o'zgarishi qonuniyatini topish uchun *Puasson tenglamasini* yechish kerak:

$$\frac{d^2\phi}{dx^2} = -\frac{4\pi}{\epsilon} \rho(x), \quad (2.2)$$

bunda,  $\epsilon$  – dielektrik doimiy,  $\rho(x)$  – zaryadlar zichligi.

O'chamsiz kattaliklar kiritiladi:

$$Y = \frac{e}{kT} (\phi - \phi_0) = \beta(\phi - \phi_0), \quad \lambda = \left( \frac{P_0}{n_0} \right)^{1/2},$$

$$P = \beta(F_p - F_0), \quad N = \beta(F_n - F_0),$$

bunda,  $\beta = \frac{e}{kT}$ ,  $F_p$ ,  $F_n$  – Fermi kvazi sathlari.

Puasson tenglamasini taqriban yechish ancha murakkab. (2.2) tenglama ba'zi hisoblashlardan keyin

$$\frac{dY}{dx} = \pm \frac{2}{L} \Phi(Y, \lambda, P, N) \quad (2.3)$$

ko'rinishga keladi. Bunda  $\Phi(Y, \lambda, P, N)$  qavs ichidagi argumentlar-ning muayyan funksiyasi:

$$\Phi(\cdot) = \left[ \lambda e^p (e^{-4} - 1) - \lambda^{-1} e^{-N} (1 - e^{+4}) + (\lambda - \lambda^{-1}) Y \right]^{\frac{1}{2}}. \quad (2.4)$$

Sirtning energetik sxemasidan sirt yaqinida sohalar egilishi:

$$Y_s = \beta(\varphi - \varphi_0) = \beta F_s + \ln \lambda \quad (2.5)$$

ko'rinishda ifodalanishi mumkin. Xususiy yarimo'tkazgich uchun  $\lambda=1$  va  $Y_s = \beta F_s$ . Yarimo'tkazgich qay darajada xususiylikdan farq qilsa,  $\lambda \neq 1$  shuncha bir-biridan farq qiladi. Yarimo'tkazgich sirtidagi o'tkazuvchanlik, ortiqcha zaryad tashuvchilar zichligi va boshqa kattaliklar  $\beta F_s$  ga bog'liq ravishda qaraladi.

## 2.2. Fazoviy zaryad sohasining ko'rinishi

(2.3) tenglamadan

$$x = \frac{1}{2} L \int_0^{Y_s} \frac{1}{F(Y, \lambda, P, N)} dY \quad (2.6)$$

kelib chiqadi. Tenglamadagi integrallash bajarilsa, sathiy potensial  $\varphi$  ning  $x$  ga bog'liqligi topilgan bo'lardi. Ammo bu hisob ancha murakkab. Buning o'rniga fazoviy zaryad qatlamini bir necha alohida sohalarda  $\varphi(x)$  funksiyasini topish qulayroqdir. Odatda uch soha: siyraklashtirilgan soha, inversion qatlam va boyitilgan soha ko'rib chiqiladi.

1. Siyraklashtirilgan sohada sohalardagi erkin zaryad tashuvchilar zichligi kompensirlanmagan kirishmalar zichligidan ancha kichik bo'ladi. Agar  $n$ -turdagi yarimo'tkazgichda sohalar yuqoriga egilgan ( $Y_s < 0$ ) bo'lsa,  $p$ -turdagi yarimo'tkazgichda sohalar pastga ( $Y_s > 0$ ) epilgan bo'lsa, siyraklashtirilgan sohasi vujudga keladi.


Bu sohada  $F(Y, \lambda, P, N)$  funksiyada birinchi va ikkinchi hadlar uchinchidan kichik, binobarin:

$$\frac{dY}{dx} = \pm \frac{2}{L} (Y, \lambda - \lambda^{-1}) \frac{1}{2} Y \frac{1}{2} \quad (2.7)$$

musbat ishora sohalar yuqoriga, manfiy esa sohalar pastga egilgan hollar uchun. (2.7) ifoda integrallangandan so'ng quyidagi ifoda

$$Y = Ax^2 \quad (2.8)$$

kelib chiqadi. Ammo bu qonuniyat bajariladigan soha torginadir (2.3-rasm, a, b).



2.3-rasm.

2. Endi  $n$ -turdagi yarimo'tkazgichni ko'rib chiqamiz. Sohalarining yuqoriga katta egilgan holida valent soha o'tkazuvchanlik sohasiga nisbatan Fermi sathiga yaqinlashgan bo'lsin.

Bu qatlama kovak o'tkazuvchanlik elektron o'tkazuvchanlikdan katta bo'lishi mumkin. Bunday qatlam *inversion qatlam* deyiladi.

Bu qatlama potensial o'zgarishi qonuniyatini topish uchun

$F(Y, \lambda, P, N)$  da birlina qo'shiluvchini yo birinchi, yoki ikkinchi qo'shiluvchini hisobga olib, (2.3) tenglama yechiladi. Bu tanlash yarimo'tkazgichning o'tkazuvchanligi turiga bog'liq. Sohalarining egilish qiymati namunaning legirlanishi darajasiga (elektronlar beruvchi yoki kovaklar hosil qiluvchi kirishmalar zichligiga) bog'liq bo'ladi. Umuman aytganda, inversion qatlam uchun (2.3) tenglama taqriban yechiladi.

3. Agar  $n$ -tur yarimo'tkazgichda sohalar pastga,  $p$ -tur yarimo'tkazgichda sohalar yuqoriga egilgan bo'lsa, bu hollarda boyitilgan soha hosil bo'ladi, ya'ni asosiy zaryad tashuvchilar zichligi hajmdagiga nisbatan sirt yaqinida katta bo'ladi, ammo inversion qatlam holidagidek boyitilgan soha kengligi ham yetarlicha kichik.  $F(Y, \lambda, P, N)$  funksiyada uchinchi hadni tashlab yuborib, (2.3) tenglamani yechib  $\phi(x)$  potensial taqsimoti topiladi. Umuman olganda, (2.3) tenglamani soniy hisoblab, butun fazoviy zaryad sohasida  $\phi(x)$  bog'lanishni olish mumkin.

### 2.3. Sirdagi elektr o'tkazuvchanlik

Sirdagi zaryad tashuvchilarining ortiqcha zichligi deb sirdagi haqiqiy zichlik bilan hajmdagi zichlik orasidagi farqqa aytildi. Ortiqcha zichlikni aniqlash sirdagi o'tkazuvchanlikni aniqlash imkoniyatini beradi. Sohalar egilishi katta bo'lган hol uchun (yuqoriga) kovaklar va elektronlarning ortiqcha zichliklari  $G_r$  va  $G_n$  ifodalari topilgan:

$$G_r = \text{Ln}_r e^{\frac{1}{2}\beta(F_r - \varphi_s)}, \quad (2.9)$$

$$G_n = \text{Ln}_i e^{\frac{1}{2} \beta (\varphi_s - F_n)} \quad (2.10)$$

Ilti ortiqchali zinchliklar sirdagi o'tkazuvchanlik o'zgarishini aniqlaydi:

$$\Delta\sigma_s = \varepsilon\mu_b(G_n + bG_p), \quad (2.11)$$


Mda  $b = \mu_n/\mu_p$ ,  $\mu_n$  va  $\mu_p$  — elektronlar va kovaklar harakatchanligi. Ilti hirobdagi zaryad tashuvchilar harakatchanligi hajmda va sirtda bir deb olingan. Ammo sirdagi harakatchanlik hajmdagisidan kichik bo'ladi (sirdagi qo'shimcha sochilish hisobiga). Shuning uchun  $b$  ning qiymatlari (2.11) bo'yicha hisoblaganidan kichik bo'ladi.

Statcionar holda ( $P=N=0$ )

$$\Delta\sigma_s = \frac{1}{2} e\mu_b \text{Ln}_i g \lambda^{-1/2}, \quad (2.12)$$

$$g = \lambda^{-1/2} \int_{Y_s}^0 \frac{\lambda(Y-1) + b\lambda^{-1}(e^Y-1)}{F(Y, \lambda)} dY. \quad (2.13)$$

$g$ ning turli  $\lambda$  qiymatlariga tegishli qiymatlari hisoblanib, jadvallari tuzilgan.  $n$ -turdagi yarimo'tkazgich uchun sirdagi o'tkazuvchanlik integrali (2.13) ifodaning sohalar egilishi  $Y_s$  ga bog'lanishi egri chiziqlari ko'rsatilgan. Bunda  $g(Y_s)$  egri chiziqda minimumlarning mavjud bo'lishi quyidagicha tushuntiriladi (2.4-rasm).



2.4-rasm.

$Y_s$  ning musbat qiymati oshib borgan sari sohalar pastga egila boradi.  $n$ -turdagi yarimo'tkazgich sirtdagisi o'tkazuvchanligi sirtda elementlar soni ortib borishi hisobiga ortadi. Sohalar yuqoriga egila borganda esa  $\Delta\sigma_s$ , o'tkazuvchanligi kamayadi. U inversion qatlam hosil bo'lguncha davom etadi.  $Y_s$  yana kattalasha borganda sirtdagisi o'tkazuvchanlik inversion qatlam o'tkazuvchanligi oshishi hisobiga ortadi.

$\Delta\sigma_s(Y_s)$  o'tkazuvchanlik egri chizig'inining minimumi

$$Y_{s,min} = \ln \lambda^{2/b} \quad (2.14)$$

qiymatga mos tushadi. Bu ifodani tahlil qilish uncha qiyin emas. Shuni aytish kerakki,  $\Delta\sigma_s(Y_s)$  kristallning xossalariiga ( $\lambda$  va  $b$  ga) bog'liq.

Maydon effekti yordamida sirtdagisi potensialni o'zgartirib, sirt o'tkazuvchanlikning sohalar egilishiga bog'liq ravishda o'zgarishini tajribada o'rganish mumkin.

## 2.4. Fazoviy zaryad sohasida zaryad tashuvchilar harakatchanligi

Oldingi bobda hajmdagi va sirtdagisi harakatchanlik birday bo'ladi, deb hisoblangan edi. Agar erkin zaryad tashuvchilarning erkin yugirish yo'li  $l$  fazoviy zaryad sohasi  $L$  kengligidan ancha kichik ( $L \gg l$ ) bo'lganda yuqoridagi faraz to'g'ri bo'ladi.

Ammo bu shart qonoatlantirmasligi mumkin. Agar sirt yaqinida zaryad tashuvchilarни ushlab turuvchi potensial chuqur mavjud bo'lsa, bu chuqur kengligi erkin yugirish yo'li uzunligi bilan qiyoslanganda zaryad tashuvchilar bu sohada qo'shimcha sochilishga (to'qnashish-larga) duch keladi. Fazoviy zaryad sohasida zaryad tashuvchilar harakatchanligi sohalar egilishi kattaligiga, ya'ni potensial o'ra chuqurligiga bog'liq bo'ladi.

### 2.4.1. Fazoviy zaryad sohasida zaryad tashuvchilarning omik harakatchanligi

Fazoviy zaryad sohasida sirtdagisi sochilish evaziga zaryad tashuvchilar harakatchanligi o'zgarishi, hisob qilingan  $\mu$  harakatchanlik va  $\sigma$  o'tkazuvchanlik orqali qaraladi:  $\mu = \sigma/e_r$ .

$d$  qalinlikdagi namunaga  $x$  yo'nalishida kuchsiz elektr maydoni  $E_x$  qo'yilgan va u  $i_x$  tokini beradi (2.5-rasm).

Sirt yaqinidagi fazoviy zaryad  $E_z$  maydon paydo qiladi. Sirdagi tok zichligi integral bo'yicha

$$I_x = \int_{-\infty}^{\infty} i_x(z) dt \quad (2.15)$$

Hisoblanadi. Bu integral ikki hol uchun hisoblangan:

1)  $\varphi(t) = E_z Z$ ,  $E_z$  – doimiy. Bunda shiddagi o'tkazuvchanlik  $\sigma_s = \frac{I_x}{E_x} = eN_1(\mu_{\text{eff}})$  ko'rinishida ( $\mu_{\text{eff}}$ ) harakatchanlik orqali hisoblanadi. Sirt yaqinidagi potensial o'rada qidirishda tashuvchilar soni

$$N_1 = C \left( \frac{2\pi kT}{m} \right)^{3/2} \frac{kT}{eE_z}. \quad (2.16)$$

$I_x$  tok ifodasi ham aniqlangan:

$$I_x = \pi^{1/2} D_1 \alpha kT [1 - e^{\alpha^2} (1 - \text{erf } \alpha)]. \quad (2.17)$$

Hajmiy harakatchanlik  $\mu_0 = qt/m$  ekanligini e'tiborga olsak, quyidagi natijani olamiz:


$$\left( \frac{\mu_{\text{eff}}}{\mu_0} \right)_\sigma = 1 - e^{\alpha^2} (1 - \text{erf } \alpha), \quad (2.18)$$

$$\alpha = \frac{(2mkT)^{1/2}}{eE_z \tau}. \quad (2.19)$$


$E_z$  katta bo'lganda

$$\left( \frac{\mu_{\text{eff}}}{\mu_0} \right)_\sigma \approx \frac{2\alpha}{\sqrt{\pi}}. \quad (2.20)$$

Taqribiy nisbat o'rinni 2.6-rasmida  $\left( \frac{\mu_{\text{eff}}}{\mu_0} \right)_\sigma$  ning  $\alpha$  ga, ya'ni  $E_z$  ga bog'lanishi ifodalangan. 2.6-rasmdan ko'rindik,  $\alpha$  katta (sohalar egilishi kichik) bo'lganda sirdagi sochilish muhim emas, effektiv harakatchanlik amalda hajmiy harakatchanhkka teng ( $\mu_{\text{eff}}/\mu_0 > 1$ ).



2.6-rasm.



2.7-rasm.

Ammo  $\alpha$  kichik (sohalar egilishi katta) bo‘lganda effektiv harakatchanlik hajmiysidan bir necha marta kichik bo‘lishi mumkin.

2)  $\phi(z)$  ni Puasson tenglamasidan topiladi. Bu holda  $(\mu_{\text{eff}}/\mu_0)_0$  uchun ifoda ancha katta. 2.7-rasmida xususiy o’tkazuvchanlik germaniy uchun hisoblangan bog‘lanish keltirilgan.  $Y > 0$  (sohalar pastga egilgan) bo‘lganda potensial o‘rada (sirt qatlamida) erkin elektronlar joylashgan. Erkin chiziqning tomoni elektronlar harakatchanligining o‘zgarishini ifodalaydi.  $Y < 0$  bo‘lganda kovaklar harakatchanligi o‘zgaradi.


Rasmidan ko'rinadiki,  $Y_e \sim 12 \frac{kT}{\epsilon}$  bo'lganida elektronlarning effektiv harakatchanligi hajmdagidan 10 marta kichik bo'lishi mumkin. Xona temperaturasida va sirdagi potensial 0,25 V bo'lganida kovaklar harakatchanligi hajmdagidan 2 marta kichik bo'ladi.

#### 2.4.2. Fazoviy zaryad sohasida Xoll harakatchanligi

Xoll effekti bo'yicha o'lhashlarni amalga oshirib, harakatchanligini aniqlash mumkin:  $\mu_{\text{eff}} = R\sigma$ ; bunda,  $R$  – Xoll doimiysi,  $\sigma$  – o'tkazuvchanlik.  $\mu_n$  – mikroskopik yoki o'tkazuvchanlik bo'yicha  $\mu$  (tomik) harakatchanlikdan farq qiladi:  $\mu_n = \chi\mu$ , bundagi  $\chi$  ko'paytigich 1 dan 2 gacha o'zgaradi, uning qiymati sochilish xususiyatiga bog'liqidir. Sfera sohalni aynimagan yarimo'tkazgichlarda  $I$  erkin yugurish yo'li energiyaga bog'liq bo'lмаган holda  $\chi = \frac{3\pi}{8}$  bo'ladi. Agar  $I \sim v$  bo'lsa, bunday namunalarda parametr 1 ga yaqin bo'ladi. Ellipsoidal (Ge va Si da shunaqa) izoenergetik sirtli aynimagan yarimo'tkazgichlarda  $I = \frac{3\pi}{8} \rightarrow \frac{3(2\chi+1)}{(\chi+2)^2}$ . Bunda  $\chi$  – ko'ndalang va

bo'ylama effektiv massalar nisbati.  $\chi$  ning qiymati fazoviy zaryad sohasida hajmi uchun hisoblangan qiymatdan farq qilishi mumkin.

2.8-rasmda ko'rsatilganidek, uzunligi  $L$ , kengligi  $W$ , qalinligi  $d$  bo'lgan namunaga  $x$  yo'nalishida  $E_x$  elektr maydon,  $z$  yo'nalishida  $H_z$  magnit maydon qo'yilgan, u holda  $x$  yo'nalishida tok o'tib tursa,



2.8-rasm.

bu yo'nalishda  $E_y$  Xoll maydoni vujudga keladi. Xoll maydoni magnit maydoni tomonidan zaryad tashuvchilarga ta'sir qiluvchi Lorens kuchini muvozanatlagani uchun ushbu yo'nalishda tok bo'lmaydi:  $E_y = 0$ .

Toklar ifodalari:

$$I_x = \int_0^d ix(z) dz, \quad (2.22)$$

$$I_y = \int_0^d iy(z) dt = 0. \quad (2.23)$$

$\sigma$  – o'tkazuvchanlik va  $R$  – Xoll doimiysi ma'lum.

$$\sigma = \frac{I_x}{E_x W d}, \quad (2.24)$$

$$R = \frac{E_y W d}{I_x H} \quad (2.24)$$

ifodalarga ega.

$I_x$  (2.22) ifodadan va  $E_y$  (2.23) ifodadan aniqlanadi. Buni (2.24) va (2.25) ga qo'yib sirdagi o'tkazuvchanlik  $\sigma$  va Xoll doimiysi  $R$  ni hisoblash mumkin.

$\sigma$  uchun ifoda  $\sigma_s$  uchun olingan (2.24) ifodaga mos tushadi, ammo

$$R = \frac{1}{\sigma^2} N e \mu_b^2 H \left[ 1 - \frac{2\alpha}{\sqrt{\pi}} - (1 - 2\alpha^2) e^{\alpha^2} \operatorname{erfc} \alpha \right], \quad (2.26)$$

bu yerda,  $\operatorname{erfc} \alpha = 1 - \operatorname{erf} \alpha$ ,  $\mu_{bn}$  – hajmiy Xoll harakatchanligi.

Quyidagi ifoda bo'yicha effektiv Xoll harakatchanligi kiritiladi:

$$R = \frac{e N (\mu^2)_{eff}}{\sigma^2}. \quad (2.27)$$

Binobarin,

$$\left( \frac{\mu_{eff}}{\mu_b} \right)_H = \left[ 1 - \frac{2\alpha}{\sqrt{\pi}} - (1 - 2\alpha^2) e^{\alpha^2} \operatorname{erfc} \alpha \right]. \quad (2.28)$$

Yoniy hisob ko'rsatishicha,  $\left(\frac{\mu_{eff}}{\mu_b}\right)_H$  nisbat  $\left(\frac{\mu_{eff}}{\mu_b}\right)_\sigma$  dan birmuncha turq qiladi.  $\alpha$  katta bo'lganda ( $E_z$  kichik, sohalar egilishi ham kichik) ikkala nisbat ham 1 ga intiladi.


Kichik  $\alpha$  larda (sohalar egilishi katta)  $\left(\frac{\mu_{eff}}{\mu_b}\right)_\sigma$  egri chiziq biroz yinotida joylashgan  $\alpha \rightarrow 0$  bo'lganda:

$$\left(\frac{\mu_{eff}}{\mu_b}\right)_\sigma - \frac{2\alpha}{\sqrt{\pi}}, \quad \left(\frac{\mu_{eff}}{\mu_b}\right)_H = \alpha. \quad (2.29).$$

#### 2.4.3. Sirdagi sohada zaryad tashuvchilar harakatchanligini tajribada o'rGANISH

Mumkin bo'lgan o'lchanasi sxemalarining eng qulay ko'rinishi 2.9-rasmda tasvirlangan. Bunda zaryad tashuvchilar effektiv harakatchanligi yuqqa namunalarda o'lchanadi, chunki bunday namunalarda sirdagi sochilish muhim bo'ladi.

Bu holdagi ekvivalent sxemani qaraylik. Kristallni  $z$  o'qi bo'ylab ilki sohaga — ekranlash uzunligi  $d_s$ , tartibidagi sirt yaqinidagi sohaga va  $d_b$  qalinlikdagi hajmiy sohaga ajratiladi. Ikkala soha ham Xoll FTK ga hissa qo'shadi. Ular parallel ulangan. Keyinchalik  $s$  indeks intdagagi kattaliklarga,  $b$  indeks hajmiy kattaliklarga tegishli bo'ladi.



2.9-rasm.

## 2.10-rasmdan ko‘rinadiki, Xoll kuchlanishini

$$V = \frac{RIH}{d} = \frac{I}{G} = \frac{V_b G_b + V_s G_s}{G_b + G_s} \quad (2.30)$$

ko‘rinishida yozish mumkin. Bunda  $I$  – qo‘yilgan elektr maydon paydo qilgan to‘la tok,  $G$  – namunaning to‘la o‘tkazuvchanligi,  $R$  – Xoll doimiysi. Unga quyidagi ifodalar o‘rinli:

$$V_b = \frac{R_b I_b H}{d_b}; \quad G_b = \sigma_b \frac{I d_b}{W}; \quad \frac{I_b}{I} = \frac{G_b}{G} = \frac{\sigma_b d_b}{\sigma_b d_b + \sigma_s d_s}, \quad (2.31)$$

$$V_s = \frac{R_s I_s H}{d_s}; \quad G_s = \sigma_s \frac{I d_s}{W}; \quad \frac{I_s}{I} = \frac{G_s}{G} = \frac{\sigma_s d_s}{\sigma_b d_b + \sigma_s d_s} \quad (2.32)$$

(2.31) va (2.32) ifodalarni (2.27) ga qo‘ysak,

$$R = d \frac{R_b d_b \sigma_b^2 + R_s d_s \sigma_s^2}{(d_b \sigma_b + d_s \sigma_s)^2} \quad (2.33)$$

solishtirma o‘tkazuvchanlik uchun  $\sigma = \frac{1}{d} (d_b \sigma_b + d_s \sigma_s)$  ifodani olish qiyin emas.

Zonalarning sirt yaqinida egilishi o‘zgarganida  $\sigma_s$  va  $R_s$  kattaliklar o‘zgaradi, ammo  $\sigma_b$  va  $R_b$  lar o‘zgarmay qoladi.

Agar dastlabki egilish nolga teng deyilsa ( $R_b = R_s$ ,  $\sigma_b = \sigma_s$ ). Xoll doimiysining nisbiy o‘zgarishi


$$\frac{\Delta R}{R_b} = \frac{d_s}{d} \frac{\Delta R_s}{R_b}, \quad (2.35)$$

$$\frac{\Delta \sigma}{\sigma_b} = \frac{d_s}{d} \frac{\Delta \sigma_s}{\sigma_b}, \quad (2.36)$$

$$\frac{\Delta R}{R_b} = \frac{d_s}{d} \frac{\Delta n_s}{n_b}, \quad (2.37)$$

$$\frac{\Delta \sigma}{\sigma_b} \approx \frac{d_s}{d} \left( \frac{\Delta n_s}{n_b} + \frac{\Delta \mu_s}{\mu_b} \right). \quad (2.38)$$


Xoll effektini yupqa namunalarda va o‘tkazuvchanlilikni turli sohaviy egilishar holida o‘lchab, sirdagi harakatchanlik qiymatini olish mumkin. Agar  $\Delta n_s$  ni sohalar egilishi  $Y_s$  orqali,  $\mu_s$  ni esa turli  $Y_s$  larda baholansa, bu holda masala soddalashadi.  $n_b$  va  $\mu_b$  kattaliklar  $R$  va  $\sigma$  ni qalin namunalarda o‘lchashdan topiladi.



2.10-rasm.

$\frac{R}{R_{\max}} \frac{\sigma - \sigma_{\min}}{\sigma_{\min}}$  ifodaning  $\frac{\sigma - \sigma_{\min}}{\sigma_{\min}}$  ga tajribaviy bog'lanishi topilgan va nazariya bilan taqqoslangan.

Odatda sirdagi harakatchanlik Xoll EYK ini o'lhash orqali aniqlanadi. Shuningdek, sirdagi harakatchanlik Xoll tokini o'lhash orqali aniqlanishi ham mumkin. Bu usul shunday: agar kristalldan  $x$  yo'nalishida tok o'tkazayotib, uni z o'qi bo'yicha yo'nalgan  $N$  magnet maydonga joylansa, zaryad tashuvchilarga ta'sir etuvchi Lorens kuchi y yo'nalishda Xoll toki paydo qiladi va  $E_y$  maydon vujudga



2.11-rasm.

toki  $I_y$  kattaligi zaryad tashuvchilarning Xoll harakatchanligiga bog'liq. Shu  $I_y$  tokni o'lchab Xoll harakatchanligi topiladi.

Tajribada yon kontaktlardan biri kesiladi va galvanometr ulanadi (2.11-rasm). Agar kesik kontakning qoq o'rtaidan bo'lsa, magnit maydon yo'qligida  $R_1=R_2$ ,  $I_g = 0$  bo'ladi. Magnit maydon paydo qilinganda galvanometr  $I_s = 0,5I_y$  tokini qayd qiladi.

$I_y$  tok hajmiy ( $I_{vh}$ ) va sirdagi ( $I_{ys}$ ) Xoll toklari yig'indisidir. Agar bu toklarning har biri o'lchansa, u holda hajmiy va sirdagi harakatchanliklar kattaligini aniqlab olish mumkin.

Xoll tok usulining Xoll EYK usuliga nisbatan afzalligi shundaki, u  $I_s$  va  $I_b$  toklarni oson ajratadi.

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Yarimo'tkazgichlar sirtida fazoviy zaryad sohasi paydo bo'lishini tushuntiring.
2. Sirdagi elektr o'tkazuvchanlik va uning hajmiy o'tkazuvchanlikdan qanday farqlari bor?
3. Fazoviy zaryad sohasida zaryad tashuvchilarning omik harakatchanligi xususiyatlarini aytib bering.
4. Fazoviy zaryad sohasida zaryad tashuvchilarning Xoll harakatchanligining omik harakatchanlikka munosabati qanaqa?
5. Sirdagi harakatchanlikni o'rganishning qanday usullari bor?

### **III BOB. YARIMO'TKAZGICH SIRTIDA ADSORBLASH HODISALARI**

#### **3.1. Adsorblast va uning asosiy qonuniyatları**

Endi Lengmyur nazariyasining asosiy farazlari haqida to'xtalib o'tamiz. Yarimo'tkazgich gaz muhit bilan ta'sirlashganda uning sirti gaz molekulalari bilan to'la boshlaydi. Bu jarayon *adsorblast* (sirtga yopishish yoki so'rlish) deyiladi. Bu jarayon muvozanat sodir bo'l-guncha, ya'ni sirtga kelayotgan va undan ketayotgan gaz molekulalari sonlari tenglashguncha davom etadi. Yarimo'tkazgich sirtida adsorblangan molekulalar paydo bo'lishi uning xossalarni o'zgartiradi.

Ba'zi hollarda adsorblast jarayoni juda tez boradi, muvozanat deyarli bir onda sodir bo'ladi. Boshqa hollarda bu jarayon yetarlicha sekim boradi va sirt bilan gaz muhit orasida muvozanat hosil bo'l-guncha ancha vaqt o'tadi. Bu holda adsorblangan zarralar soni  $N$  vug'tga bog'liq, ya'ni  $N(t)$  bo'ladi. Biz bunda adsorblast kinetikasi haqida gap yuritamiz.

Adsorbsion muvozanat o'rnatilganda sirt birligida yutilgan gaz molekulalari soni bosim  $P$  va temperatura  $T$  ga bog'liq:

$$N = N(P, T). \quad (3.1).$$

(3.1) tenglama *holat tenglamasi* deyiladi.

Lengmyurning adsorblast nazariyasi quyidagi farazlarga asoslangan:

1. Adsorblast ayrim adsorbsion markazlarda yuz beradi. Har bir markaz biringa gaz molekulasini tutib tura oladi. Sirt faqat mazkur molekulalarga nisbatan birday bog'lanish energiyali bir xil adsorbsion markazlarga ega. Bunday sirtni energetik bir jins sirt deyiladi.

2. Adsorblangan molekulalar bir-biri bilan o'zaro ta'sirlashmaydi, ya'ni bog'lanish mustahkamligi faqat markaz va molekula tabiatiga bog'liq.

3. Sirdagi adsorbsion markazlar soni mazkur sirt uchun doimiy berilgan kattalik. U temperaturaga bog'liqmas va sirtning to'ldirilishi uni o'zgartirmaydi.

4. Molekula adsorblangan holatda bo'lganda uning adsorbsion markaz bilan bog'lanish energiyasi o'zgarmaydi.

### 3.2. Adsorblash kinetikasi

Adsorblash jarayoni sekin borganda adsorblangan molekulalar (zarralar) soni vaqt bo'yicha o'zgaradi:  $N = N(P, T)$ . Sirt birligida adsorblash markazlari soni  $N^*$  bo'lzin. Bu holda adsorblash kinetikasi tenglamasi

$$\frac{dN}{dt} = \alpha P(N^* - N) - \beta N, \quad (3.2)$$

bo'ladi. Bundan

$$\alpha = \chi s / \sqrt{2\pi M k T}, \quad \beta = \eta e^{-E_b / k T} \quad (3.3)$$

kelib chiqadi. (3.2) tenglamadagi birinchi had 1 s da sirtning  $1 \text{ sm}^2$  ga keluvchi molekulalar sonini, ikkinchi had esa shu vaqtda shu sirtdan ketuvchi molekulalar sonini bildiradi.  $M$  — adsorblangan molekula massasi,  $s$  — uning effektiv yuzi,  $\chi$  — gaz molekulasining markazda ushlab qolish ehtimolligi,  $\eta$  — molekulaning desorblash (ajralib chiqish) ehtimolligi,  $E_b$  — bog'lanish energiyasi.

Jarayon boshlanishida sirtning to'ldirilishi kichik ( $N \ll N^*$ ) bo'l-gani sababli, desorblashni e'tiborga olmasa ham bo'ladi. Adsorblash tezligi uchun

$$\frac{dN}{dt} = \alpha P N^* \quad (3.4)$$

tenglamani olamiz.

(3.2) tenglamani  $t = 0$  da  $N = 0$  boshlang'ich shartda yechsak,

$$N(t) = \frac{N^*}{1+b/p} (1 - e^{-at}), \quad (3.5)$$

bunda  $\alpha = \alpha P + \beta$ ,  $b = \beta/\alpha t \ll 1/\alpha$  bo'lganda (3.5) yechim (3.4) ifodaga mos tushadi. Bu Lengmyur ifodalari bo'lib, haqiqatda kuzatiladi, ba'zan esa Roginskiy-Zeldovich tenglamasi

$$\frac{dN}{dt} = C e^{-\gamma/N} \quad (3.6)$$

va uning yechimi

$$N(t) = \frac{1}{\gamma} \ln \left( 1 + \frac{t}{t_0} \right) \quad (3.7)$$

qo'llaniladi, bunda  $\gamma > 0$ . Dastlab bu yechim CO ning  $\text{MnO}_2$  sirtida adsorblanish kinetikasi uchun qo'llangan va ijobjiy natija olingan.

### 3.3. Adsorbsion muvozanat

Agar  $t = \infty$  (adsorbsion muvozanat o'rnatilgan) deb hisoblansa, (3.9) dan izoterma tenglamasi hosil qilinishi mumkin:

$$N(t) = \frac{N^*}{1+(b/p)} \quad \text{yoki} \quad N(t) = N^* \frac{P/b}{1+P/b}, \quad (3.9)$$

Bunda  $b = b_0 \exp(-E\alpha/kT)$ .

Eshikina bosimlar sohasida ( $P \ll b$  yoki  $N \ll N^*$ ):

$$N = N^* P/b. \quad (3.10)$$

Agar adsorblash vaqtida molekula ikkita atomga ajralsa (masalan, H<sub>2</sub> molekulasi ikkita H atomiga), (3.9) o'rniga

$$N = \frac{N^*}{1+\sqrt{b/P}} \quad (3.11)$$

Bo'sh o'rni bo'lib, past bosimlar sohasida

$$N(t) = N^* \sqrt{\frac{P}{b}} \quad (3.12)$$

taribili

Tu'zuz muhit bir qancha gazlar aralashmasidan iborat bo'lsa, har biri past uchun izoterma

$$N(t) = N^* \frac{P_i / b_i}{1+Z_i P_i / b_i} \quad (3.13)$$

Uchun bo'ldi. Agar hamma gazlar bir xil markazlarda adsorbsion uchun holda

$$N(t) = N^* \frac{P_i / b_i}{1+Z_i P_i / b_i}. \quad (3.14)$$

Loyning (3.9) izotermasi hamma vaqt ham tajribada tasdiq qilingan. Ko'pincha Freydlixning

$$N = CP^n \quad (3.15)$$

doqridi izotermasi (bunda C va n < 1 – doimiylar) yoki

$$N = C \ln(P/P_0) \quad (3.16)$$

Oqibatli izoterma (C va P<sub>0</sub>) o'rni bo'ldi. Yuqorida adsorbsion uchun anat o'rnatilganda qanday qonuniyatlar bo'lishligi va ularning oqibatlari haqida qisqacha to'xtaldik. Endi adsorblash kinetikasi haqida

ma'lumot beramiz. Faraz qilaylik, sirt va gaz muhiti orasida adsorption muvozanat o'rnatilgandan so'ng bosim keskin kamayadi — adsorblangan molekulalar sirtni tashlab keta boshlaydi, desorblast jarayoni boshlanadi.

(3.2) tenglamani  $t = 0$  da  $N = N_0$  bo'ladi ( $N_0$  muvozanatiy to'ldirilganlik) degan boshlang'ich shartga tayanib yechilsa,

$$N = N_0 e^{-\beta t} \quad (3.17)$$

kinetika tenglamasini olamiz. Desorblast (adsorblast temperaturasida) natijasida haqiqatda sirtdan hamma adsorbatni uzoqlashtirib bo'lmaydi. Molekulalarning bir qismi qaytmas ravishda adsorblanganicha qoladi. Ularni sirtdan uzoqlashtirish uchun temperaturani yetarlicha ko'tarish kerak.

### 3.4. Fizik va kimyoviy adsorblast

Fizik va kimyoviy adsorblashlar orasida qanday farq bor? Bu farq adsorblangan molekulani sirtda tutib turuvchi kuchlar tabiatini xilligidan kelib chiqadi.

Haqiqatan, qattiq jism bilan molekula orasida vujudga kelib adsorblastni taqozo qiluvchi kuchlar turli tabiatli bo'ladi. Bu kuchlar elektrostatik, Van-der-Vaals, elektr ta'sir kuchlari bo'lsa, bu holda adsorblastni *fizik adsorblast* deyiladi. Agar adsorblast uchun javobgar kuchlar kimyoviy tabiatga ega bo'lsa, bu holda *kimyoviy adsorblast* (*xemosorblast*) deyiladi. Bu holdagi adsorblast molekulaning qattiq jism bilan kimyoviy birikuvidan iborat. 3.1-rasm, a da sistema  $W$  energiyasining adsorbent sirti va adsorblanuvchi zarra orasidagi  $r$  masofa funksiyasi sifatidagi adsorbsion egri chiziq tasvirlangan. Bunda  $E_b$  — adsorblast issiqligi (bog'lanish energiyasi),  $r_0$  — muvozanat holdagi masofa.

Xemosorblast, fizik adsorblastdan farqli ravishda kichikroq  $r_0$  va ancha katta  $E_b$  orqali ifodalanadi. Fizik adsorblastda  $E_b \sim 0,01-0,1$  eV bo'lsa, kimyoviy adsorblastda  $E_b \sim 1$  eV chamasida. Fizik adsorblastda adsorblanuvchi (sirtga yutiluvchi) molekula va adsorbent panjrasini ikki mustaqil sistema tariqasida qaralishi mumkin. Kimyoviy adsorblastda molekula va panjara bitta kvantmexanik sistemani tashkil etadi.

3.1-rasmida ko'rsatilgan adsorbsion minimumlarni hisoblash masalasi ustida to'xtaylik. 3.1-rasm, a dagi  $W = W(r)$  egri chiziqdagi fizik (Van-der-Vaals) adsorblast minimumini hisoblashda muvoza-

matdagı  $r_0$  masofa uchun adsorbtionadigan zarra va adsorbent atomi radiuslari yig'indisiga teng so'li kichikroq qiymatlar olingan. Radiuslar yig'indisidan kichik murollarda Van-der-Vaals kuchi o'smo ta'siri (fizik adsorblash turjiniladi) ma'nosini yo'qotadi. Bu holda almashinuv o'zaro o'smo kuchiga kiradi. Ko'pincha adsorbsion egri chiziq  $W=W(r)$


*a*-rasm, *b* dagidek chiziladi, unda energetik (aktivatsion) to'siq bilan ajralgan ikkita minimum bor. Bunda birinchi chugunmas  $r = r_0'$  minimum fizik adsorblash deb ataladi va chuguroq  $r = r_0''$  minimumni kimyo-viy adsorblashga tegishli deb hisoblanadi ( $r_0'' < r_0'$ ). Zarraning

i nuqtadan energetik to'siq orqali *B* nuqtaga o'tishi zarraning fizik adsorblash holatiga o'tishini bildiradi. Ammo bunday adsorblash egri chizig'i bo'lmaydi. Fizik va kimyo-viy adsorblashlar, sistemaning ikki turli elektron holatini ifodalaydigan ikki turli adsorbsion minimumni ajratadigan energetik to'siq, *3.1-rasm*, *d* da ko'rsatilganidek, ikki adsorbsion egri chiziqlar kesishishi oqibatida vujudga kelishi mumkin.

Endi xemosorblashni ko'rib chiqamiz.

Sistemani dastavval qo'zg'atish (faollash)dan so'ng amalga oshadigan adsorblashni faollashgan (aktivlashgan) adsorblash deyiladi. Bunda muayyan energiya sarfianadi.

Odatda kimyo-viy adsorblash faollashgan adsorblash bo'ladi, ammo bu zaruriy shart emas. Faollashgan adsorblash kinetikasi oddiy (faollashmagan) adsorblashnikidan farq qiladi. Oddiy adsorblash juda tez boradi, adsorbsion muvozanat amalda bir onda qaror topadi, temperatura qancha past bo'lsa, shuncha tezroq yuz beradi. Faollashgan adsorblash hamda muvozanat sekin qaror topadi. Adsorblash tezligini o'lchash mumkin, temperatura qancha yuqori bo'lsa, bu tezlik shuncha katta bo'ladi. Isitish adsorblashni tezlashtiradi.



3.1-rasm. dastavval

Adsorblash jarayoni boshida, (3.3) va (3.4) ifodaga muvofiq, adsorblash tezligi uchun

$$\frac{dN}{dt} = \chi \frac{sN^*}{\sqrt{2\pi MkT}} P \quad (3.18)$$

munosabat o'rinnidir.  $\chi$  ko'paytuvchi gazdan adsorbsion markazga o'tgan molekulaning shu markazda qolishligi ehtimolini ifodalaydi. Faollahgan va oddiy adsorblashlar farqi  $\chi$  ko'paytuvchi ko'rinishiga bog'liq. Oddiy adsorblash holida  $\chi$  koeffitsiyent temperaturaga bog'liq emas va  $\chi = 1$ .

Demak, oddiy adsorblash tezligi temperatura oshganda sekin kamayib boradi. Faollahgan adsorblashda

$$\chi \sim \exp(-E/kT) \quad (3.19)$$

deb faraz qilinadi; bunda  $E$  – faollah energiyasi. Demak,  $T$  ortganda faollahgan adsorblash tezligi juda tez eksponensial ortib boradi. Odatda, faollah to'sig'i tushunchasi kiritiladi va uning balandligi  $E$  ga teng bo'ladi.

Faollah to'sig'inining tabiatini qanday?

Faollah to'sig'i molekula adsorblanganda uning atomlarga yoki radikallarga parchalanishi holida vujudga keladi. Bu masala vodorod molekulasi  $H_2$  ning ikkita N atomga ajralishi misolida ko'rib chiqilgan. Umumiy holda

$$N^* \sim e^{-E_1/kT}, \quad \chi \sim e^{-E_2/kT}. \quad (3.20)$$

Faollah energiyasi  $E = E_1 + E_2$ .

Faollah to'sig'i fizik va kimyoviy adsorblash (xemosorblash) hollarida vujudga kelishi mumkin.

### 3.5. Yarimo'tkazgichda anion va kationni adsorblash


Ko'pincha, kimyoviy adsorblashda adsorblanadigan molekula va yarimo'tkazgich orasida zaryad tashuvchilar almashinuviga yuz beradi, deb hisoblanadi. Bunda sirt zaryadlanadi. Agar  $N_m$  adsorbent sirtining  $1 \text{ sm}^2$  yuziga adsorblanadigan molekulalar soni teng bo'lsa, sirtdagi zaryad zichligi  $eN_m$  bo'ladi.

Xemosorblash vaqtida elektron qattiq jismdan adsorblangan atomga o'tsa, unda manfiy ion adsorblanadi. Buni *anion adsorblash* deyiladi va u  $n$ -tur yarimo'tkazgichda sodir bo'ladi.


Anion adsorblashda sirtning manfiy zaryadlanishi elektron potential energiyasining hajmdagiga nisbatan sirtda yuqori bo'lishiga olib keladi. Binobarin, elektron chiqishi uchun  $\phi$  ga qo'shimcha  $\phi'$  potensial tur'uj vujudga keladi (3.2-rasm).

Adsorblash davomida  $\phi'$  kristall va adsorbatning Fermi sathlari tengishguncha ortib boradi. Bunda muvozanat o'rashadi.  $\phi'$  qo'shimcha to'siq balandligini adsorblangan atomlar soni  $N_m$  aniqlaydi.

Xulosa shuki, anion adsorblanishi natijasida elektronning yarim-o'tkazgichdan chiqish ishi  $\phi'$  miqdorga ortadi, elektron ( $n$ -tur)ning yarim-o'tkazgich o'tkazuvchanligi kamayadi (3.3-rasm). (3.22)



**3.2-rasm.**



**3.3-rasm.**

Kation adsorblash  $p$ -tur yarimo'tkazgichda yuz beradi. Agar yarimo'tkazgichdan chiqish ishi adsorblangan atomning ionlanish energiyasiidan katta bo'lganda kation adsorblanish kuzatiladi. Bu holda kristall sirtida musbat ion adsorblanadi. Adsorblangan atomlar soni ortaborgan sari sirt yaqinida sohalar pastga egiladi,  $p$ -tur yarimo'tkazgichdan chiqishi va uning o'tkazuvchanligi kamayadi.

Puasson tenglamasini yechib,

$$N_m = \left[ \frac{\epsilon}{2\pi e} n_0 \varphi' \right]^{\frac{1}{2}} \quad (3.21)$$

bog'lanish olingan. Shunga ko'ra, tajribadan  $\varphi'$  ni aniqlab,  $N_m$  ni topib olish mumkin.  $N_m$  ning  $3 \cdot 10^{12} \text{ sm}^{-2}$  bo'lishi hisoblab topilgan. Asosiy atomlar sirdagi zichligi  $\text{sm}^{-2}$  deb hisoblansa,  $N_m$  uning 1% dan kamroq'ini tashkil qiladi. Boshqa usullar yordamida ham  $N_m$  qiymati aniqlanadi. Ular yuqoridagisidan ancha katta bo'lishi ma'lum.

### 3.6. Xemosorplashning zamonaviy nazariyasi


Bu nazariyaga asosan, xemosorplash vaqtida yarimo'tkazgich kristali sirtida mahalliy energetik sath vujudga keladi.

Bu sath sirdagi nuqsonlar bilan bog'liq sathlarga o'xshaydi. Ammu ular orasida tafovut ham bor. Xemosorbsion zarralar sirtga keladi va undan ketadi, oddiy nuqsonlar esa joyida qolaveradi. Yutilish vaqtida hosil bo'ladigan sath ( $E_a$ ) ning vaziyati adsorbent kristall panjarasi xossalariiga hamda atomning tabiatiga bog'liq. Agar adsorbsion sathga

kristallning erkin elektroni joylashsa olsa, u holda bu sath akseptor sath bo'ladi. Agar adsorbsion sath o'ziga erkin kovakni qabul qiladigan bo'lisa, u holda bu sath donor vazifasini o'taydi (3.4-rasm).

Xemosorplashning ikki shakli farq qilinadi.

1. Kuchsiz (sust) xemosorplashda adsorblangan zarra elektr jihatdan neytral qoladi va binobarin, u bilan qattiq jism orasidagi aloqada erkin zaryad tashuvchilar qatnashmaydi.



3.4-rasm.

Mustahkam xemosorplashda adsorblangan zarracha elektronlar ollungan bo'ladi. Kristall panjaraning erkin zaryad tashuvchilari sifatiga bog'lanishda bevosita ishtirok etadi.

$N_a$  – kristall sirtida adsorblangan molekulalarning umumiy soni,  $N_m$  – zaryadlangan holatdagi molekulalar soni bo'lsin. Adsorblangan molekulalarning zaryadlangan holatda bo'lish ehtimolligi  $\eta = \frac{N_a}{N_m}$  ga teng.

Agar bu sath  $E_a$  akseptor bo'lsa, u holda

$$\eta = 1 / \left( 1 + \exp \frac{E_F - E_a}{kT} \right) \quad (3.22)$$

bu holda Agar bu sath  $E_d$  donor bo'lsa, u holda

$$\eta = 1 / \left( 1 + \exp \frac{E_d - E_F}{kT} \right) \quad (3.23)$$

bu holda,  $E_F$  – Fermi sathi.

Elektr o'lchamlardan (masalan, adsorplashda chiqish ishining o'rnatishini o'lchab)  $\eta N_m$  kattalikni aniqlash mumkin.

### 3.7. Adsorplashning chiqish ishiga va o'tkazuvchanlikka ta'sirini aniqlash

Adsorplashda sirtning qoplanish darajasi to'g'risida ma'lumot beradigan tajribalar o'tkazuvchanlikni va chiqish ishini o'lchashlardir.

Yarimo'tkazgichlarning elektrik xossalariiga adsorplashning ta'sirini o'rnatish uchun tadqiqlanuvchi kristall vakuumga joylandi. Bunday tadqiqotlarda namuning o'tkazuvchanligi quyidagi usullar yordamida o'lchanadi:

1. *O'zgarmas tok ko'priji usuli.* Oldindan darajalab olingen muvozanatsiz ko'priki qo'llash qulay, chunki bu usul jarayon kinetikasi adsorplash vaqtida namuna qarshiligining vaqt bo'yicha o'zgartishini o'rnanish imkonini beradi.

2. *Kompensatsion usul.* Odatda o'tkazuvchanlikni o'lchashning ilki zondli usuli qo'llaniladi.

3. Namunada o'zgarmas kuchlanish tutib turilgani holda namuna orqali tokning adsorplash oqibatida o'zgarishini aniqlash usuli. Bu eng odda usul kattaliklar tartibini baholovchi o'lchashlarda qo'llaniladi.

Kontakt potensiallar ayirmasini o'lchashning butun bir qator usullari mavjud.

Adsorblast jarayonida chiqish ishining o'zgarishini tadqiqlashish yarimo'tkazgich-metall kontaktining metall qatlamida chiqish ~~ishini~~ o'lhashlar vaqtida o'zgarmasligiga ishonch bo'lishi kerak. Tajribahu natijalari ko'rsatishicha bu shart bajariladi.

Biqutbiy (bir vaqtda elektron va kovak) o'tkazuvchanlikli yarim o'tkazgich uchun adsorblast vaqtida sirt zaryadi ishorasini aniqlashish bir vaqtda ham chiqish ishi, ham o'tkazuvchanlik o'lchansa yaxshi natija olinadi.

Suv bug'lari, spirt, aseton va boshqa moddalarning yarimo'tkazgichga adsorblanishi (sirtiga yutilishi) uning sohalarini pastga egadi, bu esa o'tkazuvchanlik va chiqish ishini o'lhashlarda namoyon bo'ladi. Kislород одатда chiqish ishini va *p*-tur kristall o'tkazuvchanligini amalga oshiradi, ya'ni kislород yutilganda sirt manfiy zaryadlanadi.

Dipol momentli molekulalar muayyan yo'nalishda adsorblangandu sohalar egilishiga molekulalarning kristall bilan bog'lanishi donor yoki akseptor xususiyatlari bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi. Adsorblast jarayonida sirtga har xil oriyentirlangan molekulalar sohalar egilishini bir tomoniga o'zgartirishi mumkin.

Suv bug'i muhitida germaniyning sirdagi o'tkazuvchanligi *n*-tur, ozon atmosferasida *p*-tur bo'ladi, quruq kislород muhitida o'tkazuvchanlik minimumi kuzatiladi. Ba'zi hollarda bosim keng oraliqda o'zgarganida ham o'tkazuvchanlik minimumini olish va adsorblast vaqtida hosil bo'ladi sirdagi sathlar parametrlarini aniqlash mumkin.

Molekulalar adsorblanganda sirdagi potensialning o'zgarish usuli sirdagi elektron holatlar haqida muhim ma'lumot olishga yordam beradi.

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Adsorblast hodisasi nima?
2. Adsorblastning asosiy qonuniyatlarini bayon qiling.
3. Adsorblast jarayoni borishini tavsiflang.
4. Adsorbsion muvozanat sharoitini bayon qiling.
5. Fizik adsorblast deb qanday adsorblastga aytildi?
6. Kimyoviy adsorblastni fizik adsorblastdan farqi nimada?
7. Anion va kation adsorblastlarni ta'riflang.
8. Xemosorblast nazariyasi asoslarini tushuntiring.

## **II BOB. YARIMO'TKAZGICHLARDA MAYDON EFFEKTI**


‘irdagi potensialni o’zgartirishning mukammalroq usuli *maydon effekti* deb atalgan hodisadir.

U qnyidagidan iborat: agar bir qoplamasi namuna, ikkinchisi metall bo’lgan, qoplamlar orasiga katta dielektrik singdiruvchanlik (izolator) joylangan kondensator yig’ilsa va unga chislamish berilsa, bu holda yarimo’tkazgich sirti yaqinida hajmiy maydon hosil bo’ladi. U metall plastinkadagi zaryadni neyrallaydi.

Eraz qilaylik, maydon (kuchlanish) qo’yliguncha mazkur (*p-tur*) izolator uchun energiya sohalarining boshlang’ich egilishi nolga ega edi (4.1-rasm, *a*). Kuchlanish berilganda (4.1-rasm, *b*) sirt yaqimligi sohada kovaklar zichligi hajmdagidan ortiq bo’ladi, energiya chaliri yuqoriga egiladi.

Yarimo’tkazgich namunasi sirtida hosil qilinadigan maydonni o’zgartirib, sirdagi potensialni keng oraliqlarda o’zgartirish mumkin. Bu o’zgarishda sirt sohasidagi zaryadlar taqsimoti o’zgaradi. Elektr maydon ta’sirida yarimo’tkazgich kristalli o’tkazuvchanligining o’zparish hodisasini *maydon effekti* deyiladi.

Ma’lumki, yarimo’tkazgich sirtida elektron holatlari mavjud bo’ladi. Maydon ta’sirida paydo bo’lgan zaryadlarning bir qismi ana shu holatlarga o’tiradi. Sirdagi holatlar zichligi qancha katta bo’lsa,



**4.1-rasm.**

maydon effekti hodisasida o'tkazuvchanlikning kuzatilgan statsionar o'zgarishi shuncha kichik bo'ladi. Shuning uchun sirdagi holatlar parametrlari haqida ma'lumot olish uchun maydon effektini o'lchashdan foydalanish mumkin. Tashqi elektr maydon yordamida sirdagi potensialni o'zgartirish usuli oldin qaralgan molekulalar adsorblashi usuliga nisbatan qator afzalliklarga ega.

1. Maydon effekti usulida tekshirishlar o'tkazilganda sirdagi holatlar tizimi o'zgarmaydi, adsorblash holida o'zgarish bo'lar edi. Bunda faqat sirdagi holatlarning to'ldirilganligi o'zgaradi. Ammo juda katta kuchlanish hosil qilinganda elektradsorblash hodisasi yuz beradi.

2. Maydon effekti usulida yetarlicha oraliqda sirdagi potensialni amalda uzlusiz o'zgartirib borish va istalgan sohalar egilishini hosil qilish mumkin.


#### **4.1. Maydon effekti usulida yarimo'tkazgichlar sirtining energetik tuzilishini o'rganish**

Statsionar (vaqt bo'yicha doimiy) holda maydon effektini o'lhash asosida sirdagi o'tkazuvchanlik turini ( $n$ -tur yoki  $p$ -tur ekanligini) aniqlash, sirtda sohalar boshlang'ich egilishini topish va sohalar egilishining qo'yilgan kuchlanishga bog'liqligini aniqlash mumkin. Maydon effekti ma'lumotlari asosida sohalar egilishiga bog'liq ravishda sirt sohasidagi zaryad va sirtga o'tgan zaryad miqdorini aniqlash mumkin. Nihoyat, maydon effekti kinetikasini o'rganish sirdagi holatlar relaksiya vaqtini aniqlashga yordam beradi.


Bu usul sirdagi elektron holatlar zichligi uncha katta bo'lмаган ( $\sim 10^{10} - 10^{12} \text{ sm}^{-2}$ ) holda yaxshi natijalar beradi. Hajmdagi sohalar va sirdagi holatlar orasida muvozanat o'rashgan holni qaraylik. Tajribada namuna o'tkazuvchanligi  $\Delta\sigma$  o'zgarishining kondensatorga qo'yilgan kuchlanishi  $V$  kuchlanishga bog'lanishi  $\Delta\sigma = f(V)$  yoki maydon paydo qilgan umumiyliz zaryad  $Q$  ga bog'lanishi  $\Delta\sigma = \phi(Q)$  o'lchanadi, ya'ni  $Q = CV$ , bunda  $C$  – kondensator sig'imi, odatda,  $C$  bir necha o'n pikofarada qiymatga ega bo'ladi.

4.2-rasmida ( $n$ -Ge), 4.3- rasmida ( $n$ -Si) maydon effektining tajribada olingan egri chiziqlari ifodalangan.

$$Q_{sc} = 2en_i LF(Y_s, U_b), \quad (4.1)$$



4.2-rasm.



4.3-rasm.

$$E_s = \frac{2en_i L}{\epsilon} F(Y_s, U_b), \quad (4.2)$$

$$\Gamma_p = n_i L G(Y_s, U_b), \quad \Gamma_n = n_i L G(-Y_s, U_b) \quad (4.3)$$

holda sirdagi o'tkazuvchanlikning o'zgarish ishorasi ushbu o'tkazuvchanlik turining bir qiymatini aniqlab beradi. Sirdagi o'tkazuvchanlikning sohalar egilishiga bog'lanish minimumi kristallning hajmiy xossalariiga bog'liq bo'lib, sohalarning dastlabki egilishiga bog'liq emas. Shuning uchun minimum nol nuqta bo'lib, undan boshlab o'tkazuvchanlikning tajribaviy va nazariy qiymatlari hisoblanadi. Hajmda to'la ionlashgan kirishmali material uchun nazariy egri chiziqni hisoblashda hajmdagi zaryad tashuvchilar zichligi va harakatchanligini bilish kerak.

Ekranlanish chuqurligida hajmiy zaryad  $Q_{sc}$ , sirdagi maydon  $E_s$  va elektronlar hamda kovaklar zichliklari  $\Gamma_p$  va  $\Gamma_n$ , sohalar egilishi  $Y_s$  bo'lsa, bu ifodalarda  $U_b = \ln\lambda/\beta - \text{Fermi sathi}$  va hajmda taqilangan soha o'rtaidagi  $kT/e$  birlikdagi masofa. Sirdagi o'tkazuvchanlik hisobi

$$\Delta\sigma = \epsilon(\mu_p \Gamma_p + \mu_n \Gamma_n) \quad (4.4)$$

ifoda asosida bajariladi.

Hajmda kirishmalar ionlashish darajasi ixtiyoriy bo'lganda hisob ancha murakkab bo'ladi.


#### 4.2. Maydon effekti o'lchashlari asosida sirdagi sathlar parametrlarini aniqlash

Tashqi elektr maydon (maydonning ichkariga kirishi) ekranlash chuqurligidagi  $Q_{sc}$  zaryadni o'zgartirib yuboradi. Maydon ta'sirida hosil bo'lgan umumiy zaryad


$$Q = Q_{sc} + Q_{ss} \quad (4.5)$$

elektrosga (metallga) qo'yilgan har bir kuchlanish qiymati uchun  $Q$  ning kattaligi  $Q = CV$  asosida hisoblanishi mumkin.  $Y_s(V)$  bog'lanishdan mazkur maydonga mos keluvchi sohalar egilishini aniqlash mumkin. Topilgan  $Y_s$  uchun  $Q_{sc}$  hisoblanadi. Sirdagi zaryad

$$Q_{ss}(Y_s) = CV - Q_{sc} Y_s \quad (4.6)$$



4.4-rasm.



4.5-rasm.

Qabidim topiladi. Shuningdek, germaniy uchun olingan  $Q_{ss}(Y_s)$  bog‘lanish qismida ifodalangan. Bir qator hollarda  $Q_{ss}(Y_s)$  bog‘lanish namumadagi sirdagi sathlari diskretligi yoki uzluksizligini aniqlab beradi. Agar sirdagi sathlar diskret (ayrim-ayrim) bo‘lib, bir-biridan nischa katta masofada joylashgan bo‘lsa,  $Q_{ss}(Y_s)$  egri chiziq pog‘onasi bo‘lishi kerak.

Buni 4.5-rasmda ko‘rish mumkin. Soha pastga egiladi deyilganda ( $Y_s > 0$ ) dastlab Fermi sathiga yaqin sirdagi 1-sathi to‘ldiriladi (4.5-rasm, b, AB qismi).

Biror  $\bar{Y}_s$  qiymatida u to‘la to‘ldiriladi, ammo 2-sath Fermi sathidan ancha yiroqda.  $\bar{Y}_s$  ortib borgan (soha egilishi ortgan sari)  $Q_{ss}$  zaryad  $H_0$  qismida doimiy qoladi, keyin esa (CD qism) 2-sath to‘ldirilishi o‘zparadi. Shunday holat pog‘onasimon  $Q_{ss}(Y_s)$  bog‘lanish  $CH_2O$  moloni kuzatilgan edi.

Kremniy va germaniy uchun  $Q_{ss}(Y_s)$  ning silliq pog‘onasiz o‘zgarib bo‘ishi xosdir. Bunday o‘zgarish:

- 1) sirdagi energetik sathlar uzluksiz spektrga ega bo‘lganda;
- 2) bir-biriga yaqin joylashgan sirt sathlarida bu holat o‘rinli bo‘ladi.

Quyi temperaturada germaniyda diskret sathlar kuzatiladi. Maydon effekti o‘lchashlari natijalarini harakatchanlik o‘lchamlligiga o‘sish kattalik

$$M_{me} = \frac{d\Delta\sigma_s}{dQ} \quad (4.7)$$

yordamida tavsiflash qulay. Bu *maydon effekti harakatchanligi* deyilardi  
Uning uchun quyidagi nazariy ifoda olingan:

$$\mu_{me} = \mu \frac{b^{-1} - \lambda^{-2} \exp Y_s}{1 + \lambda^{-2} \frac{Z}{\exp Y_s} \varphi \exp \varphi_s}, \quad (4.8)$$


bunda

$$Z = 2F/\lambda n_i L; \quad \varphi = \frac{\exp \varphi_s}{e} \frac{dQ_{ss}}{d\varphi_s}. \quad (4.9)$$

Kremniy uchun sirdagi sathlari parametriari  $\mu_{me}$  ni o'lchash uchun  
oddij yo'l bilan sirdagi sathlarga ushlanish egrini chizig'i tahlil etilgan

### 4.3. Maydon effekti kinetikasi

Maydon effektining dastlabki tadqiqotlarda qilingan sirdagi o'tkazuvchanlik maydon hosil qilingan paytda tez o'zgaradi, so'ngra avval juda tez, keyin sekinlik bilan ma'lum statsionar qiymatgacha (ba'zum nolgacha) kamayadi, deb tasdiqlangan edi. Maydon effektining bunday o'zgarishi germaniy, kremniy, Cu<sub>2</sub>O, PbS, CdS, GaAs yarim-o'tkazgichlarida kuzatilgan. 4.6-rasmida  $\Delta\sigma_s$  ning  $t$  ga bog'lanishi ifodalanagan. Rasmdan ko'rindikli,  $10^{-8}$  s tartibidagi vaqtida sirdagi o'tkazuvchanlik dastlabki qiymatidan ancha pastga tushadi,  $\sim 10^{-5}$  s da qandaydir  $\Delta\sigma_s$ , kvazistatsionar qiymatga ega boladi. Keyin yana  $10^{-3}$  s dan sekundgacha, hatto soatlargacha statsionar qiymat  $\Delta\sigma_s^{sm}$  ga egalik qiladi.



4.6-rasm.

qilani sirtdagи sathlariga o'tadi. U endi o'tkazuvchanlikda qatnasha olmайди. Maydon effekti kinetikasining bu xususiyati germaniy va kremniyda sathlarning ikki tizimi borligini, ularning relaksatsiya vaqtini bir-biridan kuchli darajada farq qilishligini tasdiqlaydi.  $\tau_s < 10^{-8}$  s relaksatsiya vaqtiga ega bo'lgan sathlarni «tez» sathlar deb,  $\tau_s > 10^{-3}$  s bo'lganlарини «sekin» sathlar deb nomланади.

Bu katta tafovut sathlarning joylashishi bilan bog'liq. Ma'lumki, germaniyning haqiqiy sirtida  $\sim 10$  Å qalinlikdagi oksid qatlam mavjud bo'ladi. Havoda bu qatlam qalinligi  $\sim 50$  Å gacha ortadi, termik ishlovdan so'ng u yana ham qalin bo'lishi mumkin. Oksidning tashqi sirtidagi bolatlar «sekin» holatlar bo'ladi, chunki ularning hajmdagi sohalini bilan zaryad tashuvchilar almashinushi qiyin, relaksatsiya vaqtini katta.

Oksid-yarimo'tkazgich chegarasida joylashgan sirtdagи holatlar «tez» holatlar bo'ladi, chunki ularning  $\tau_s$  kichikdir. 4.7-rasmдаги diagrammalар yordamida maydon effekti kinetikasini batafsил qarab chiqamiz.


Maydon kiritilguncha n-Ge namunasi sirtida inversion qatlam mavjud bo'lsin (sohalarning boshlang'ich egilishi yuqoriga qaragan, 4.7-rasm, a).

Metall plastinka manfiy bo'ladigan qilib maydon kiritamiz (kuchlanish beramiz) (4.7-rasm, b). Plastinkadagi zaryadni neytrallash uchun nonsosiy zaryad tashuvchilar (kovaklar) hajmdan sirt yaqinidagi sohaliga elektron esa hajmdan metall elektrodga o'tadi.

Sirt yaqinidagi potensial to'siqning balandligi shunday o'zgaradiki, bunda hajmiy zaryad sohasida  $N$  ta ortiqcha kovaklar, hajmda esa  $N$  taga kam elektronlar va kovaklar paydo bo'ladi. Binobarin, namuna o'tkazuvchanligi o'zgaradi:

$$\Delta\sigma_s = eN(\mu_{ps} - \mu_{nb} - \mu_{pb}). \quad (4.10)$$

Bu  $\Delta\sigma_s$  ning o'rashish jarayoni diffuzion-dreyf muvozanat hosil bo'lishi (Maksvell relaksatsiya vaqt)  $\tau_m = \varepsilon/4\pi\sigma_0$  vaqt davomida yuz beradi, bunda,  $\sigma_0$  – namunaning solishtirma qarshiligi.



4.7-rasm.

Bu vaqt zaryad tashuvchilarning ekranlanish masofasiga teng masofaga diffuziyasi vaqtiga to‘g‘ri va mazkur materialning  $RC$  si bilan aniqlanadi. Tekshirilgan Ge namunalari uchun  $\tau_m \sim 10^{-11} - 10^{-12}$  s bo‘lgan.

Bundan keyin  $\tau_s \sim 10^{-8}$  s relaksatsiya vaqtida sohalar va «tez» sathlar orasida muvozanat paydo bo‘ladi (4.7-rasm, d): «tez» sirdagi sathlar va hajmiy zaryad sohasidagi umumiylar yaryad  $eN$  ga teng. Agar umumiylar yaryadning sirtida o‘rnashgan qismini  $x$  orqali belgilasak, u holda maydon paydo qilingandan  $10^{-8}$  s keyin o‘tkazuvchanlik o‘zgarishi

$$\Delta\sigma_s = eN[1 - x\mu_{ps} - \mu_{nb} - \mu_{ph}] \quad (4.11)$$

bo‘ladi. Namunada ortiqcha zaryad tashuvchilar yashash vaqtiga  $\tau$  ga teng (Ge uchun  $\sim 10^{-5}$  s) vaqtida hajmda, maydon kiritilguncha mavjud bo‘lgan kovaklar va elektronlar zichliklari muvozanati o‘rnashadi (4.7-rasm, e).

O‘tkazuvchanlikning  $\sim 10^{-5}$  s o‘tgandan keyingi o‘zgarishi

$$\Delta\sigma_s = eN(1 - x)\mu_{ns} \quad (4.12)$$


$\Delta\sigma_s$  ning keyingi o‘zgarishi zaryad tashuvchilarning «sekin» sirdagi sathlarga o‘tishi bilan bog‘liq bo‘ladi (4.7-rasm, f). Ularning zichligi katta bo‘lganligi uchun maydon paydo qilgan barcha zaryadlar «sekin» sathlarga o‘tib olishi mumkin. Sohalarning sirt yaqinida egilishi o‘zining oldindi qiymatiga qaytdi,  $\Delta\sigma_s$  esa nolga intiladi. Bu jarayon keng oraliqda (minutlardan soatlarga) o‘zgaradigan «sekin» holatlar relaksatsiyasi vaqtida yuz beradi.

Ma’lumki, maydon effekti kinetikasini turli vaqt oraliqlarida tadqiqlash asosida bir qator muhim parametrlar olinadi. «Tez» va «sekin» sirt sathlari relaksatsiya vaqlari va ortiqcha zaryad tashuvchilar yashash vaqtida topiladi.

Bu holda maydon effekti harakatchanligiga teng bo‘lgan zaryad tashuvchilar sirt harakatchanligini ham aniqlab olsa bo‘ladi.

#### 4.4. Maydon effektini tekshirishning tajribaviy usiubi

Maydon effektini o‘lchash uchun namuna elektroddan iborat kondensator yig‘iladi. «Tez» holatlardagi zaryadni aniqlash uchun o‘zgaruvchan kuchlanishga asoslangan maydon effekti usuli qo’lla-



4.8-rasm.

o‘lali. Uning prinsipial sxemasi 4.8-rasmda tasvirlangan. Ge namu-  
udga bir necha volt  $V_0$  o‘zgarmas kuchlanish beriladi. Maydoniy  
elektronika  $V$  o‘zgaruvchan kuchlanish ularadi. Natijada yuklama  
qaralutik  $R$  da  $V$  o‘zgaruvchan signal paydo bo‘lib, u  $Y$ - ossillograf  
plastinasiga uzatiladi. Agar ossillografning  $X$  plastinasiga ma’lum  
kuchlanish berilsa, ekranda o‘tkazuvchanlik o‘zgarishining  $V$   
o‘zgaruvchiga bog‘lanishini bevosita kuzatish mumkin. Signal bilan  
namuna qarshiligi orasidagi bog‘lanishni topish qiyin emas:

$$\Delta\sigma = \frac{v(R+r_0)^2}{r_0^2 V_0 R - v r_0 R(r_0+R)}. \quad (4.13)$$

Bu bog‘lanish ancha murakkab. Biz ikki xususiy holni ko‘ramiz.

**1. O‘zgarmas kuchlanish rejimi.** Agar  $R \ll r_0 = \Delta r$  bo‘lsa,  
maydon ta’sirida namuna o‘tkazuvchanligining o‘zgarishi namuna  
va yuklama orasida kuchlanish taqsimotini deyarli o‘zgartirmaydi.  
Namuna maydon o‘zgarmas bo‘lib, zanjirda tok o‘zgaradi. (4.13)  
Hodil bu holda

$$\Delta\sigma = \frac{v}{V_0 R} \sim V \quad (4.14)$$

olda ko‘rinishga keladi.

**2. O‘zgarmas tok rejimi.** Agar  $R \gg r_0$  bo‘lsa, zanjirdagi tok  
o‘zgarmas bo‘ladi. Bu yuklama qarshiligi orqali aniqlanadi. Shu  
tabubli (4.13) ifoda

$$\Delta\sigma = \frac{vR}{r_0^2 V_0 - vr_0 R} \quad (4.15)$$

ko'inishini oladi. Faqat  $r_0^2 V_0 \gg vr_0 R$  bo'lgandagina  $\Delta\sigma \sim v$  bo'ladi.

Demak, o'zgarmas kuchlanish rejimida maydon effektini o'lhash qulayroq. Maydon effektiga o'zgaruvchan kuchlanish berib, o'rganishi ni tajribaviy usullarini ko'rib chiqamiz.

**1. Maydon effektini P-impulslari kuchlanishda o'lhash.** Bu usulda maydon elektrodiga P-impulslar shaklida kuchlanish beriladi. Impulslarni katta vaqtli qilib tanlab, bu usul yordamida maydon effektini o'rganish va  $\Delta\sigma_s$  kamayishi xususiy vaqtini aniqlash mumkin. Uning ba'zi kamchiliklari ham bor.

**2. Maydon effektini sinusoidal kuchlanishda o'lhash.** Bu usul yordamida maydon effekti egri chizig'ini ossillograf ekranida bevosita kuzatish mumkin. Bu usulning asosiy afzalligi shundaki, maydon effekti egri chizig'ini rasmga olish vaqt ossillogrammani fotosuratga olish vaqtiga amalda teng va sirt sathlari parametrlarining mumkin bo'lgan sekin o'zgarishlar natijalarini buzmaydi va h.k.

**3. Sohalar dastlabki egilishi o'zgargani sababli o'zgaruvchan signallarda maydon effektini o'lhash usuli.** Kichik signal deb amplitudasi  $kT/e$  dan kichik bo'lgan o'zgaruvchan kuchlanishga aytildi. Sirt energetik tizimini o'rganishda maydon effektini kichik sinusoidal yoki impulsli kuchlanishlardan (kichik signallardan) foydalanish usuli eng ko'p tarqalgan. Bu usulning afzalliklari: nazariya bilan taqqoslash qulayligi, elementar effektlarni ajratib olish imkoniyati, maydon yordamida, sirtda, o'rganilayotgan sohaning kichkina qismdagina sirt sathlarini to'ldirilish darajasini o'zgartirish imkoniyati.

Bu usuldan foydalaniib sirt potensiallari o'zgarish egri chizig'ini olish uchun molekulalarni adsorblash yoki ko'ndalang elektr maydon yordamida sohalarning dastlabki egilishi o'zgartiriladi. Maydon effektini o'lhash kichik o'zgaruvchan signalda (kuchlanishda) bajariladi.

Maydon effektini o'lhashda jamg'arilish effekti mavjud bo'lishini e'tiborga olish zarur. Bu effekt hamma usullarda kuzatiladi. Jamg'arilish effekti shundan iboratki, sirt sathlarida o'rnashgan zaryad kritik  $V_k$  kuchlanishdan katta kuchlanishlarda maydon ta'sirida qaytmas tarzda o'zgaradi. Aftidan, bu effekt elektr maydon ta'sirida atrof-muhit molekulalarini qo'shimcha adsorblash bilan bog'liq. Ketma-

impulslar davomida sirt sathlarida zaryad jamg'ariladi, u impulslar uchun tada so'rilib (ketib) ulgurmeydi.


O'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lumki, ko'pincha suv molekulalarini o'shinchorblash tufayli musbat sirt zaryadi jamg'arilishi yuz beradi.  $1 \cdot 10^6$  mm.sim.ust. dan past bosimda jamg'arilish effekti to'la g'oyib bo'lib.

#### 4.5. Maydon effektining chastotaviy bog'lanishi

Vujon'i chastotali kuchlanishlar berilganda «tez» sirdagi sathlari va hajmdagi sohalar orasida zaryad tashuvchilar almashinuvi yuz berib ulgurmeydi. Bu holda maydon effekti o'chashlari zaryad tashuvchilarining sirdagi harakatchanligi haqida ma'lumot beradi. Chastotalarning keng oralig'idagi maydon effektining chastotaviy bog'lanishimi o'rganish mazkur sathlarning relaksatsiya vaqtini, shuningdek, namunada zaryad tashuvchilarining yashash vaqtini aniqlaydi.

Maydon effekti kinetikasini o'rganish yana sirt holatlarining energetik vaziyatini va elektronlar, kovaklarni ushlash kesimi haqida ma'lumot beradi.

Tajribada «maydon effekti harakatchanligi»ning chastotaviy bog'lanishi ham o'rganilgan. Maxsus ishlab chiqilgan usullar yordamida maydon effekti harakatchanligining chastotaga bog'lanishi aniqlangan. Maʼnalari, p-Ge uchun bu bog'lanish 300 Gs—10 MGs oraliqida turli poy' millitlarda o'tkazilgan o'chashlar natijasi 4.9-rasmida ifodalangan.



4.9-rasm.

Yuqori chastotalar sohasida (10MGs chamasida) maydon effekti harakatchanligi  $\mu_{mc}$  atrof-muhitga bog'liqmas va hajmdagi asosiy tashuvchilar harakatchanligiga yaqin. Bu chastotalarda sohalar va «tez» sathlar orasida zaryad tashuvchilar almashinuvi yuz bermaydi,  $\tau_s \sim 10^{-8}$  s. Sirtda inversion qatlam mavjud bo'lganda yuqori chastotalari sohasida  $\mu_{mc}$  kovaklarning hajmdagi harakatchanligidan 50% ortiq. Biror o'ralig'ida  $\mu_{mc}$  o'zgarmas, ammo  $\omega \sim 1/2\pi$  chastotalarda u keskin pasayadi va hajmdagining ~30 % ini tashkil qiladi.

Sirtda boyigan qatlam mavjud bo'lganida asosiy zaryad tashuvchilar sirtga chiqadi,  $\mu_{mc}$  ning ishorasi o'zgarmas bo'ladi.

Tajribada kuzatilgan  $\mu_{mc}$  ning chastotaviy bog'lanishlarini nazariya bilan taqqoslab, «tez» sirtdagisi sathlar parametrlarini miqdoran aniqlash mumkin. Ammo nazariyada bir turdagisi sath bor deb faraz qilingan, aslida sathda bir qancha turli sathlar bo'ladi. Bu tajriba bilan nazariya orasida nomutanosiblikni keltirib chiqaradi. Biroq nazariya mukammal bo'lsa, tajribada olinishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni oldindan bilish imkoniyatini beradi.

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Maydon effekti qanday hodisa?
2. Maydon effekti usuli yordamida yarimo'tkazgichlar sirtining energetik tuzilishi qanday o'rganiladi?
3. Maydon effekti o'lchamlari orqali sirtdagisi sathlar parametrlarini ayтиб bering.
4. Maydon effektini tajribada o'rganishni ifodalang.
5. Maydon effekti elektr kuchlanish chastotasiga bog'liqmi? Tushuntirib bering.

Bu usuldan boy'lig'ini sca potensialini o'zgartirishda yang'artish effekti mavjud bo'lishini etibarga olish zarur. Bu effekti haqqa osullayda ko'z qiladi. Yang'artish effekti shuningda maydon, qidiruvchi qurashchi zaryad kuchli  $V$  kuchlanishidagi kuch yang'artishiga maydon ta'sirida qaytaras tenezzus qiladi. Maydon fu'effekti qidiruvchi qurashchi arrof-muhit molekulalardini qo'shinchalashda tashuvchilar bilan bog'liq. Ketuna-

## V BOB. YARIMO'TKAZGICHLARDA SIRTDAGI REKOMBINATSIYA

Ko'pchilik yarimo'tkazgichlarda zaryad tashuvchilar rekombinatsiyasi, asosan, kirishmaviy markazlar (rekombinatsiya markazlari) orqali yuz beradi. Ular hajmda taqilangan soha o'rtasi yaqinida joylashgan bo'ladi. Bunday rekombinatsiya nazariyasini Shokli va Rid ishlab chiqqan. Zonalararo rekombinatsiya imkoniyati ham bor, uning ehtimolligi ancha kichik.


Toza kristallar hajmida rekombinatsiya markazlari kam, shu sababli sathlari orqali rekombinatsiya muhim bo'lishi mumkin. Yupqa namanalarda elektron va kovaklar asosan sirtda rekombinatsiyalanadi va shuning uchun zaryad tashuvchilarning effektiv yashash vaqtiga ana shu rekombinatsiya orqali aniqlanadi. Sirdagi rekombinatsion markazlar vazifasini sirt elektron holatlar bajaradi. Ular hajmdagi sohalardan bilan yaxshi aloqada bo'ladi va zaryad tashuvchilarni tutib qolishning yetarlicha katta kesimlariga egadir.

Sirt rekombinatsiya jarayonlarini o'rganish sirdagi sathlar tabiatiga, ularning energetik tizimi haqida ma'lumotlar beradi. Ba'zi o'ziga vositiklardan qat'i nazar, sirt va hajmiy rekombinatsiya, asosan, bir sil qonuniyatlarga bo'ysunadi. Biroq, ayrim hollarda sirt rekombinatsiyani o'rganish hajmiy rekombinatsiyani bilishdan ko'ra qulayroqdir. Shunday sirt rekombinatsiya tezligining rekombinatsion sathning elektronlar bilan to'ldirilishiga (ya'ni shu sathning Fermi sathiga nisbatan vaziyatiga) bog'lanishi qiyosan sodda tarzda olinishi mumkin.

Sirt rekombinatsiya nazariyasini Shokli—Rid nazariyasini asosida ishlab chiqilgan.

### 5.1. Sirt rekombinatsiya tezligi

Sirda  $N_s$  zichlik va  $E_s$  energiya sathiga ega bo'lgan bir turdagি rekombinatsiya markazlari bo'lsin. Hajmda generatsiyalangan va  $\Delta n$  zichlikka ega bo'lgan ortiqcha zaryad tashuvchilar sirdagi markazlar orqali rekombinatsiyalanadi. Shu rekombinatsiya tezligini hisoblaymiz.



5.1-rasm.

Agar  $E_s$  sathda elektronning bo'lish ehtimolligini  $f_s$  bilan belgilasak, uning termodynamik muvozanat holati ifodasi quyidagicha bo'ladi:

$$f_{s0} = \left[ \exp \frac{-E_s - E_F}{kT} + 1 \right]. \quad (5.1)$$

Elektronlarning o'tkazuvchilik sohasidan  $E_s$  sathiga o'tish surati sirt yaqinida  $n_s$  zichlikka,  $E_s$  sathning band bo'lмаган qismiga proporsional bo'ladi:

$$-\left( \frac{dn_s}{dt} \right)_1 = \chi_{ns} n_s N_s (1 - f_s), \quad (5.2)$$

bunda  $\chi_{ns}$  — elektronning  $E_s$  sathda bo'lish koeffitsiyenti, elektronlarning shu sathdan ketish sur'ati:

$$\left( \frac{dn_s}{dt} \right)_2 = \beta_{ns} f_s N_s, \quad (5.3)$$

bunda  $\beta_{ns}$  — mazkur o'tish koeffitsiyenti. Ravshanki, elektronlar zichligi o'zgarishi deb

$$-\left( \frac{dn_s}{dt} \right)_1 = -\left( \frac{dn_s}{dt} \right)_1 - \left( \frac{dn_s}{dt} \right)_2 = \chi_{ns} (1 - f_s) n_s N_s - \beta_{ns} f_s N_s, \quad (5.4)$$

muvozanat sharoitida:

$$\chi_{ns} (1 - f_s) n_{so} N_s = \beta_{ns} f_{so} N_s. \quad (5.5)$$

(5.1) ifodadan foydalansak,

$$\beta_{ns} = \chi_{ns} N_s \left( \frac{-E_s}{kT} \right), \quad (5.6)$$

endi  $\beta_{ns} = \chi_s \exp \left( \frac{-E_s}{kT} \right)$  belgilash kirtsak,

$$-\frac{dn_s}{dt} = \chi_{ns} n_s N_s [(1 - f_s) n_s - n_{ls} f_s]_1, \quad (5.7)$$

bundagi

$$n_{ls} = N_s \exp \left( \frac{E_s}{kT} \right). \quad (5.8)$$

Ayndi shu yo'l bilan kovaklar zichligining o'zgarishini topamiz:

$$-\frac{dP_s}{dt} = \chi_{ns} N_s [P_s f_s - P_{ls} (1 - f_s)], \quad (5.9)$$

Onda  $p_{ls} = N_s \exp\left(\frac{E_s}{kT}\right)$ . (5.10)

Elektronlar va kovaklar zichligi o'zgarishlari rekombinatsiya natijasida biriga teng, ya'ni  $\frac{dn_s}{dt} = \frac{dp_s}{dt}$  va bundan  $f_s$  topiladi:

$$f_s = \frac{\alpha_{ns} n_{ls} + \alpha_{ps} p_{ls}}{\alpha_{ns} (n_s - n_{ls}) + \alpha_{ps} (p_s + p_{ls})}. \quad (5.11)$$

Rekombinatsiya natijasida elektron zichligi o'zgarishi endi

$$-\frac{dn_s}{dt} = \frac{\alpha_{ns} \alpha_{ps} N_s (n_s p_s - n_{s0} p_{s0})}{\alpha_{ns} (n_s - n_{ls}) + \alpha_{ps} (p_s + p_{ls})} \quad (5.12)$$

Ko'rinish oladi.  $\frac{dn_s}{dt} = \frac{\Delta n_s}{\tau_s} = s$  sirt rekombinatsiya tezligini bildiradi,

chi 1 s da sirtning 1 sm<sup>2</sup> yuzida rekombinatsiyalanayotgan elektron va kovaklar sonini bildiradi va sm/s birlikka ega. Hajmiy  $p$  va  $n$  o'shliliklar bilan sirt  $p_s$  va  $n_s$  zichliklari orasidagi bog'lanishlar:

$$p_s = p e^{+\varphi_s/kT}, \quad n_s = n e^{-\varphi_s/kT} \quad (5.13)$$

Irrashlarda bo'lgani uchun,  $n_s \cdot p_s = n_{s0} \cdot p_{s0}$  ayirmani  $p \cdot n = n_0 \cdot p_0$  bilan almashtirish mumkin:

$$p = p_0 + \Delta p, \quad n = n_0 + \Delta n, \quad \Delta n = \Delta p_s. \quad (5.14)$$

Natijada  $s$  uchun uzil-kesil quyidagi ifoda olinadi:

$$s = \frac{(p_0 + n_0 + \Delta n) N_s \gamma_{ns} \gamma_{ps}}{\gamma_{ns} n_l + \gamma_{ps} p_l + [\gamma_{ns} n \exp(-\varphi_s/kT) + \gamma_{ps} p \exp \varphi_s / kT]}. \quad (5.15)$$

Kuchsiz generatsiya holida  $\Delta p \ll p_0$ ,  $\Delta n \ll n_0$ , ammo  $\Delta p = \Delta n$  bo'ladi va rekombinatsiya tezligi

$$s = \frac{\gamma_{ns} \gamma_{ps} N_s (p_0 + n_0)}{\gamma_{ns} (n_s + n_l) + \gamma_{ps} (p_s + p_l)} \quad (5.16)$$

Onda ko'rinishni oladi. Bu yerda

$$p_l n_l = n^2, \quad p_s n_s = p n. \quad (5.17)$$

Sirt rekombinatsiya tezligi tushunchasini qo'llash chegarasi bormi? Ha, bor. Uni quyidagi tahlildan ko'ramiz. Bu masalani miqdoran tadqiqi quyidagi xulosalarga olib keladi:

1. Agar butun hajm bo'yicha generatsiya bir tekis bo'lib, sirt potensiali uncha katta bo'lmasa, yuqorida kiritilgan sirt rekombinatsiyasi tezligi tushunchasiadolatlidir.
2. Agar ortiqcha zaryad tashuvchilar generatsiyasi  $L$  ekranlashi qalinligidagi sirt sohasidagina yuz bersa, u holda  $p_s n_s = pn$  tenglik bajarilmaydi, ya'ni hajm bilan sirt orasidagi muvozanat buziladi.
3. Agar zaryad tashuvchilar diffuzion siljish uzunligi  $I_{dr}$  fazoviy zaryad sohasi  $L_s$  uzunligidan kichik bo'lsa, bu holda ana shu qatlamdag'i rekombinatsiya muhim bo'lib qoladi, hajm va sirt muvozanati buziladi.

Hisobning natijasiga ko'ra,  $p_s n_s = pn$  tenglikning bajarilishi sharti

$$L_1 = \left( + L_2 + \frac{s}{v_d} \right); \quad (5.18)$$

$$L_1 = \frac{1}{I_{dr}} \int_0^p e^{-Y} dx; \quad L_2 = \frac{1}{i_d} \int_0^{l'} e^{-Y} dx; \quad v_d = \frac{I_{dr}}{\tau_p}, \quad (5.19)$$

bunda,  $l'$  — sirtdan  $Y = 1$  bo'ladigan tekislikkacha masofa;  $i_{dr}$  — diffuzion siljish uzunligi;  $\tau_p$  — elektron yarimo'tkazgichlarda kovaklar yashash vaqt;  $v_d$  — diffuzion siljish tezligi.

Germaniy uchun amalda foydalaniladigan sohalar egilishi sohasida (6.18) shart bajarilishi tasdiqlangan. Ammo yetarlicha katta  $Y$  va juda katta  $s$  bo'lganda rekombinatsiya tezliklari bo'lganda mazkur tushuncha ma'nosini yo'qotadi. Yuqori om li kristallarda (past om lilarga nisbatan) kichik egilishlarda (6.18) bajarilmasligi mumkin. Kremniy uchun amalda foydalanadigan sirt potensiali qiyamtlarida  $s$  tushunchasidan ehti-yotkorlik bilan foydalanish kerak. Yana taqiqlangan sohasigacha keng bo'lgan yarimo'tkazgichlarda sirt rekombinatsiya tezligi tushunchasini juda katta kichik sohalar egilishi holidayoq qo'llanib bo'lmaydi.

## 5.2. Sirt rekombinatsiyasini o'rganish

Sirt rekombinatsiyasi tezligi sohalarning sirt yaqinida egilishi kattaligiga bog'liq, chunki u sirt yaqinida qancha ortiqcha elektronlar va kovaklar bo'lishligini, sirt rekombinatsiya markazlarining zaryad tashuvchilar bilan to'ldirilishini aniqlaydi.

Shu rekombinatsiyasi tezligi sirt  $\Phi_s$  potensial bog'lanishi o'rjanilgan. Bunday bog'lanishning ko'rinishi 5.2-rasmida havolalangan.

Undan kovaklar va elektronlar ushlanishi effektiv kesimlari nisbatini  $s(\Phi_s)$  bog'lanish maksimumi siljishi kattaligi bo'yicha ushbu

$$\varphi_0 = \frac{kT}{2i} \ln \frac{\gamma_{ps}}{\gamma_{ns}} \quad (5.20)$$

Shuda yordamida aniqlanadi.

Rekombinatsion sath energetikasi  $E_s$  ni aniqlash uchun  $s(\Phi_s)$

bog'lanishni ikki xil temperatura  $T_1$  va  $T_2$  da o'lchanadi. Bu holda har bir temperatura uchun  $\bar{\Phi}_s$  ning ikkita qiymati olinadi, bunda

$s = \frac{1}{2} s_{\max}$ . Yana rekombinatsion sath vaziyatini  $s_{\max}$  ning temperaturasi bog'lanishidan aniqlasa ham bo'ladi, chunki


$$s_{\max}(T) = \text{cont} \exp\left(\frac{E_c - E_s}{kT}\right). \quad (5.21)$$

Birgalikda olib borilgan mazkur ikkala o'lhashlar  $E_s$  ni bir qiyatlari aniqlashi imkonini beradi.

Sirt rekombinatsiya markazlari  $N_s$  zichligini odatda sirt sathlariga tutilgan zaryadning sohalar egilishiga bog'lanishidan topiladi. Bu bog'lanish maydon effekti o'lhashlaridan olinadi.

$\gamma_p/\gamma_n$  nisbat  $s(\Phi_s)$  bog'lanish maksimumi siljishidan aniqlanadi,  $\gamma_{\max}$  qiyinatlaridan har ikki  $\gamma_p$  va  $\gamma_n$  ushlanish ko'ndalang kesimlarini aniqlash mumkin.

Shunday qilib, maydon effekti va sirt rekombinatsiya tezligini o'rjanish bo'yicha birgalikda o'tkaziladigan o'lhashlar natijalari asosida sirt sathini xarakterlovchi barcha to'rt parametrni — sirt sathining zichligi  $N_s$ , uning energetik vaziyati  $E_s$ , bu sathga kovaklar va elektronlar tutib olinishi (ushlanishi),  $\gamma_{ps}$  va  $\gamma_{ns}$  ko'ndalang kesimlarini aniqlab olish mumkin.



5.2-rasm.

Sirt rekombinatsiyasi tezligini o'lhash sirt sathlari parametrlarini aniqlashda keng qo'llaniladigan usuldir.

Ba'zi mulohazalarni aytib o'taylik. Mazkur usul yordamida faqat rekombinatsion sathlar to'g'risida ma'lumot olish mumkin. Agar ushlangan kesimlaridan biri ( $\gamma_{ps}$  yoki  $\gamma_{ss}$ ) ancha kichik bo'lsa, u holda bu sath rekombinatsiyada ishtirot qilmaydi, yopishish yoki ushlanishi sathi bo'ladi.

Bunday sathlar parametrlarini sirt sathlariga ushlangan zaryad-larning (maydon effekti o'lchamlaridan aniqlanadigan) sohalar egilishidan topiladi. Oldin aytganimizdek, sirt rekombinatsiya tezligi qo'llanilishi shartini doimo esdan chiqarmaslik kerak.

Masalan, kremniy yarimo'tkazgichi holida sohalar egilishi yetarlichcha kichik bo'lganda ham s tushunchasi o'z ma'nosini yo'qotadi, demak, s ning o'lchanishlaridan kremniy uchun sirdagi sathlar parametrlarini aniqlash hamma vaqt ham mumkin bo'la bermaydi.

### 5.3. Sirt rekombinatsiyasi tezligi s ni o'lhashning tajribaviy usullari

Sirt potensialning qiymati turlicha bo'lgan hollarda sirdagi rekombinatsiya tezligi  $s$  ni o'lhash sirt sathlarning rekombinatsion parametrlarini aniqlash imkoniyatini berishligini ko'rdik.


$s(Y_s)$  tajribaviy bog'lanishni olish uchun molekulalarni adsorblash yoki tashqi elektr maydon yordamida sohalar egilishini o'zgartirib o'lhashlar o'tkazilishi kerak. Agar maydon effektining tajribaviy egri chizig'ini nazarイヤasi bilan solishtirib sohalar egilishining maydonga bog'lanishini topilsa, bu holda undan  $s(Y_s)$  bog'lanishini topish qiyin emas.

#### 5.3.1. $s$ ni impulsli usullar yordamida effektiv yashash vaqtini aniqlash

**Yupqa namunalarda effektiv yashash vaqtini va sirt rekombinatsiyasi tezligi  $s$  orasidagi munosabat.**

Agar namuna  $L$  balandlikli va  $W \cdot d = S$  asosli to'g'ri burchakli parallelepiped shaklida bo'lsa va bu holda  $s < 2D/d$  shart bajarilsa, quyidagi ifodaga ega bo'lamiz:

$$\frac{1}{\tau_f} = \frac{1}{t_b} + \frac{2s}{d}, \quad (5.22)$$



5.3-rasm.

$$\text{bunda} \quad \tilde{d} = \frac{d}{1+\alpha+\beta}, \quad \alpha = \frac{d}{L}, \quad \beta = \frac{d}{w}, \quad (5.23).$$

Bu yerda:  $D$  — diffuziya koefitsiyenti,  $\tau_f$  — effektiv yashash vaqtı,  $\tau_i$  — lajmiy yashash vaqtı. (5.22) ifodaga asosan,  $s$  ni o'lchash  $\tau_f$  va  $\tau_i$  o'lchashdan iborat bo'ladi.

#### **Ortiqcha o'tkazuvchanlikning so'nishi bo'yicha aniqlash.**

Usul quyidagidan iborat. To'g'ri to'rtburchakli parallelepiped huklidagi yarimo'tkazgich namunasiga zaryad tashuvchilar to'dasi tutiladi (purkaladi) va vaqt davomida namunaning ortiqcha o'tkazuvchanligi o'zgarishi kuzatiladi. Qurilmaning blok-sxemasi 5.3-rasmda ovirlangan.


O'lchashlar tashqi (tortuvchi)  $V_0$  kuchlanishning kichik qiymatlari bajariladi. Agar  $\tau_f$  yetarlicha katta yoki o'lchagich maydon  $\tau_i$  bo'lsa, u holda maydon zaryad tashuvchilarni tortib chiqaradi. Bu effekt e'tiborga olinsa,

$$\frac{1}{\tau_f} = \frac{1}{\tau_i} - \frac{\pi V_0}{L^2} \quad (5.24)$$


bu bo'ladi.  $\tau_f$  — o'lchagich maydon yo'q bo'lgandagi,  $\tau_i$  esa o'lchagich maydon borligidagi ortiqcha o'tkazuvchanlik pasayishi vaqtidoniylari.

#### **Effektiv yashash vaqtı $\tau_f$ ni Meni ko'prigi yordamida o'lchash.**

Effektiv yashash vaqtini, ya'ni  $s$  ni sohalar egilishi turlicha bo'lunda o'lchashda,  $\tau_f$  ni Meni ko'prigida o'tkazuvchanlik o'zgarishi esa oddiy o'zgaruvchan tok ko'prigida o'lchanadi. Namunani bunday o'lchashlarga quyidagicha tayyorlanadi. Namunaning chet-



5.4-rasm.



5.5-rasm.

lariga omik kontaktlar o'tkaziladi. Chetlardan birida omik kontakt yonida sust injensiyalaydigan (kam zaryad tashuvchilar krita oladigan) kontakt kavsharlanadi (5.4-rasm).

O'tkazuvchanlik o'zgarishini oshirish uchun ko'ndalang maydon paydo qilinishida kuchlanish namunaning ikkala sirtiga ulanadi.

Bir vaqtida  $\tau_f$  va maydon effektini o'lhash uchun yig'iladigan qo'sha loq ko'priq sxemasi 5.5-rasmida tasvirlangan. Maydon elektrodlarg'i va impulsli generatorni yurgazib yuborishga beriladigan o'zgaruvchan kuchlanishlar birgina transformatorning ikkita ikkilamchi o'rimalardan olinadi. Faza aylantirgich FA shunday boshqariladiki, P-impulslar ko'prikká berilgan paytda sinusoidal ko'ndalang maydon musbat yoki manfiy maksimumga erishadi. Impulsning davomiyligi sinusoidal kuchlanish davridan ancha kichik qilib beriladi, bunda impuls berilganda ko'ndalang maydonni o'zgarmas deb hisoblash mumkin.

Sinusoidal signal (kuchlanish) amplitudasini o'zgartira borib  $\tau_f$  va sirdagi o'tkazuvchanlikning sirtga qo'yilgan maydonga (kuchlanishga) bog'lanishini aniqlash mumkin. Bunday uslubiyatni qo'llash o'lhash vaqtini qisqartiradi, o'lhashlar jarayonida maydon effekti egri chizig'i o'zgarishini nazorat qilish imkonini beradi.

Maxsus uslubni qo'llab, maydon effektini bevosita ekranda kuzaish mumkin. Agar faza aylantirgich yordamida Meni ko'prigini ishga tushiruvchi impuls vaqtini sinusoidal ko'ndalang kuchlanishga nisbatan o'zgartirilsa,  $\tau_f$  ni turli kuchlanishlarda o'lhash mumkin.

### 5.3.2. $s$ ni magnit konsentratsiya effektini o'chash yordamida aniqlash

Dalaligi  $d$  diffuzion uzunlik  $l_d$  bilan taqqoslanuvchi bo'lgan yupqa  
namuna da galvanomagnitik effektlar o'rganilganda sirt yaqinida  
odat tashuvchilar zichligi (konsentratsiyasi) muvozanat qiymatdan  
otstatishli mumkin – bu anomal hodisadir. Agar kristallning ikki  
komponenta rekombinatsiyasi tezliklari teng bo'lmasa ( $s_1 \neq s_2$ ), u holda  
bu namunaning magnit maydonidagi solishtirma qarshiligi  $\Delta\rho_n$   
magnit uchun ifodada ikki had – odadagi  $H^2$  ga proporsional  
bol undan boshqa yana  $H$  ga proporsional had mavjud bo'ladi:

$$\frac{\Delta\rho_n}{\rho_0} = \alpha H^2 + 4ALHE_r \frac{s_1 - s_2}{s_1 + s_2 + d/\tau}, \quad (5.25)$$

Bunda  $\rho_0$  – magnit maydon bo'limganda namuna solishtirma  
qo'shiligi;  $A$  – namuna parametrlari ( $\rho$ ,  $n$ ,  $\mu_n$ ,  $\mu_p$ ) ga, temperaturaga,  
namuna geometriyasiga bog'liq ko'paytuvchi;  $E_r$  – namunadagi elektr  
maydon. Bu effektni *magnit konsentratsiya effekti* deyiladi. (5.25)  
shundan ikkinchi had  $s$  ga bog'liq bo'lani uchun bu effektdan  $s$  ni  
otstatishli maqsadida foydalanish mumkin. (5.25) ifoda

$$d \ll l_d = \sqrt{D\tau}; \quad d \ll \frac{D}{s} \quad (5.26)$$

shartlar bajarilgandaadolatli, bunda  $s$  kattalik  $s_1$  va  $s_2$  lardan eng  
kuchligi,  $D$  – diffuziya koefitsiyenti:

$$D = \frac{kT}{e} \cdot \frac{(n+p)\mu_n\mu_p}{n\mu_n + p\mu_p}. \quad (5.27)$$

Kuchlisiz  $H$  maydonda

$$\frac{\mu_n H}{c} \ll 1 \text{ va } \Delta\rho_n \ll \rho_0. \quad (5.28)$$

Bu shartlar bajarilganda (5.25) ifoda o'zgarmas maydonda ham

$$\omega \ll \omega_{kr} = \frac{2D}{d^2} \quad (5.29)$$

haritali o'zgaruvchan maydon uchun hamadolatli.  $\omega = \omega_{kr}$   
haritalarda (5.25) dagi ikkinchi had yo'qoladi. Ikkinchi hadni  
otstatish – uning  $E_r$  ga bog'liqligidir.  $\Delta\rho_n \ll \rho_0$  bo'linda namunaning  
qarshiligi

$$\tau_r = r_0(1 + cE_r); \quad c = 4AH \frac{s_1 - s_2}{s_1 + s_2 + d/\tau}, \quad (5.30)$$

bunda  $r_0$  namunaning  $E=0$  bo'lgandagi magnit maydondagi qarshiligi. Agar namunaga o'zgaruvchan  $E = E_0 \sin \omega t$  elektrik maydon berilsa va uni  $H$  magnit maydonga joylashtirilsa, namunadagi  $E_r$  asosiy garmonikadan tashqari yana o'zgarmas  $E_c$  tashkil etuvchi va ikkinchini garmonikaga ega bo'ladi:

$$E_r = E_c + E_\omega \cos \omega t + E_{2\omega} \cos 2\omega t. \quad (5.31)$$

Bu ifodada  $E_c$ ,  $E_{2\omega}$  kattaliklar  $E_\omega^2 \cdot \frac{s_1 - s_2}{s_1 + s_2 + d/\tau}$  ga proporsional.

Shuning uchun bu nisbatni:

- 1) Eva  $E_c$  ni o'lhashlardan,
- 2)  $E_{2\omega}$  va  $E_\omega$  ni ayrim-ayrim o'lhashlardan aniqlab olish mumkin.

Agar  $s_1$  va  $s_2$  lardan biri ma'lum bo'lsa, qaralayotgan usul ikkinchisini aniqlash imkonini beradi.

Namunaning biror tarafida sirdagi rekombinatsiya tezligi aniqlanmoqchi bo'linsa, bu usul qulay. Haqiqatan ham

$$s = |s_1 - s_2| \ll s_1 \text{ bo'lganda}$$

$$\Delta E_{2\omega} = \frac{AHE_0^2}{2s_1} \Delta s = B \frac{\Delta s}{s_1}. \quad (5.32)$$

A o'zgarmas tajribada aniqlanadi.


$E_{2\omega}$  va  $E_\omega$  ni o'lchab, bevosita  $\Delta s$  aniqlanadi. Mazkur o'lhashlar usulini:

1) noasosiy zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi (zichligi) asosiy-larnikidan uncha kichik bo'lmaganda;


2) diffuzion siljish uzunligi yetarlicha katta bo'lganda (bu holda  $lg$  dan qalinligi kam namuna tayyorlash mumkin) sirt rekombinatsiya tezligi  $s$  ni o'lhashda qo'llanilishi mumkin.

### 5.3.3. Fotoo'tkazuvchanlikning spektral bog'lanishini o'lhash orqali s ni aniqlash

Fotoo'tkazuvchanlikning spektral taqsimoti egri chizig'ining shakli, ma'lumki, kristallarning sirt xossalari bilan qattiq bog'langan. Masa-lan, sirt (sohalararo) yutilish sohasida yorug'lik kuchli yutilganda



5.6-rasm.



5.7-rasm.

o‘sizdik tashuvchilar sirt yaqinidagi sohada vujudga keladi (generatsiyalarini) va s ancha katta bo‘lganda sirt sathlari orqali tez rekombinatsiyalarini. Sirt rekombinatsiya tezligini fotootkazuvchanlikning spektral bog‘lanishini o‘lhash natijalari asosida aniqlashning bir necha nusti mavjud. Ularning eng soddasini ko‘rib chiqamiz.

Kichli darajada yutiladigan yorug‘lik uchun  $\alpha/g \gg 1$  va  $\alpha d \gg 1$  shartlar bajarilganda  $\Delta\sigma_f$  fotootkazuvchanlik (yorug‘lik hisobidan qu’shimcha o’tkazuvchanlik) quyidagicha ifodalanadi:

$$\frac{\Delta\sigma_f}{J_0} = A^* \left( 1 + \frac{s}{D} \cdot \frac{1}{\alpha} \right), \quad (5.33)$$

$$A^* = \frac{\beta_1 e \lg^2(1-r)(\mu_n + \mu_p)}{I \left( D + s \lg \operatorname{cth} \left( \frac{d}{2 \lg} \right) \right)}, \quad (5.34)$$

Bunda,  $\alpha$  va  $r$  — mos ravishda, yorug‘lik yutilish va qaytarilishi koefitsiyentlari;  $\beta_1$  — kvant chiqish,  $D$  — diffuziya koefitsiyenti,  $J_0$  — 1 s da 1  $\text{sm}^2$  sirt yuziga tushayotgan fotonlar soni.

(5.33) ifodadan ko‘rinishicha, bu holda  $\frac{\Delta\sigma_f}{J_0}$  ning  $\frac{1}{\alpha}$  ga bog‘lamali chiziq‘iy funksiyadir (5.6-, 5.7-rasmlar).

Bu chiziqni  $\frac{1}{\alpha}$  o‘qi bilan kesishguncha ( $\frac{\Delta\sigma_f}{J_0} = 0$  bo‘lguncha) davom ettirilsa, uning kesishish nuqtasida

$$\alpha = -\frac{D}{s}. \quad (5.35)$$

Amalda fototok  $I_f(\lambda)$  ning  $\alpha(\lambda)$  ga bog'lanishi o'lchanadi. Bu o'lchanishlardan  $I_f(\frac{1}{\alpha})$  topiladi.  $D$  ma'lum bo'lsa, (5.35) ifodadan  $s$  aniqlanadi:

*Yana bir usul.* Agar fototokni kuchli yutilish sohasida ikki tayinli to'lqin uzunliklar uchun o'lchansa, u holda  $(I_f(\lambda_1)/I_f(\lambda_2)) = \eta$  bo'yicha  $s/D$  nisbat aniqlanadi:

$$\frac{s}{D} = \frac{\eta - 1}{1 - \eta} \frac{\alpha_1}{\alpha_2}, \quad (5.36)$$


bunda  $\alpha_1$  va  $\alpha_2$  mos ravishda,  $\lambda_1$  va  $\lambda_2$  ga tegishli yutilish ko'rsatuvlari. Mazkur material uchun tayinli  $\alpha_1$  va  $\alpha_2$  qiymatlar uchun  $s/D = f(\eta)$  bog'lanish grafigi yasaladi. Bu holda nisbatning o'lchanishni birdaniga  $s/D$  qiymatini beradi. Bu usulni qo'llash uchun ikki tayinli to'lqin uzunlikni ajratib beruvchi filtrlar (elaklar) bo'lishi kifoya.

#### 5.3.4. Sirt rekombinatsiyasi tezligi $s$ ni fotomagnit effekt (Kikoin-Noskov effekti) asosida aniqlash

Yarimo'tkazgichni kuchli darajada yutiladigan yorug'lik bilan yoritganda, yoritilayotgan sirt qatlamida ortiqcha zaryad tashuvchilar paydo bo'ladi va yorug'lik tushishi yo'nalishida ularning zinchliklari gradiyenti vujudga keladi. Yoritilayotgan sirtga qarama-qarshi x tomoniga zaryad tashuvchilarning diffuzion oqimlari paydo bo'ladi. Agar yoritilayotgan bu namunani z yo'nalishidagi (ko'ndalang) magnit maydonga joylansa, Lorens kuchi ta'sirida elektronlar va kovaklar y o'qining qarama-qarshi tomonlariga og'adi va magnit diffuzion tok hosil bo'ladi. Bu esa namunaning qarama-qarshi yon yoqlarida teskari ishorali zaryadlar to'planishiga va tegishli elektr ( $E_y$ ) maydon hosil bo'lishiga olib keladi. Bu esa magnit diffuzion tokka qarshi dreyf tok paydo qiladi. Statsionar holatda bu toklar bir-birini muvozanatlaydi, ammo  $E_y$  bilan bog'liq fotomagnitik EYK  $V_{fm}$  hosil bo'ladi (5.8-rasm):

$$V_{fm} = \frac{A\beta_1 I_0}{B + \beta_1 I_0}, \quad (5.37)$$

bunda,  $A$  va  $B$  – kattaliklar magnit maydoni  $H$  bo'lgan namunaning fizik va geometrik parametrlari. Bu kattalik sirdagi rekombinatsiya tezliklari bilan ifodalanadi,  $\beta_1$  – kvant chiqish,  $I_0$  – yoritilish tezligi. Yoritilish yetarlicha kuchli bo'lganda ( $B \ll \beta_1 I_0$ ):



5.8-rasm.

$$V_{fm} = A = W \frac{\chi H}{C} \frac{D}{\lg s_L} \frac{\frac{D}{\lg s_L} (\operatorname{ch} \frac{d}{\lg s_L} - 1) + \operatorname{sh} \frac{d}{\lg s_L}}{\frac{D}{\lg s_L} \operatorname{sh} \frac{d}{\lg s_L} + \operatorname{ch} \frac{d}{\lg s_L} - 1}. \quad (5.38)$$

In verdagi manfiy belgilar oldingi bandlarda izohlangan, ammo  $\chi$  va  $s_L$  — yoritilayotgan va yoritilmayotgan qarshi sirtga tegishli.

Yupqa namunalar ( $d \ll \lg$ ) uchun sirt rekombinatsion sathlar va tashuvchilar zichligi gradiyenti muhim,  $x$  yo'nalishida diffuzion oqim, binobarin,  $y$  yo'nalishda magnitdiffuzion tok namuninga yoritilmaydigan sirtdagagi rekombinatsiya tezligi  $s_L$  orqali aniqlanadi. Yoritilayotgan sirtdagagi rekombinatsiya namuna ichkarisida nomiyozanatiy tashuvchilar taqsimatiga ta'sir ko'rsatmaydi, faqat

ellibni biroz kamaytiradi.  $\lg \gg \frac{D}{s} \gg \frac{d}{2}$  shart bajarilganda

$$V_{fm} = \omega \frac{\chi H}{C} s_L. \quad (5.39).$$

Yana boshqa usul — fotootkazuvchanlik kompensirlangan fotomagnit effekt spektr taqsimatini o'lhash orqali  $s$  ni aniqlash usuli ham mayjud. Agar namuna orqali fototok o'tkazib, fotomagnit effekt LYK ni fotokuchlanish bilan qoplansa, ya'ni  $V_{fm} = V_{fm}$  qilinsa,  $\lg \gg 1$  va  $\alpha \lg \gg 1$  bo'lganda

$$\frac{1}{V} = \frac{B}{H} \left( 1 + \frac{s}{D} \frac{1}{\alpha} \right), \quad (5.40)$$

bunda  $B = B(\lg, s, d, \omega, \tau_p, \tau_n)$ .

$V_{fk} = V_{f\infty}$  bo'lgandagi kuchlanish  $V$ .  $\frac{1}{V} = f \left( \frac{1}{\alpha} \right)$  bog'lanishlar  
 to'g'ri chiziq bo'lib, abssissa o'qi  $|a| = \frac{D}{s}$  kesmalar kesadi. Demak,  
 bu spektral bog'lanishdan  $s$  ni topish qiyin emas.

### 5.3.5. Sirt rekombinatsiyasi tezligini statsionar fotoottkazuvchanlikni o'lchashdan aniqlash

Kuchli yutiladigan yorug'lik ( $\alpha \rightarrow \infty$ ) hamda yupqa namunalar ( $d \ll lg$ ) uchun ikkala sirtda ham rekombinatsiya tezligi bir xil ( $s_o = s_L$ ). Statsionar fotoottkazuvchanlik


$$\Delta G = K\tau_i = K \left( \frac{1}{\tau_b} + \frac{2s}{d} \right)^{-1}, \quad (5.41)$$

bunda,  $K = e(\mu_n + \mu_p)g$ ;  $g$  — generatsiya tezligi.

$K$  doimiyni effektiv yashash davrini o'lchashdan ( $\mu = \frac{e\tau_f}{m} !$ ) aniqlash mumkin. U holda  $\Sigma G$  ni sohalarning tayinli egilishida o'lchash  $s$  ni aniqlash imkonini beradi.  $s(Y_s)$  bog'lanishni o'rganish usuli ishlab chiqilgan. Bunda bir vaqtida maydon effekti va statsionar fotoottkazuvchanlik (har xil kuchlanishda) o'lchanadi va yorug'likning

P-impulslari bilan yoritiladi, davomiyligi  $t_{im} \gg \tau_f$ . Sinusoidal ko'ndalang maydon chastotasi yorug'likni uzib turish chastotasiga karrali bo'lmaydi.

Maydon effekti va fotoottkazuvchanlik signallari qator bosqichlardan so'ng ossillografga uzatiladi. Ossillograf ekranida ikki egri chiziq kuzatiladi, biri (5.9-rasm, pastki chiziq) qorong'idagi maydon effektiga, ikkinchisi (yuqorigi chiziq) yoritilgandagi maydon effektiga tegishlidir.



5.9-rasm.

Injeksiya sathi kichik bo‘lganda yoritishda sohalar egilishi o‘zga-  
rishi ham kichik, bu holda  $\Sigma G$  va  $s$  ning (5.41) bo‘yicha aniqlangan  
qiymatlari qorong‘ilikdagi maydon effektidan aniqlangan  $Y_s$  qiymatiga  
men keladi.

Ammo injeksiya sathi yuqori bo'lganda yorug'likning sirt potensialti o'zgarishiga ta'sirini hisobga olish zarur.

## ‘’ Savol va topshiriqlar

1. Generatsiya va rekombinatsiya jarayonlarining umumiyligi ta'riflarini ayтиб беринг.
  2. Sirt rekombinatsiyasining qanday markazlari bor? Uning tezligi s qanday kattalik?
  3. Sirtyiy rekombinatsiyani o'rganish usullarini tavsiflang.
  4. Sirtyiy rekombinatsiya tezligi s ni impulsli usullar yordamida aniqlashni tushuntiring.
  5. Foto'tkazuvchanlikdan foydalanib s qanday aniqlanadi?
  6. Magnit konsentratsiya effektini o'lchash usulida s qanday topiladi?

## **VI BOB. YARIMO'TKAZGICHALAR SIRTIDAGI «TEZ» SATHLAR**


Maydon effekti kinetikasini o'rganish natijasida germaniy va kremniy sirtida farqli relaksatsiya vaqtlariga ega bo'lgan sirt sathlarining ikki tizimi mavjudligi aniqlangan. Yarimo'tkazgich—oksid chegarasida joylashgan sirtdagi sathlar hajmdagi energiya sohalari bilan yaxshi elektrik aloqada bo'ladi va ularning relaksatsiya vaqtлari kichik ( $\sim 10^{-8}$  s). Bu sathlar shartli ravishda «tez» sathlar deb nomlangan. Ulardan farqli ravishda, oksid—atrof-muhit chegarasida joylashgan sirt holatlarni «sekin» sathlar deb nomlangan, chunki ularning relaksatsiya vaqtı katta ( $10^{-3}$  s dan o'nlab sekund va undan ham ortiq).

Elektronlar va kovaklarni ushlab olish ko'ndalang kesimlari nisbatiga qarab «tez» sirt sathlari rekombinatsiya sathlari ham, yopishish yoki tutish sathlari ham bo'lishi mumkin. «Sekin» sathlar orqali rekombinatsiya bo'lmaydi va ular tutish sathlari bo'ladi. Ularda tutilgan zaryad katta zichlikka ega bo'lganligi tufayli sirtda sohalar egilishi kattaligini aniqlaydi.

### **6.1. «Tez» sathlarning energetik spektri**

Yarimo'tkazgich sirti modelini to'g'ri tanlash uchun sirt sathlari energetik spektri qanday bo'lishligini bilish kerak. Agar sirt holatlari diskretligi ravshan bo'lsa, tez sathlardagi zaryadning  $\bar{Y}_s$  ga bog'lanishi egri chizig'ida bir necha pog'onalar bo'lishi kerak, maydon effekti harakatchanligining  $\bar{Y}_s$  ga bog'lanishida esa bir necha maksimumlar bo'lishi lozim. Agar ularning bir qismi rekombinatsiya sathlari xizmatini bajarsa, u holda  $s(\bar{Y}_s)$  bog'lanishda ham bir necha maksimum bo'lishi kerak (6.1-rasm).

Ammo germaniyda ham, kremniyda ham mazkur egri chiziqlar silliq shaklda bo'ladi. ularning hech birini sirtda bir sath bor degan faraz asosida tushuntirib bo'lmaydi. Bunday holat sirt holatlari uzlusiz spektrga, diskret spektrga (holatlar yaqin joylashgan) ega bo'lganida ham o'rini bo'ladi.




6.1-rasm.

Biroq, germaniy va kremniyning taqiqlangan sohasi o'rtasi yaqinida diskret sathlar tizimi mavjudligi tajribada tasdiqlangan. Ba'zi hollarda diskret sathlar bilan birga uzuksiz taqsimlangan sathlar ham bor deb faniq qilinadi, ular ruxsatlangan sohalar yaqinida joylashgan bo'ladi.

«Tez» sathlarning miqdoriy parametrlarini, asosan, uchta usul bilan:

- 1) statcionar maydon effektining o'lchashlaridan;
- 2) sirt rekombinatsiyasi tezligi va maydon effektini bir vaqtda o'lchashlaridan;
- 3) maydon effektining kinetikasi va chastotaviy bog'lanishini niganish aniqlangan.

«Tez» sirt sathlarining turli temperaturadagi parametrlari  $\partial Q_w / \partial Y_s$  hosila orqali ifodalanadigan maydon effekti harakatchanligini



6.2-rasm.

o‘lchashdan topiladi. Agar sathlar diskret bo‘lsa,  $\frac{\partial Q_{ss}}{\partial Y_e}$  ning  $Y_s$  ga bog‘lanishi bir qator cho‘qqlarga ega bo‘ladi. 6.1 va 6.2-rasmarda turli temperaturalarda bu bog‘lanish tasvirlangan. Xona temperaturasida taqiqlangan soha o‘rtasi yaqinida ikki sath yetarlicha aniq ko‘rinadi, ularning zichligi  $\sim 10^{-10} \text{ sm}^{-2}$ . Temperatura pasaysa, ruxsatlangan sohalarga yaqin joylashgan va kattaroq zichlikka ega bo‘lgan ( $\sim (1-2,5)10^{11} \text{ cm}^{-2}$ ) yana ikki sath ko‘rinadi. Past temperaturada (masalan,  $\sim 202 \text{ K}$  da) taqiqlangan soha o‘rtasidagi sathlar yo‘q yoki zichligi juda kam, shuning uchun ham ular maydon effekti o‘lchashlarida namoyon bo‘lmaydi.

Luminiyadagi sirdagi sathlar spektrining diskret (uzuq) bo'lishligini maydon effektini kichik signalli ( $\Delta\Phi_s \ll kT/e$ ) usul bilan o'chashlar orasida isbotlangan. Bu usulda maydon torgina oraliqdagi sirdagi sathlar to'ldirilganligini o'zgartiradi xolos, bu esa yaqin joylashgan diskret sathlarni ajratish imkonini beradi.

Sint holatlarining energiyalar bo'yicha taqsimlanishi haqida hezimta ma'lumotni infraqizil sohada fotoo'tkazuvchanlikni o'chashidan olinishi mumkin. Bu usul sirdagi holatlar zichligi ancha katta bo'lganda qo'llaniladi. Sirt sathlari diskretligi bu holda fotoo'tkazuvchanlikning spektral bog'lanishida maksimumlar ko'rinishida nuyoyon bo'ladi, ularning vaziyati sirt sathlarining energetik vaziyatini aniqlaydi.

Kreinnyda infraqizil fotoo'tkazuvchanlik spektrida 1 dan 4 mkm sohada nozik tuzilish aniqlanmagan, ammo bu spektral oraliqda fotoo'tkazuvchanlikning ortishi kuzatilgan.

## 6.2. Sirtda muvozanatsiz zaryad tashuvchilarining rekombinatsiyasi, ushlanishi va yopishishi

Kristall hajmidagi mahalliy sathlar, ma'lumki, ularning muvozanatsiz zaryad tashuvchilar bilan o'zaro ta'siri qanday bo'lishiga bog'liq ravishda rekombinatsiya sathlari va yopishish sathlariga ajratib qaratadi. Agar kristalda, masalan, yoritish oqibatida, ortiqcha tashuvchilarining muvozanatsiz zichligi paydo qilingan bo'lsa, bu holda yoritish to'xtatilganda zichlik muvozanat qiymatiga qaytishi (rekombinatsiya) yuz beradi. Bir ishorali (masalan, elektronlar) tashuvchilar kirishmaviy markazga to'planadi. Ma'lum vaqt o'tgach kirishmaviy sath to'plangan elektronlarni sohaga qaytarib issiqlik (issiqlik harakati hisobiga) berishi yoki muvozanatsiz kovakni ushlab olishi mumkin. Agar kovakni ushlab olish ehtimolligidan elektronni sohaga qaytarib berish ehtimolligi katta bo'lsa, mazkur sath *yopishish sati* deyiladi. Aks holda, agar sathning elektron va kovakni ushlab olish ehtimolligi sohaga qaytarib berish ehtimolligidan katta bo'lsa, bunday sathni *rekombinatsiya sati* deyiladi.

Elektronni ushlab olgan qandaydir *A* sath uchun kovakni ushlab olish ehtimolligini sohaga qaytarib berish (issiqlik energiyasi hisobiga sohaga o'tkazish) ehtimolligiga nisbati

$$K_n = \frac{\gamma_n \gamma_p}{\gamma_n N_c \exp(-E_a / kT)}, \quad (6.1)$$

bunda  $p$  — kovaklar zichligi,  $E_a$  — sathning energetik vaziyati.

Kovakni ushlab turgan sath uchun

$$K_p = \frac{\gamma_p n}{\gamma_p N_v \exp(-(E_g - E_a) / kT)}, \quad (6.2)$$

bunda  $E_g$  — taqiqlangan soha kengligi.

Agar  $K_p \ll 1$  bo'lsa,  $A$  sath yopishish sathi bo'ladi, agar  $K_p \gg 1$  bo'lsa, u tez rekombinatsiya sathi bo'ladi va  $K_p \sim 1$  bo'lsa, sekin rekombinatsiya sathi bo'ladi. (6.1) va (6.2) ifodalardan ko'rinish turganidek, sathning qanday bo'lishi temperaturaga, noasosiy zaryad tashuvchilar zichligi va boshqa omillarga ham bog'liq bo'ladi.

Yupqa namunalar fotoo'tkazuvchanligi, maydon effektini o'rganishdan ma'lumki, mazkur effektlarning tez relaksatsiyasi sirt rekombinatsiya jarayonlari bilan ham, sirt tutish jarayonlari bilan ham bog'liq. Mazkur sathning yopishish markazi bo'lishi sharti quyidagicha ifodalanadi:

$$K_{ns} = \frac{\alpha_p}{\alpha_n} \exp(E_t - E_f + Y_s) \ll 1, \quad (6.3)$$

bu joyda  $E_f$  — fermi sathi energiyasi:  $E_f$  va  $E$ , taqiqlangan sohaning o'rtaidan hisob qilinadi.

«Tez» sirt sathlar parametrlari temperaturaga bog'liq. Masalan, germaniyda o'tkazilgan maydon effekti o'lichashlariga asosan xona temperaturasida to'rtta «tez» sirt sathlarning hammasi rekombinatsion markazlar bo'ladi. Temperatura pasaygan sari sathlarning rekombinatsion xossalari susayib, yopishish ehtimolligi ortib boradi. Temperatura ~250 K gacha pasaytirilganda taqiqlangan sohaning yuqorigi yarmisida sathlar yopishishi sathlari bo'la boshlaydi. Yana ham past temperatura  $T$  da qolgan 2 ta sath ham yopishish sathlari bo'lib oladi.

Kremniyning yupqa namunalarida kichik signalli maydon effekti va fotoo'tkazuvchanlik relaksatsiyasi ko'rinishi  $Y_s$  ga bog'liq. Boyitilgan yoki kuchsiz siyraklashtirilgan qatlamlar uchun sirt rekombinatsiyasi aniqlaydigan tez relaksatsiya jarayoni kuzatiladi. Sirtda inversion qatlam bo'lgani uchun relaksatsiya sekin boradi, bu esa sirtda yopishish borligini ko'rsatadi.

### 6.3. Sirdagi yopishish sathlari


Eremniyning yupqa namunalarida xona temperaturasida foto-  
to'qazuvchanlik ikki — qisqa vaqtli va uzoq vaqtli tashkil etuvchilardan  
domi. Tashkil etuvchilarni tavsiflovchi xususiy vaqtning temperatu-  
ra bog'lanishi turlichay: uzoq vaqtli tashkillovchining vaqtini doimiysi  
o' temperatura kamaygan sari ortib boradi, qisqa vaqtisiniki  $\tau_q$   
po'staydi.  $\tau \left( \frac{1}{T} \right)$  bog'lanishning ortishi yopishish jarayonlariga xos,  
po'uyuchchi  $\tau \left( \frac{1}{T} \right)$  bog'lanish esa rekombinatsion jarayonlarga xosdir.

Bu tajribaviy dalil yana boshqa tajribalar bilan birgalikda zaryad  
etuvchilarning sirt yopishishi mavjud ekanligini tasdiqladi.


Yopishish sathlarini «neytrallashtirish» uchun namunani yetarlichay  
doimiy yorug'lilik bilan yoritish kerak. Bunda fotoo'tkazuv-  
chanlik kinetikasi xuddi yopishish sathlari bo'lmaganidek o'tib boradi.

0,5% injeksiya (purkash) sathi beradigan kuchsiz doimiy yoritish  
surʼusiy vaqtini ikki tartibga kamaytiradi. Bu natija doimiy (qo'shimcha)  
yoritish holida relaksatsiya rekombinatsion tabiatga ega, degan xulosa-  
ga olib keladi.

Namunada elektron-kovak juftlarni tortib chiqaruvchi bo'y-  
lma elektr maydonning fotoo'tkazuvchanlik tashkillovchilariga  
ta'siini o'rganish ham sirdagi  
yopishish hodisasi mavjudligini tas-  
diqlaydi. Maydonni paydo qilish  
(kuchlanish berish) rekombinatsiya  
bilan, ya'ni namunada elektron-  
kovak juftlari borligi bilan bog'liq  
qisqa vaqtli relaksatsiyani muhim  
darajada tezlashtiradi. Maydon  $\tau_{uz}$   
ni o'zgartirmaydi, bu yopishish  
effekti uchun tabiiydir, chunki  
yorug'lilik paydo qilgan zaryad ta-  
shuvchilar yopishish markazlari  
tutib olgani yaqinida mahalliylash-  
gan va ularni maydon kristalidan  
chiqara olmaydi.



6.3-rasm.



6.4-rasm.

Sirt sathlarida zaryad tashuvchilarning yopishishi effektini  $n$ -tur yarimo'tkazgichda kuzatish oson. Relaksatsiya vaqtiga  $\tau$  ning  $T$  temperatura pasayishi bilan ortib borishi faqat yupqa namunalarda kuzatiladi.  $\tau$  muhim darajada sirtga ishlov berilishiga bog'liq. Uzoq vaqtli tashkillovching vaqtiga  $\tau_{uz}$  sirtga qo'yilgan tashqi ko'ndalang maydonga, ya'ni sohalar egilishi kattaligiga bog'liq, ammo  $\tau_{uz}$  amalda doimiy qoladi.

Bu natijalar kuzatilayotgan yopishish effektlari sirtga tegishli ekanligini tasdiqlaydi. Kondensator foto EYK i  $Y_{kf}$  ni o'lchashlarda ham sirt yopishish sathlari namoyon bo'ladi. Aniqlanishicha, n-Si ning ba'zi namunalari uchun kondensator foto EYK ining qo'yilgan kuchlanishga bog'lanishi maksimumga ega, ya'ni sohalar egilishining tegishli qiymatida sirtda musbat zaryad to'planadi, kovaklarning tutilishi yuz beradi.  $Y_{kf}$  relaksatsiyasida uzoq vaqtli ( $\tau_{uz}$ ) tashkillovchi paydo bo'ladi.

Endi sirt yopishish sathlari zichligini baholaymiz. Uni bu markazlar to'yinib oladigan injeksiya sathi kattaligi bo'yicha amalga oshiriladi.

Olinigan  $N_{\text{yon}} \sim 7 \cdot 10^{10} \text{ sm}^{-2}$  qiymatlar maydon effekti o'lchashlaridan topilgan qiyatlarga yaqin, ammo hajiniy yopishish sathlari zichligidan ( $N_{\text{yon}}^b \sim 10^{12} - 10^{14} \text{ sm}^{-2}$ ) ancha kam. Katta signallar (kuchlanishilar)da olib borilgan o'lchashlarda sirdagi yopishish sathlari to'la to'yingan va namoyon bo'lmaydi. Kichik signallar bilan o'lchashlar olib borilganda sirt yopishishni e'tiborga olish zarur. Kremniy unun zaryad tashuvchilarning sirtda yopishishi xona temperaturasida mavjud bo'лади.

#### 6.4. «Tez» sirdagi sathlarning tabiatи

«Tez» sirdagi sathlar parametrlarining temperaturaga, yoritishga bog'liq ravishda o'zgarishi o'rganilgan, sirt tabiiy qariganida, vakuumda va gaz muhitida yuqori temperaturada qizdirilganda sathlar tizimi o'zgarishi o'rganilgan, molekulalarni adsorblashning rekombinatsion masalarga ta'siri tekshirilgan. Bu sohada hali o'rganiladigan ko'p intammolar mavjud.

Germaniy dastlab yaxshi o'rganilgan yarimo'tkazgich. Germaniyning sirtidagi rekombinatsion markazlar germaniy-oksid chegarasida adsorblangan kislород bilan bog'liq degan farazni atomar toza sirt xossatini tadqiqlashlar tasdiqladi. Namunalarni vakuumda  $T \sim 500^\circ \text{C}$  bo'lganda qizdirish oqibatida paydo bo'lgan rekombinatsion markazlari eng katta zichligi  $10^{12} \text{ sm}^{-2}$  bo'lib, u sirdagi atomlar zichligi ( $10^{14} \text{ sm}^{-2}$ )dan ancha kichik. Bu ma'lumot asosida rekombinatsion markazlar vazifasini germaniy-oksid chegarasidagi tuzilish nuqsonlari bajaradi, degan xulosaga kelish mumkin.

Suvni adsorblashda sirt rekombinatsiya tezligi kamayadi. U suv molekulalari tomonidan rekombinatsion markazlarining neytrallanishi oqibati deb talqin qilinadi. Neytrallash effekti mexanizmi quyidagicha bo'navvur qilinadi. Suv molekulasi yoki boshqa qutbli molekula (yoki ion) sirdagi rekombinatsion markaz (germaniy-oksid chegarasidagi nuqson) yaqinida panjara doimisi tartibidagi masofada mahkam joylashadi. Molekular yoki ion adsorblash oqibatida paydo bo'lgan intahliy maydon ta'siri natijasida markazning rekombinatsion parametrlari (uning energetik vaziyati  $\gamma_n$ ,  $\gamma_p$ ) kuchli darajada o'zgarishi, surʼusani, markaz rekombinatsion bo'lmay qolishi mumkin.

Suvni efir bilan almashtirilsa, markazning tutib olish ko'ndalang ketmini o'zgarishi kuzatiladi. Germaniy sirtiga xos effektlar kremniy

ustida bajarilgan tadqiqotlarda namoyon bo‘lmaydi, chunki germaniy va kremniyning sirti har xil yedirish va oksidlash tezliklariga, shuningdek, turli adsorbsion-desorbsion xossalarga ega.

«Tez» sathlar kremniyda ham, germaniyda ham yarimo‘tkazgichoksid chegarasidagi tuzilish nuqsonlari bilan bog‘liq. Bu sathlarning zichligi germaniydagiga nisbatan kremniyda bir necha marta katta ekan. Kremniy sirtiga barqarorlik xos: suv yoki kislород adsorblanganda (sirtga yutilganda) mustahkam Si-O bog‘lanishlar vujudga keladi. Shakllangan oksid pardasi mustahkam va kimyoviy barqaror. Atmosferani yana o‘zgartirish «tez» sirt sathlar tizimiga ta’sir qilmaydi. Namunalarni vakuumda qizdirish sirdagi sathlar zichligini qaytmas ravishda kamaytiradi, sirdagi rekombinatsiya tezligini ancha kamaytiradi.

«Kuydirish» ishlovi kremniydagagi sirt yopishish sathlariga ta’sir ko‘rsatadi, ularning shakllanishida sirtda yutilgan (adsorblangan) suv molekulalari muhim o‘rin tutadi. Nam geliy atmosferasida ( $T \sim 250 - 400^\circ C$ ) kuydirilganda (qizdirilganda) yopishish sathlari zichligi ortadi. Ammo sirtni «suvsizlantiruvchi» kuydirishda (masalan, vakuumda) sirdagi yopishish sathlari ancha kamayib ketadi. Bu natija kremniy sirtida yopishish sirti paydo bo‘lishida xemosorbsion o‘zgarishlar borligidan darak beradi.

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. Yarimo‘tkazgichlar sirtidagi «tez» sathlarning asosiy xossalari va tabiatni nimadam iborat?
2. Sirda zaryad tashuvchilar rekombinatsiyasi qanday tarzda kechadi?
3. Sirda zaryad tashuvchilar tutilishi hodisasini tavsiflang.
4. Sirdagi yopishish sathlarining asosiy belgisini aytib bering.
5. «Tez» sathlarning yarimo‘tkagichda kechadigan jarayonlarga ta’siri qanday?
6. «Tez» sathlar hosil qilishda qanday omillar muhim ahamiyatga ega?

## VII BOB. «SEKIN» SIRTDAGI SATHLAR

Yarimo'tkazgich – gaz sirtida «sekin» sathlar deb atalgan sirt sathlari tizimi mavjud. Ularning vaqtiy doimiysi  $10^{-5}$  s dan to minut, hatto soatlargacha qiymatlarga ega bo'ladi. «Sekin» sathlarining «tez» sathlardan farqi shundaki, «sekin» sathlarning relaksatsiya vaqtiga katta, chunki ular bilan sohalar orasida zaryad tashuvchilar almashimini qiyinlashgan, ammo «sekin» sathlar zichligi ancha katta ( $10^{11}$ – $10^{13} \text{ sm}^{-2}$ ) va u sirt to'siq balandligini «sekin» sathlar to'ldirganligi usosida aniqlanadi.

### 7.1. «Sekin» sirt sathlarining energetik spektri


«Sekin» sirt sathlarning parametrlarini maydon effektini o'zgarmas kuchlanish berilgandagi o'hash orqali aniqlanadi. Bunda o'tkazuvchanlikning statsionar o'zgarishi o'chanadi va sirtga ushlangan  $Q_{ss}$  ziyadning sohalar egilishi  $Y$ , ga bog'lanishi topiladi. Agar bir vaqtda «tez» sirt sathlarga ushlangan  $Q_{ss,t}$  zaryad aniqlangan bo'lsa, u holda «sekin» sathlarga zaryad  $Q_{ss,s} = Q_{ss} - Q_{ss,t}$  bo'ladi.

Shunday o'hashlar germaniy, kremniy va ayrim boshqa yarimo'tkazgichlarda «sekin» sirt sathlar spektri diskret sathlar tizimidan iborat ekanligini tasdiqlaydi. Bu diskretlik past temperaturalarda ravshanroq namoyon bo'ladi (7.1-rasm).

Kremniy sathini 3 ta «sekin» sath orqali tavsiflash mumkin. Ularning parametrlari vakuumda yetarlicha katta maydonlar hosil qilinganda ham deyarli o'zgarmaydi. «Sekin» sirt sathlar zaryad tashuvchilarni tutuvchi markazlar xizmatini bajaradi va sirt rekombinatsiyada qatnashmaydi.

### 7.2. Sirda yuz beradigan sekin relaksatsion hodisalarini tajribada o'rghanish


To'ldirilgan sirtdagi muvozanat holatlar Fermi sathi bo'yicha aniqlanadi. U esa temperaturaga bog'liq. Albatta, qaysi bir ta'sir oqibatida tizim muvozanatdan chiqarilsa, «sekin» sathlar to'ldiril-




7.1-rasm.

ganligi o‘zgaradi. Tashqi ta’sir yo‘qolganda bu sathlarda muvozanat-dagi zaryad o‘rnashib boradi. Mazkur kinetikani o‘rganish yarim-o‘tkazgich sirtining energetik spektri haqida bir qator muhim ma’lumatlar beradi. Sirdagi sathlar nomuvozanatiy to‘ldirilganligini paydo qilishning bir necha usullari bor. Eng tarqalgan usul maydon effekti usulidir. Germaniy o‘tkazuvchanligining o‘zgarmas ko‘ndalang elektr maydon paydo qilingan va yo‘q qilingandagi o‘zgarishi «sekin» relaksatsiyasi o‘rganilgan (7.2-rasm). Qiyosan past chastotalar sohasida maydon effektining chastotaga bog‘lanishi olinganda (7.3-rasm) maydon effektning kuchli darajada pasayishi zaryad tashuvchilarning «sekin» holatlarga tutilishi bilan bog‘liq ekanligi ko‘rinadi.

Chastota ortganda kamroq tashuvchilar «sekin» sathlarga tutiladi.  $\omega > 100$  Gs bo‘lganda bu sathlar ishlamaydi, chunki ular bilan soha orasida zaryad tashuvchilar almashinuvi yuz berib ulgurmaydi, chastota yana ham ortganda signal o‘zgarmasdan qoladi. Muhim natijalar:



7.2-rasm.



7.3-rasm.

1. Nam va quruq atmosfera sharoitida chastotaviy bog'lanish turlicha.

2. Chastotalarning yetarlicha keng sohasida o'tkazuvchanlik o'zgarishi  $I_g \omega$  ga proporsional.

3. Ko'ndalang elektr maydon sinusoidal bo'lganda o'tkazuvchanlik o'zgarishiga proporsional signal o'shanday chastotali sinusoida bo'ladi, ya'ni u yuqori chastotali garmonikalarga ega bo'lmaydi.


«Sekin» holatlardagi muvozanatdagi zaryadlar zichligini o'zgarishning boshqa bir usuli kristall sirtini yoritishdir. Bu holdagi sirtdag'i sathlarning sirtdag'i Fermi kvazisathlariga nisbatan joylashishi, binobarin, ularning to'ldirilganligi o'zgaradi. Yoritish to'xtatilganda sirtdag'i zaryadning dastlabki qiymatiga sekin qaytishi kuzatiladi. Yana bir usul — namuna temperaturasini juda tez o'zgartirish usulidir. Tajriba quyidagicha amalga oshiriladi. Namunani  $-44^{\circ}\text{C}$  gacha sovitiladi, «sekin» sathlarning muvozanat to'ldirilganligi qaror topadi. Agar namunadan uni xona temperaturasigacha qizdiradigan tok o'tkazilsa, u holda muvozanat to'ldirilganlik buziladi. Bu esa sirtdag'i potensial va sirt o'tkazuvchanlikning  $\Delta V_k$  va  $\Delta\sigma$  o'zgarishiga olib keladi. Qizdiruvchi tok uzilganda namunani tez sovitiladi, sirtdag'i zaryad, sirt o'tkazuvchanlik o'zining  $-44^{\circ}\text{C}$  ga mos keladigan qiymatlariga qaytadi. Bu usuldan past temperaturalarda foydalaniлади. Sirt sathlari muvozanat to'ldirilganligi o'zgarishini yuzaga keltiradigan uchala usuldan foydalilanilda  $\Delta\sigma$  va  $\Delta V_k$  ning relaksatsiyasi egri chiziqlari bir xil bo'lar ekan.  $\Delta\sigma$  ning uchala usuldag'i relaksatsiyasi egri chiziqlari 7.4-rasmida keltirilgan.  $p-n$  o'tish chegarasida joylashgan sekin sathlarning muvozanatdagi to'ldirilganligini o'zgartirish uchun  $p-n$  o'tishga teskari kuchlanish berish kerak. Bunda  $p-n$  o'tish orqali teskari tok o'zgarib boradi. Kuchlanish uzilganda teskari tok asta-sekin sonib boradi, bu sirtdag'i sathlarda zaryadning tiklanishi bilan bog'liq. Yuqorida tavsiflangan usullardan foydalinishda olingan asosiy natijalar quyidagilardir:

1.  $\Delta\sigma$  va  $\Delta V_k$  larning sekin relaksatsiyasi qonuni eksponensial (ko'rsatkichli funksiya) emas. Masalan,

$$\Delta V_k = A' + B' \ln(t + \tau), \quad (7.1)$$

$A'$  va  $B'$  —  $\tau$ - tajribadan aniqlanadigan doimiyalar.

2.  $\Delta\sigma$  va  $\Delta V_k$  ning uzun vaqtli o'zgarishlari kinetikasi temperaturaga kuchli darajada bog'liq. Temperatura kamayishi bilan ularning pasayishi keskin sekinlashadi.



7.4-rasm.

3. Zaryadlarning sekin sathlarga o'tishi tezligi zaryad tashuvchilarning muvozanatsiz zichligiga proporsional, ya'ni maydon ortishi yoki yoritish tezligi ko'payishi bilan mazkur tezlik ham ortadi.

4.  $\Delta\sigma$  va  $\Delta V_k$  pasayishi kinetikasi kuchli darajada atrof atmosferasiga bog'liq.

5.  $\Delta\sigma$  va  $\Delta V_k$  larning relaksatsiyasi egri chiziqlari ko'rilgan uchala holda ham bir xil (7.4-rasm). Keltirilgan tajribaviy natijalarni tushunish uchun sirtning modellari taklif qilingan.

### 7.3. Geterogen sirt modeli

Bu modelning haqiqiy zamini tajribalar natijalaridir. Modelning asosida sirtning turli qismlari turli relaksatsiya vaqtlariga ega, degan faraz bor. Faraz qilaylik sirtning har bir qismida (elementida) pasayish eksponensial, ya'ni har bir sirt elementi uchun ortiqcha zaryad tashuvchilar zichligining ( $n_i$  ning) vaqtga bog'lanishini

$$\frac{dn_i}{dt} + \frac{1}{\tau_i} n_i = A \quad (7.2)$$

ko‘rinishidagi chiziqli tenglama bilan aniqlanadi. Bunda  $A$  – ortiqcha tashuvchilar generatsiyasini aniqlaydigan biror funksiya. Tajribadan ma’lumki, maydon va  $n$  zichlik orasida chiziqli munosabat bor. U holda sinusoidal uyg‘otish qo‘llansa,  $A = A_0 \sin \omega t$ .

(7.2) tenglamaning yechimi:

$$n_i = n_i^0 \sin \omega t. \quad (7.3)$$

$\Delta\sigma \sim \Sigma n_i$ , ya’ni qayta qilinadigan signal sinusoida bo‘ladi.  $\Delta\sigma$  ning vaqtga bog‘lanishi sirtga o‘zgarmas yoki P-impulslri maydon qo‘yliganda tekshiriladi, bunda  $A = 0$  yoki  $A = \text{const}$ . Bu holda har bir sirt elementi uchun (7.2) ning yechimi  $n_i = n_0 \exp(-t/\tau)$ , ya’ni har bir elementda pasayish eksponensial, ammo  $n_i$ lar yig‘indisi  $\Delta\sigma$  uchun murakkabroq qonunga bo‘ysunadi.

Agar sekin holatlari relaksatsiya vaqtleri bo‘yicha

$$g(\tau) = \frac{1}{\tau} \quad (7.4)$$

ko‘rinishda taqsimlangan deb faraz qilinsa, tajribada kuzatiladigan (logarifmik mashtabdagi) chiziqli qonunni olish mumkin.  $g(\tau)$ -relaksatsiya vaqtiga  $\tau$  bo‘lgan holatlarning sirt zichligi. Ge uchun  $\tau = 0,02 \div 20$  s.  $\tau$  ning kristall sirti bo‘ylab o‘zgarib borishini oksid qatlami qalinligi bir tekis emasligini ko‘rsatadi.

#### 7.4. Elektronlar o‘tishlari modeli

Bu model «katta signal» holidagi, ya’ni «sekin» sirt sathlaridagi zaryadning o‘zgarishi, binobarin, sirt potensiali o‘zgarish yetarlicha katta bo‘lgandagi tajriba natijalarini tushuntirish uchun taklif qilingan. Zaryad tashuvchilarining sohadan «sekin» sathlarga o‘tish tezligini sirt yaqinida potensial to‘siq balandligi aniqlaydi, deb faraz qilinadi. O‘z navbatida, bu balandlik oldin «sekin» sathlarga o‘tib olgan zaryad tashuvchilar soniga bog‘liq. Bu modelni 7.5-rasmdagi sohalar chizmasi yordamida tushuntirish mumkin. Ushbu masalani sodda tushunish uchun sirt sath bilan o‘zkazuvchanlik sohasi orasida elektronlar almashinuvini yuz beradi deb faraz qilamiz. Tashqi maydon potensial to‘siqni  $\Delta Y_s$  ga o‘zgartirsin, sohadagi ortiqcha tashuvchilar soni: a) «sekin» sathdan sohaga o‘tishlar teskari o‘tishlar ( $\sim \exp(\Delta Y_s/kT)$ ) orqali aniqladi:


$$\frac{dn}{dt} = \bar{B}_i \exp [-(\bar{E}_s - E_t)] - A_i \exp (Y_s/kT). \quad (7.5)$$

Potensial to'siq balandligi o'zgarishi paydo qilingan tashuvchilar konsentratsiyasi  $n$  ga bog'liq:  $\beta'n = \exp(\Delta V_s/kT)$ . Statsionar holda  $\Delta V_s = 0$ ,  $dn/dt = 0$ , bundan  $B_1 = A_1 \exp(E_s - E_f)$ .

Demak,

$$\frac{dn}{dt} = A_1(1 - e^{\beta'n}). \quad (7.6)$$

Bu model tajribada kuzatiladigan parametrlari egri chiziqlar asimmetriyasini oson tushuntiradi. Haqiqatan, agar  $\beta'n$  katta va manfiy bo'lsa,



7.5-rasm.

$$\frac{dn}{dt} = A_1 \exp(-\beta'n) \quad (7.7)$$

bo'ladi. Agar  $\beta'n$  katta va musbat bo'lsa,

$$\frac{dn}{dt} = -A_1 \exp(\beta'n) \quad (7.8)$$

bo'ladi, ya'ni maydon hosil qiladigan zaryadlar ishorasi turlicha bo'lganda pasayish tezligi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki u elektronlar o'tishi modeli kuzatiladigan  $\Delta\sigma \sim \ln(t + \tau)$  turidagi bog'limishni ham tushuntira oladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ko'rib chiqilgan ikkala model ham bir-hirini to'ldiradi. Bundan, ikkala modelni birlashtirish kuzatilgan ko'pchilik hodisalarini to'liq tushunishga yordam beradi, degan mulohaza kelib chiqishi tabiiy.

### 7.5. «Sekin» sirtdagisi sathlar tabiatini

Ma'lumki, germaniy va kremluy yarimo'tkazgichlarida «sekin» sirtdagisi sathlarning mayjud bo'lishligi sirtda oksid qatlamingin borligi bilan bog'langan.

Kuzatilgan hodisalar oksidning tashqi sirtida joylashgan sathlar «sekin» relaksatsion jarayonlarda hal qiluvchi vazifani o'tashligini usdilqaydi. Masalan, «sekin» sathlar relaksatsiyasi vaqtida oksid qalinligi oshgan sayin ortib boradi. Agar oksid ichida joylashgan sathlar muhim ahamiyatga ega bo'lganda yuqoridagi hodisa kuzatilmas edi. Relak-

satsiya vaqtin t' ning atrof-muhitga bog'liqligi ham «sekin» sathlarning chegaraviy vaziyatini ko'rsatadi.

«Sekin» sathlar va sohalar orasida zaryad tashuvchilar almashinuvni masalasini qaraganda tashuvchilarning oksid qatlami orqali o'tish mexanizmi masalasi paydo bo'ladi. Faraz qilinishicha, tashuvchilarning oksid qatlami orqali o'tishi potensial to'siqdan tunnel effekt yo'li bilan amalga oshadi. Bu muammoni yechishda hal qiluvchi tajribalar – kinetikaning temperatura va oksid pardasi qalinligiga bog'liqligi o'rganilgan. Tajribalar, asosan, tunnel effekt foydasiga hukm chiqargan edi. Ammo ba'zi tadqiqotlar to'siq orqali (ustidan) elektronlar emissiyasi bo'lishi ham mumkinligini ko'rsatadi. Demak, mazkur ikkala mexanizmni e'tiborga olish zarur.

## ?

### Savol va topshiriqlar

1. «Sekin» sathlarning asosiy belgisi qanday?
2. «Sekin» sathlarning energiya holatlari tizimini aytib bering.
3. Geterogen sirt modeli yordamida «sekin» sathlarni tushuntiring.
4. Elektronlar o'tishi modeli qanday kerakli natijalar beradi?
5. «Sekin» sathlar qanday paydo bo'ladi?

## **VIII BOB. YARIMO'TKAZGICHLARNING ATOMAR TOZA SIRTINI O'RGANISH**

### **8.1. Yarimo'tkazgichlarning haqiqiy va atomar toza sirti**

Yarimo'tkazgichning haqiqiy sirti oksid qatlami bilan qoplangan va ko'p tuzilish nuqsonlariga ega bo'ladi. Oksid va yarimo'tkazgich chegarasida hamda atrofdagi atmosfera bilan chegarada, albatta, biror miqdorda adsorblangan chet kirishmalar joylashgan bo'ladi. Dastlab, shunday moddalar bilan ishlashga to'g'ri kelgan. Ammo, keyinroq kristallarni tozalash usullari ishlab chiqilgach yarimo'tkazgichlarning toza sirtini o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi. Bunday sirtlarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Sababi:

1. Bunday tadqiqotlar Tamm sathlari mavjudligini tajribada isbotlash imkonini beradi.
2. Tamm sathlari toza sirtda ko'pligi sababli sohaviy sirt o'tkazuvchanlik mavjud bo'lishligini tekshirish mumkin bo'ladi.
3. Gazlarning toza sirtda adsorblanishi jarayonlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.
4. Atomar toza sirtda maydon effektini o'rganish va shu usul bilan sirtning oksidlanishi oqibatida yuz beradigan o'zgarishlar, «tez» va «sekin» holatlar tabiatini haqida yangi ma'lumotlar berishi mumkin.
5. Sirtga kirishmalar kiritish muammosi muhim masaladir. Germaniy va kremniyning sirti atomar toza bo'lsa, uning o'tkazuvchanligi ancha katta, shuning uchun ular asosida asboblar yashash mumkin emas. Biroq muayyan kirishmalar kiritib, sirt o'tkazuvchanligi va sirt inkombinatsiyasini vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydigan qilinadi.

### **8.2. Yarimo'tkazgichlar atomar toza sirtini hosil qilish usullari**

Atomar toza sirt olish uchun birinchi shart – o'ta yuqori vakuum bo'lishidir. Gazning bosimi  $10^{-9}$ – $10^{-10}$  mm. sim. ustuni tartibida bo'lganda olingan atomar toza sirtni zarur o'lchashlar uchun yetarli vaqt davomida saqlab turish mumkin. Agar vakuum qurilmaning

barcha qismlarini yetaricha yuqori temperaturada 300–400° C uzoq vaqt (12–30 soat chamasida) gazsizlansa, bunday vakuumni elektro-razryad hamda moyli nasoslar yordamida hosil qilish mumkin.

Atomar toza sirt hosil qiladigan va unda  $10^{-9}$  mm simob ustuni chamasida vakuumni uzoq vaqt (bir necha hafta) tutib tura oladigan qurilmalar ham yaratilgan. Ammo shunday past bosim bo‘lganda ham tozalashdan biror vaqt o‘tgach, tekshirilayotgan sirt adsorblangan molekulalar qatlami bilan qoplanadi.

Lekin bu jarayon sekin ketadi, chunki adsorblanadigan gazning ulushiy bosimi kichik, sirtga adsorblanish ehtimoli ham kichik. Adsorblangan molekulalarning bir qatlami hosil bo‘lishi vaqt 40–400 soat atrofida bo‘ladi.

### **Yuqori temperaturali qizdirish usulida sirtni tozalash**

Agar kristallni vakuumda suyulish temperaturasiga yaqin temperaturagacha qizdirilsa, bu holda dastlab oksid qatlami bug‘lanib ketadi, so‘ngra asosiy modda ham bug‘lanadi. Natijada sirt yetarli darajada tozalanadi. Qaralayotgan usulni suyulish temperaturasi ancha yuqori bo‘lgan (1683° K) kremniya qo‘llash mumkin. 1550 K temperaturada vakuumda qizdirish orqali kremniyning toza sirti hosil qilinadi. Bu jarayonda kremniy ichiga qurilmaning shisha devorlaridan bor (B) kirib qoladi, u *p*-o‘tkazuvchanlik hosil qiladi. Bundan qutulish chorasi: kvarsdan yasalgan asbob-uskunadan foydalanish yoki borni ionlar yordamida bombardimon qilish usulida sirtdan uzoqlashtirishdir.

Bu usulning kamchiliklari ham yo‘q emas. Qizdirish vaqtida yarimo‘tkazgichning hajmiy xossalari (elektrik o‘tkazuvchanligi, yashash vaqt va boshqalar) ancha o‘zgaradi. Qizib ketgan qurilma qismlari ham ba’zi gazlarni chiqaradi, ular sirdagi zarralar bilan birikmalar hosil qilib tozalash o‘rniga ifloslashni keltirib chiqaradi. Shularni e’tiborga olib, mazkur tozalash usulini qo‘llash mumkin.

Ushbu usulni yarimo‘tkazgich birikmalarga qo‘llab bo‘lmaydi, chunki yuqori temperaturali qizdirish tarkibni buzadi.

### **Ionlar bilan bombardimon qilish usuli**

Bu usul ko‘p tarqalgan va samaralidir. Yarimo‘tkazgich sirtini bir necha yuz eV energiyagacha tezlantirilgan inert gaz ionlari bilan

bombardimon qilish sirtdagи oksid qatlamini, shuningdek, dastlabki moddaning 1–2 atom qatlamini ketkazadi. Biroq, keyingi jarayon bimuncha nuqsonlar hosil qiladi. Bu nuqsonlarni ketkazish uchun 15–30 minut davomida yuqori temperaturali kuydirish (1100–1200° K) qo'llaniladi. Kuydirish vaqtida ham sirt qisman ifloslanishi mumkin. Shuning uchun ionlar bilan bombardimonlash—kuydirish texnologik amallari ko'p marta takrorlangandagina qanoatlanarli bo'ladi.

Bu usul elementar (Ge, Si va boshqalar) yarimo'tkazgichlar sirtini tozalashda yaxshi natijalar beradi, ammo yarimo'tkazgich birikmalarning toza sirtini hosil qilishda hamma vaqt ham ijobiy natija beravermaydi.

### **Vakuumda «yorish» usuli**

Kristallni yuqori vakuumda «yorish» yo'li bilan tozalash usulining soddaligi, shuningdek, uning yarimo'tkazgich birikmalarga qo'llanilishi tufayli foydalanish sohasi ancha kengdir.  $\sim 10^{-9} - 10^{-10}$  mm.sim.ust. bosimli vakuumga joylangan kristallni kerakli kristallografik yo'nalishi (kremniy uchun (111)) bo'ylab yoriladi. Magnit maydon yoki boshqa usul bilan boshqariladigan maxsus urgich mahkamlangan kristallga zarb beradi, natijada kristall yoriladi. Yorishning boshqa bir usuli — sirtga oldindan tayyorlangan chuqur izga pona bosiladi.

Bu usul qo'llanganda qizdirish amalga oshirilmaydi. Kristall yorishi bilanoq uning sirtdagи elektr xossalari bevosa o'chash mumkin.

### **Sovuq bug'lanish usulida sirtni tozalash**

Usul quyidagidan iborat: kuchli elektr maydon ( $\sim 10^8$  V/sm) musbat zaryadlangan nayzadan sirtdagи kirishma atomlarini va kristall panjarasi yuqorigi qatlamlaridagi atomlarni uchirib yuboradi. Maydon tekshirilayotgan modda nayzasi va tekis elektrod orasida hosil qilinadi.


Yetarlicha past chastotali o'zgaruvchan kuchlanish berib sirtni tozalash jarayoni va uning tozaligini bir vaqtida amalga oshirish mumkin: nayzaga musbat kuchlanish berilganda nayzadan sirtdagи atomlar bug'lanadi, ya'ni tozalash yuz beradi. Nayzaga manfiy kuchlanish berilganda avtoelektron emissiya kuzatiladi, bu sirtning elektronogrammasini olish imkonini beradi.

### 8.3. «Sekin» elektronlar difraksiyasi usulida sirtning tozaligini tekshirish

Energiyasi 20 dan 200 eV gacha bo'lgan elektronlar dastasi tekshiriladigan sirtga tik yo'naltiriladi (8.1-rasm). Sirtdan sochilib ketgan sekin elektronlar elektrometrga ulangan siljuvchi kollektor yordamida yig'iladi. Difraksion manzarani olish kollektorning burlish burchagiga bog'liq ravishda kollektor tokini o'lchashdan iborat bo'ladi. Keyin dastaning energiyasi boshqa bo'lganda va kristallning yo'nalishi har xil bo'lganda c'lashshlar qaytariladi. Bu ishni tezlashtirish uchun kollektor tokini avtomatik ravishda yozib oladigan har xil usullar qo'llaniladi. Ba'zi usullarda sochilgan elektronlar tezlantiriladi va difraksion manzara bevosita luminessent ekranدا kuzatiladi.

Tajribadan ma'lumki, 50 eV energiyali sochilgan elektronlarning 75% i tekshirilayotgan moddaning yuqorigi qatlami atomlari tomonidan chiqariladi. Demak, difraksion manzara kristall sirtini, tuzilmasini tavsiflaydi.

«Sekin» elektronlar difraksiyasi yordamida germaniy va kreminiyning yuqori temperaturali qizdirish va boshqa usullar bilan olingan sirtlari o'r ganilgan.




8.1-rasm.

## 8.4. Yarimo'tkazgichlar atomar toza sirtining fizik xossalari

### 8.4.1. Sirt o'tkazuvchanligi

Germaniyning atomar toza sirti ancha katta  $p$ -turdagi o'tkazuvchanlikka ega. Buning isboti sirda maydon effekti, vakuumda kristallni yorish usullari bo'yicha o'lchashlardan aniqlangan. Sirdagi o'tkazuvchanlikning yorib olingan sirt uchun qiymati ( $3,2 \cdot 10^{-4} \text{ Om}^{-1}$ ) bu kattalikning ionlar bombardimoni bilan tozalangan sirt uchun qiymatiga mos tushadi. Bu tozalikning yetarlicha yuqori ekanligini ko'rsatadi. Toza sirda oksigenning adsorblanishi dastlabki bosqichida  $p$  o'tkazuvchanlikni biroz oshiradi, keyin esa namuna o'tkazuvchanligi pasayadi. Agar o'lchashlar oksigenning bosimi yetarlicha yuqori bo'lganda bajarilsa, u holda Ge ning sirt o'tkazuvchanligi eng kichik qiyamatigacha pasayib, so'ng yana orta boshlaydi. Minimumning borligi oksigen adsorblanishida sirt o'tkazuvchanligi  $p$ -turdan  $n$ -turga o'tganligini ko'rsatadi. O'tkazuvchanlik turi o'zgarishi maydon effekti harakatchanligi ishorasini o'zgartiradi.



8.2-rasm.

Sirtdagi o'tkazuvchanlik kattaligi bo'yicha fazoviy zaryad sohasidagi kovaklar ortiqcha zichligi qiymatini baholash mumkin ( $\sim 10^8 \text{ sm}^{-2}$ ). Germaniyning atomar toza sirtida sohalar egilishi (yuqoriga) shuncha kattaki, Fermi sathi valent sohaga kirib qoladi. Bu kovaklar gazining aynishi demakdir. Mazkur egilish sirt sathlarda ancha manfiy zaryad borligini bildiradi, ya'ni bu sathlar akseptorlar bo'ladi. Maydon effekti o'lchashlaridan ularning zichligi uchun  $10^{12} \text{ sm}^{-2}$ , ba'zan  $4 \cdot 10^{14} \text{ sm}^{-2}$  gacha qiymatlar borligi aniqlangan.

Kremniyning atomar toza sirti keyinroq o'rganila boshlagan, ammo bu tadqiqotlar ko'lami juda tez kengaygan va chuqurlashu boshlagan. Kremniyda olingan natijalar germaniydagidan ancha farq qilgan. Xususan, yorishdan hosil qilingan sirtli kremniy namunasining sirtdagi o'tkazuvchanligi  $n$ -tur ekan, shuningdek, atomar toza sirtli kremniy asosidagi  $p-n-p$  tranzistor tuzilmalarida inversion qatlamlari kuzatilmagan.

Sirtdagi sathlar zichligi juda katta bo'lgani uchun maydon effektini o'lchash ancha qiyin. Kremniyning sirt o'tkazuvchanligi sirtga oksigen adsorblanganda, Ge dagiga nisbatan ancha kam o'zgaradi.

#### **8.4.2. Atomar toza sirtdan chiqish ishini o'lchashlar**

Avval (8.2-§ da) aytib o'tilgan uchta usul bilan olingan germaniy kristallari uchun chiqish ishi  $W$  ning qiymati bir-biriga yaqin ( $W=4,66-4,80 \text{ eV}$ ).

$n$ - va  $p$ -turdagi kristallar uchun  $W$  ning farqi kam. Bu effekt germaniyda ham, kremniyda ham kuzatilgan. Bu effekt talqini shuki,  $n$ -tur va  $p$ -turdagi kristallar sirtida katta zichlikdagi energiya sathlari mavjud bo'lib, sohalar egilishi o'zgorganida ularning to'ldirilganligi kuchli darajada o'zgaradi. Haqiqatan, chiqish ishi Fermi sathi vaziyatiga ham, potensial to'siq kattaligiga ham, sathlar to'ldirilganligiga ham bog'liq.

Kirishmalar kiritishda (legirlashda) sirtdagi sathlarga nisbatan Fermi sathi vaziyati va sirdagi zaryad miqdori o'zgaradi, natijadan sirt yaqinida sohalar egilishi ham o'zgaradi. Sohalar egilishining bu o'zgarishi  $n$ - va  $p$ -turdagi kristallarning ham Fermi sathi vaziyati farqini ko'rsatadi.

### **8.4.3. Atomar toza sirtda harakatchanlik va rekombinatsiya tezligi**

Fazoviy zaryad sohasida zaryad tashuvchilar harakatchanligi atomar toza sirtli germaniyning yupqa namunalarida Xoll effektini o'lhash orqali aniqlanadi. Bunda kovaklar harakatchanligi  $\sim 600 \text{ sm}^2 / \text{V} \cdot \text{s}$  ga teng bo'ladi. Oksigen adsorblana borgan sari sirt potensiali kamayadi, harakatchanlik esa ortadi.

Turli usullar bilan olingen atomar toza sirtlarda sirt rekombinatsiya tezligi juda kichik (yorib olingen germaniy sirtida  $100\text{--}300 \text{ sm/s}$ ). Ionlar bilan bombardimon qilingan sirt uchun  $s$  katta ( $\sim 10^4 \text{ sm/s}$ ). Bu qiymat kuydirish (qizdirish) natijasida kamayadi. Oksigen adsorblangan holda sirt rekombinatsiya tezligi ancha ortadi va  $10^3 \text{ sm/s}$  ga yetadi. Sirt sathlarining zichligi nihoyatda katta bo'lgan atomar toza sirtlarda  $s$  juda kichik bo'lgani sababi — sirt yaqinida baland potensial to'siqning borligi sirtdag'i rekombinatsiyani sekinlashtiradi.

Sirt potensiali juda katta bo'lganda sirt rekombinatsiyasi tezligi uchunchasi o'z ma'nosini yo'qotishi mumkin.

#### **? Savol va topshiriqlar**

1. Yarimo'tkazgich atomar toza sirtini qanday usullar bilan hosil qilish mumkin?
2. Atomar toza sirtni hosil qilish nimaga kerak?
3. Sirtning tozaligi qanday usullar bilan tekshiriladi?
4. Atomar toza sirtda sirt o'tkazuvchanligi tabiatini qanday?
5. Atomar toza sirtning fizik xossalalarini aytib bering.
6. Chiqish ishi qanday o'lchanadi?
7. Atomar toza sirtda zaryad tashuvchilar harakatchanligi xususiyatlari nimalardan iborat?
8. Atomar toza sirtda rekombinatsiya qanday kechadi?

## **IX BOB. YARIMO'TKAZGICHALAR SIRTI ENERGETIK TUZILISHINI TEKSHIRISH USULLARI**

Sirtning elektronlar energiya holati tuzilishini o'rganishning mukammal usullarini yaratish sirt fizikasining muhim vazifasidir. Quyida shunday usullarning bir nechtasini ko'rib chiqamiz.

### **9.1. Kanal-effekt**

Tekis (planar) triod (tranzistor) xarakteristikalari atrof-muhit o'zgarganida kuchli darajada o'zgarishi ma'lum. Bu  $p-n-p$  o'tishlar sirtida kanal hosil bo'lishi bilan bog'liq. Kanal—baza sirtidagi yupqa qatlam bo'lib, uning o'tkazuvchanligi turi hajmdagidan farq qiladi. Kanal emitterdan kollektorga tomon omik o'tish paydo qiladi va shu yo'sinda  $p-n-p$  o'tishni shuntlaydi.


Kanalning mavjud bo'lishi atrof-muhit molekulalarining adsorblanishida hosil bo'ladigan sohalarining kuchli egilishi sababli baza sirtida inversion qatlam yuzaga keladi.

$n-p-n$  o'tishda baza sirtida musbat zaryad ko'proq joylashib olganda kanal paydo bo'ladi (sohalar pastga egilgan). Bu sirda adsorblash vaqtida (masalan, suv adsorblanishida) donor sathlar hosil bo'lganida yuz beradi.


$p-n$  o'tishga berilgan teskari kuchlanish  $V_a$  ortib borganida kanalning o'tkazuvchanligi kamayib boradi,  $V_a$  yetarlicha katta bo'lib qolganida kanal o'tkazuvchanligi 0 ga teng, ya'ni kanal to'siladi. Sababi: yarimo'tkazgich kristali sirtidagi zaryad bazaning sirtga yaqin sohasidagi erkin zaryad tashuvchilar va ionlangan kirishmalar bilan neytrallanadi. Teskari kuchlanish ortganida  $p-n$  o'tish oshadi, shu bilan birga, o'tish sohasida ionlangan kirishmalar soni kattalashadi va endi sirt zaryadini neytrallash uchun kamroq erkin tashuvchilar kerak bo'ladi. Inversion qatlam hosil bo'lmaydi. Kanal to'siladi (9.1-rasm).

Kanalning o'tkazuvchanligi bo'yicha sirt potensialini, sirtdagি zaryadni va sirtdagи holatlar parametrlarini aniqlaydigan usul mavjud.

Tajribada kanal o'tkazuvchanligini o'lhash uchun 9.1- rasmdagi sxemadan foydalaniлади.  $p-n-p$  o'tishda kanalni tekshirishda, akseptor



**9.1-rasm.**



**9.2-rasm.**

turidagi (sirdagi zaryad manfiy) sirt sathlari hosil qiladigan gazlarni adsorblash qo'llaniladi. Eng qulayi – kislород. Uning (ayniqsa ozoning) atmosferasida germaniy va kremniy uchun kanal-effekt kuza tiladi.

Inversion qatlamlili sirtning energetik sxemasi 9.2-rasmida tasvirlangan. Inversion qatlam ( $p$ -soha) va  $n$ -turdag'i asosiy kristall orasiga  $V_a$  kuchlanish qo'yilgan. Kristall  $E_{Fp}$  va  $E_{Fn}$  ikki kvazisathlari bilan xarakterlanadi,  $(E_{Fp} - E_{Fn}) = V_a$ .

Sirt sathlaridagi zaryadni aniqlash uchun kattaligi unga teng va qarama-qarshi ishorali inversion qatlAMDagi hajmiy zaryad  $\tilde{Q}_{sc}$  ni hisobga olinishi lozim. Agar  $E_s$  kristall sirtidagi maydon bo'lsa, Gauss teoremasi bo'yicha

$$\tilde{Q}_{sc} = \frac{\epsilon}{4\pi} E_s \quad (9.1)$$

$E_s$  ni Puasson tenglamasidan aniqlanadi.

Germaniy va kremniyda kanal effektini o'lhashda «sekin» va «tez» sirt sathlari namoyon bo'ladi. Tajriba natijalarini nazariy hisob bilan taqqoslab «tez» va «sekin» sirt sathlari parametrlarini topish mumkin. Sirt sathlarining kanal-effekti va maydon effekti asosida aniqlangan energetik vaziyatlari va zichliklari bir-biriga yaqin.

## 9.2. Sohalar egilishi $Y_s$ ni aniqlash usullari

### 9.2.1. $\bar{Y}_s$ ni maydon effekti va kontakt potensialini bir vaqtida o'lhashdan aniqlash


Yarimo'tkazgich sirtiga sluda orqali yetarlicha kuchli, taxminan  $(2-7) \cdot 10^5$  V/sm elektrik maydon 1-2 minut qo'yiladi. Maydon uzilishidan so'ng sluda bilan metall elektrod tezda chetlashtiriladi. Tekshirilayotgan sirtga titrlovchi platina elektrod yaqinlashtriladi. Bir vaqtida o'tkazuvchanlikning pasayishi kontakt potensiallar  $\Delta V_k$  ayirmasining vaqt bo'yicha o'zgarishi o'lchanadi. Bunday o'lhashlar natijalari 9.3-rasmda tasvirlangan.

Bu holda

$$\Delta V_k = \Delta Y_s + \Delta V_{ok} + \Delta V_{dm} \quad (9.2)$$

bu yerda,  $\Delta Y_s$  — sohalar egilishi o'zgarishi;  $\Delta \bar{Y}_{ok}$  — sirdagi oksid qatlamida potensial tushishi o'zgarishi;  $\Delta \bar{Y}_{dm}$  — adsorblangan molekulalar dipollari qatlamida potensial tushishi.

$\Delta \sigma_s = f(\Delta V_k)$  ni turli dipolli har xil gazlar atmosferasida o'lchan ganda amalda hamma egri chiziqlar mos tushadi. Demak,  $\Delta V_{dm}$  kichik ekan. Xususiy o'tkazuvchanlikli germaniy uchun  $T = 300$  K, oksid qatlam qalinligi  $\approx 40$  Å,  $\epsilon_{ok} = 4$  bo'lganda  $Y_s = 7kT$ . Bundan  $\Delta V_{ok} \approx 0,4kT$ ,  $Y_s = 5kT$  bo'lganda,  $\Delta V_{ok} \approx 0,1kT$  kelib chiqadi.



9.3-rasm.

Ma'lumki,  $Y_s$  kamaygan sayin  $V_{ok}$  ham kamayadi. Shuning uchun  $Y_s < 5kT$  bo'lganida  $\Delta V_{ok}$  juda kichik va (9.2) da uni hisobga olmaslik mumkin. Shunday qilib,  $\Delta\sigma_s = f(\Delta V_k) = f(\Delta Y_s)$  bo'ladi. Tajriba natijasi asosida bu egrini chiziqni chizib, nazariy bog'lanishlar bilan taqqoslanadi va  $Y_s$  aniqlab olinadi.

### 9.2.2. $Y_s$ ni ikki kristall kontakt potensiallarini taqqoslashdan aniqlash

Bu usul quyidagicha. Sohalar egilishi ma'lum bo'lgan namunanining va tekshirilayotgan kristallning kontakt potensialari ( $V_k$  va  $V_x$ ) o'chanadi. O'chanlar titrash (vibratsion) usulida olib boriladi.

$$V_k - V_x = \Delta\bar{V} = +\Delta\bar{E}_{F0} - \Delta V_{din} + \Delta\chi_0 + \Delta V_{ok}, \quad (9.3)$$

bunda,  $E_{F0} = \frac{kT}{e} \ln \frac{P_0}{n_i}$  hajmda Fermi sathi vaziyati,  $\chi_0$  — tashqi chiqish ishi. Baholashning ko'rsatishicha,  $\Delta V_{din}$ ,  $\Delta\chi_0$ ,  $\Delta V_{ok}$  hadlar kichik bo'lganligi sababli (9.3) da tashlab yuborish mumkin. U holda

$$V_k - V_x = +\Delta E_m - (Y_r - Y_0). \quad (9.4)$$

Darajalangan namuna uchun sohalar egilishi ( $Y_0$ ) va ikkala namuna uchun hajmda Fermi sathi vaziyatlari ma'lum bo'lsa  $Y_x$  ni aniqlash oson.

### **9.2.3. $\bar{Y}_s$ ning chiqish ishi va tashqi fotoeffekt chegarasini hir vaqtda o'lchashdan aniqlash**

Agar chiqish ishi  $W$  ni va tashqi fotoeffektning qizil chegarasiga mos keladigan foton energiyasi  $\chi$  o'lchansa, u holda bu kattaliklar orasidagi farq  $W - \chi$  ushbu  $Y_s + E_{F0}$  yig'indini aniqlaydi ( $E_{F0}$  – hajmda Fermi sathi). Agar  $E_{F0}$  ma'lum bo'lsa, unda  $\bar{Y}_s$  ni aniqlash oson. Atomar toza sirt uchun  $\chi < W$ . Bu esa sirtda aynish holati borligini ko'rsatadi.

### **9.2.4. $Y_s$ ni erkin zaryad tashuvchilarining yorug'lik yutishi bo'yicha aniqlash**

Bu usulda erkin zaryad tashuvchilarining (E.Z.T.) infraqizil (IQ) nurlanishni sirt yaqinida yutishi natijasida sirt potensialining o'zgarishi aniqlanadi. Ma'lumki, agar yarimo'tkazgichda sohalardan biri  $n$  karra aynigan bo'lsa, tegishli spektral oraliqda yorug'lik yutilganda zaryad tashuvchilar sohaning bir tarmog'idan ikkinchisiga o'tishi mumkin. Darhaqiqat, germaniy va kremniyda valent sohada ikki karra aynish bor, ya'ni unda og'ir va yengil kovaklar tarmoqlari mavjud.

IQ yorug'likni yutib erkin kovaklar bir tarmoqdan ikkinchi tarmoqqa o'tadi. Tajriba germaniy uchun bu hodisa 3,4, 4,7 va 20 mkm IQ yorug'lik yutilganida kuzatilgan.

Agar IQ yorug'lik sirt yaqinida yutilsa, bu holda yutilishning o'zgarishi bo'yicha sohalar egilishi kattaligi o'zgarishi  $\Delta Y_s$  ni aniqlash mumkin. Bu tajribaning qiyinchiligi shundaki, sirt sust yutiluvchi Iq yorug'lik bilan yoritilishi kerak va o'sha vaqtda shu yorug'lik sirt yaqinidagi sohada yutilishi lozim. Bu shartlarni bajarish uchun kristall sirtiga parallel ravishda va yupqa qatlamdan nur o'tkaziladi; bunda sirtdan to'la ichki qaytish hodisasidan foydalaniladi. Tavsiflangan usul  $Y_s$  to'g'risida ma'lumot beradi.

### 9.3. Sirdagi foto-EYK ni o'rganish

Kondensator fotoeffektini tekshirish yarimo'tkazgichda sirt yaqinida sohalar egilishi haqida ma'lumot beradi. Kristallni kuchli yutiladigan yorug'lik bilan yoritganda kovakli foto'tkazuvchanlik o'rini bo'lgan holda kondensator foto-EYK

$$E = \frac{L^*}{1 + \exp(-Y_s)}, \quad (9.5),$$

bunda  $L^*$  — yoritilish amplitudasiga proporsional kattalik.  $Y_s > 0$  (sohalar berkituvchi egilishi) bo'lganda effekt  $Y_s$  bilan birga ortib boradi ( $m_0 \Sigma_{\max} = L^*$  gacha).  $Y_s > 0$  bo'lganda effekt  $Y_s$  o'sgan sari oshib boradi. Biqutbli foto'tkazuvchanlik holida foto-EYK ishorasini sohalar egilishi yo'nalishi orqali aniqlash mumkin.

Kondensator foto-EYK o'lchashlaridan sirt potensial to'siq balandligini aniqlash mumkin. Tekshirish olib borishda ehtiyot bo'lish kerak. Chunki, tajribada o'lchanadigan kondensator foto-EYK o'ziga yana diffuzion tarkiblovchini, shuningdek, hajmiy foto-EYK ni olishi mumkin.


### 9.4. Maydon effektining luminessent usuli

Bu usul luminessent kristallar sirtini o'rganishda foydali hisoblanadi. Birinchi marta luminessent effekt Cu<sub>2</sub>O va CdS da oshkor qilingan.

Agar namunani kuchli yutiladigan yorug'lik bilan yoritilsa va uning yoritilayotgan sirtiga kondensator orqali kuchli elektr maydon berilsa, bu holda luminessensiya intensivligi (oqimi) o'zgarishi kuataladi. Maydon elektrodida potensialning ishorasiga bog'liq ravishda luminessensiya yo o'chadi, yo kuchayadi. Luminessensiya intensivligining  $\Delta I/I_0$  o'zgarishi, maydon  $\sim 5 \cdot 10^5$  V/sm bo'lganda 50–60% ni tashkil qiladi. Luminessessiyaning o'chishi maydon asosiy zaryad tashuvchilar uchun berkituvchi sohalar egilishi hosil qilganda, kuchayishi esa antiberkituvchi egilganida yuz beradi.

Bu hodisaning ikki sababi bor:

1. Eksitonlarning nurli parchalanishi yoki nurli rekombinatsiya sharoitining (ekranlash chuqurligida luminessensiya uchun javobgar kirishma sathlarining to'ldirilganligi o'zgarishi oqibatida) o'zgarishi natijasida luminessensiya intensivligi o'zgaradi.



**9.4-rasm.**

2. Bevosita kristall sirtida eksitonlar parchalanishi yoki rekombinatsiya sharoiti o'zgarganda sirt elektron holatlar to'l-dirilganligi o'zgaradi. Bu ham luminessensiya intensivligini o'zgartiradi. Sezilarli luminessent maydon effekti sirt sathlarida bevosita eksitonlar parchalanishi sharoiti o'zgarishi bilan bog'liq.

Mazkur effektning chastotaviy bog'lanishi ham muhim sirtga 100–3000 Hz oraliqdagagi chastotali o'zgaruvchan kuchlanish berilganda chastota pasayishi bilan effekt kuchayadi. Luminessent effektning ortishi sababi mazkur chastotalarda sirtdagи sathlarda eksitonlar parchalanishi shartlarining o'zgarishidir.

$$Y_s = f(V) \text{ va } (\Delta I/I_0) = \varphi(V) \text{ bog'lanishlardan } V \text{ ni chiqarib tashlab,} \\ (\Delta I/I_0) = f_1(Y_s) \quad (9.6)$$

bog'lanish hosil qilinadi. Shunday egri chiziq 9.4-rasmda tasvirlangan.

Umumiy holda luminessent effektning  $Y_s$  ga bog'lanishi murakkab, ammo bir necha xususiy hollarda ( $Y_s < 1 \text{ kT}$ , antiberkitish egilishi,  $Y_s > 10 \text{ kT}$ ) mazkur bog'lanish aniqlangan. Xulosa shuki, maydon luminessent effekti usuli asosida agar (9.6) bog'lanish ma'lum bo'lsa sirtdagи sathlarning parametrlarini aniqlash mumkin.

### 9.5. Sig'im maydon effekti usuli

Sirdagi potensial o'zgorganida fazoviy zaryadning o'zgarishini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$C_s = \beta \frac{dQ_{sc}}{dY_e}. \quad (9.7)$$

Kristall sirtida boyitilgan qatlam hosil bo'lganida sirt potensiali o'sib borganda, undagi sig'im ham ortadi.

Kristall sirtida siyraklashtirilgan qatlam hosil bo'lganida hajmiy zaryadni ionlangan kirishmalar tashkil qiladi. Bunday qatlam berkituvchi qatlam deyiladi. Hajmiy zaryad kristall ichkarisiga tortiladi, shuning uchun sirt sig'imi kamayadi.

Inversion qatlamlar hosil bo'lganda hajmiy zaryad qatlami kengligi kichik bo'ladi. Shunday qilib, sirdagi sig'imning sohalar egilishiga bog'lanishi minimumga ega bo'ladi (9.5-rasm).

Tajribada bu bog'lanishni topish uchun kondensator sirtidagi potensial kattaligi hosil qilinadi. Undagi kuchlanish doimiy bo'lgani holda metall-dielektrik-yarimo'tkazgich tizimining impedansi (qarshiligi) o'chanadi.

Boyitilgan qatlamning sig'imi kattaligini asosiy zaryad tashuvchilar harakati ko'rsatadi. Shuning uchun u o'zgaruvchan kuchlanish bilan birga o'zgarib boradi. Bunday o'zgarish chegarasi ushbu

$$\frac{2\pi}{\omega} \gg \frac{\epsilon}{\sigma_0} \quad (9.8)$$

shart orqali aniqlanadi. Bu yerda  $\sigma_0$  – o'tkazuvchanlik. (9.8) tengsizlik deyarli hamma foydalanadigan chastotalar uchun bajariladi. Inversion qatlam sohasidagi  $Q$ , zaryadning va sirt holatlaridagi  $Q_{ss}$  zaryadning o'zgarish tezligi uncha katta emas. Uni noasosiy zaryad tashuvchilarining hajmda vujudga kelishi jarayonlari, shuningdek, sirt sathlari va sohalar orasida zaryad tashuvchilar almashinuvি jarayonlari orqali aniqlanadi. Bunda sirt sig'imi chastotaga bog'liq.

Yuqori chastotalarda  $Q$  va  $Q_{ss}$  zaryadlar o'zgaruvchan kuchlanishga yeta olmaydi. Bu holda yarimo'tkazgichning sirt sohasining sodda ekvivalent sxemasi ko'rinishida tasvirlanishi mumkin, bunda  $C_0$  – dielektrikning sig'imi,  $C_{sc}$  – fazoviy zaryad qatlami sig'imi,  $R$  – yarimo'tkazgichning qarshiligi. Demak, umumiy sig'imi

$$C^\infty = \frac{C_{sc} \cdot C_0}{C_{sc} + C_0} \quad (9.9)$$

kondensatorda doimiy kuchlanish turlicha bo'lganda sirt sig'imi o'chanash sirt sathlari parametrlarini aniqlashga yordam beradi.

Qaralayotgan tizimning sig‘imini katta sirt potensiallaridan kichigi yordamida aniqlanadi. Shunday qilib, katta musbat kuchlanish berib,  $n$ -tur yarimo‘tkazgichlar yoki katta manfiy kuchlanishlar berib,  $p$ -tur yarimo‘tkazgich uchun  $C_0$  qiymati aniqlanadi. Katta chastotalarda tizim sig‘imini ( $C_0$  ni) o‘lchab, (9.9) ifodadan  $C_{ss}$  hisoblab olinadi. O‘z navbatida,  $C_{ss}$  sig‘im sohalar egilishi  $Y_s$  ga bog‘liq bo‘lganligi uchun endi  $Y_s$  ni aniqlash mumkin. Metall elektrodda maydon hosil qilgan umumiy zaryad  $Q_{um} = C_0 V$  ma’lum,  $Q_{ss}(V) - Q_{sc}(Y_s) = Q_{ss}(Y_s)$  ayrima sirt sathlaridagi zaryadni  $Y_s$  funksiyasi sifatida aniqlashga yordam beradi. Bu egri chiziqdan sirt sathlarining parametrlari topiladi.

### ?

### Savol va topshiriqlar

1. Kanal effekti deb qanday hodisaga aytildi?
2. Sohalar egilishi  $Y_s$  ni aniqlashning qanday usullari bor?
3.  $Y_s$  ni maydon effekti va kontakt potensialini bir vaqtda o‘lchash orqali topish mumkinmi?
4.  $Y_s$  ni chiqish ishi va tashqi fotoeffekt chegarasini o‘lchash qanday amalga oshiriladi?
5. Sirtda yorug‘lik yutilishi bo‘yicha  $\bar{r}_s$  ni aniqlash mumkinmi? Sababini tushuntiring.
6.  $\bar{r}_s$  ni aniqlashda foto-EYK ning ahamiyati nimada?
7. Luminessensiya hodisasi  $Y_s$  ni topishga yordam beradimi?
8. Elektr sig‘imning maydon effekti sohalar egilishini topishga qanday yordam beradi?

## **X BOB. YARIMO'TKAZGICHLI ASBOBLAR ISHLASHIGA SIRTING TA'SIRI**

### **10.1. Sirt holatiga bog'liq bo'lgan yarimo'tkazgichli asboblarning parametrlari**

Yarimo'tkazgichli asboblarning elektr parametrlari ko'p hollarda kristallning sirt xossalariiga bog'liq. Yarimo'tkazgich qurilmalarning kamchiligi shu asboblar sirtining beqarorligi va standart emasligi bilan bog'langan.

*Yarimo'tkazgichli asboblar ishi beqarorligining asosiy sababi namlikdir.* Ma'lumki, kristall sirti oksid amorf parda bilan qoplangan, ummo u sirtni namdan yaxshi himoya qila olmaydi.

Yarimo'tkazgichli asboblar parametrlari sirtining tozaligiga bog'liq. Kristall sirtidagi keraksiz kirishmalar va boshqa yot unsurlarni bartaraf qilish sirtni tozalashda toza kimyoiy moddalar ishlataladi. Ular sirdagi nazorat qilinmaydigan moddalar miqdorini kamaytiradi. Na, K, Ca va boshqa elementlar ionlarini tozalangan (distillangan) suvda yuvib ketkaziladi. Kristall hajmidan sirtga diffuziyalanadigan moddalarni (Cu, Al, Fe va boshqalar) sirtdan uzoqlashtirish uchun germaniy va kremniyli organik moddalarda ishlovdan o'tkazish kerak.

Yarimo'tkazgichli asboblar parametrlariga sirtning ta'siri quyidagi effektlarda namoyon bo'ladi:

- 1) *p-n-p* o'tishda kanal bo'lgan holda sirt potensialining kattaligi sevilarli darajada yassi tranzistorning kollektori teskari tokini aniqlaydi;
- 2) *p-n-o*'tishda teskari tokning, shuningdek, kollektor tokining (sirt yaqinida o'tishning kuchli maydonida zaryad tashuvchilar ko'payishi bilan bog'langan) dreyfi ham kuzatiladi;
- 3) teshilish kuchlanishi kollektor yaqinidagi sohaning sirdagi potensialiga bog'liq va hajmda teshilish kuchlanishidan ancha kichik bo'lishi mumkin;
- 4) sirt potensiali o'zgarganda sirt rekombinatsiyasi tezligining o'zgarishi bilan bog'liq ravishda yarimo'tkazgichli tranzistorning tokni o'tish koefitsiyenti dreyfi yuz beradi;

5) tranzistor impuls rejimda ishlaganda tranzistorning «to'kilish» effekti kuzatiladi. Bunda asbob past chastotalarda ishga tushmaydi. Bundan tashqari, qisqa impulslarda sirt teshilish effekti ham kuzatiladi;

6) yarimo'tkazgichli qurilmalarning  $1/f$  shovqinlari sirtga ishlov berilishiga bog'liq bo'ladi;

7) fotodiodlar va fototranzistorlarning qisqa to'lqinlar sohasidagi spektral xarakteristikalari qiyofasi sirdagi rekombinatsiyasi orqali aniqlanadi.

## 10.2. Sirdagi kanallar va sirt teshilishi

$p-n-o'$ tishning teskari toki, ma'lumki,  $p-n-o'$ tishdan diffuzion siljish uzunligidan katta bo'lмаган masofada elektron-kvant justlar generatsiyasi (vujudga kelishi) bilan aniqlanadi. Biroq suv bug'lari va boshqalar atmosferasida  $p-n-o'$ tishning teskari toki Shokli nazariyasi qiyamatidan ancha katta ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu ortiqcha toklar  $p-n-o'$ tish yaqinidagi sirtda kanallar hosil bo'lishi bilan bog'liqidir.


10.1- rasmida sirtda kanal yo'qligi (*a*) va kanal borligi (*b*) hollarida  $p-n-o'$ tishning hajmiy zaryad sohasi ko'rsatilgan. Tabiiyki,  $p-n-o'$ tish yuzasining kattalashishi o'tish orqali teskari tokni ko'paytiradi, ya'ni ortiqcha tok hosil qiladi.

Tajribadan ma'lumki, ortiqcha tokning kattaligi kanal uzunligiga to'g'ri proporsional va  $p-n-o'$ tishga qo'yilgan kuchlanish bilan logarifmik qonun bo'yicha o'zgaradi.

Ortiqcha  $i_k$ -to'la tokning kattaligi

$$i_k = j_k l \quad (10.1)$$

ko'rinishda ifodalanadi, bunda  $j_k$  — kanalning bir birlik uzunligiga to'g'ri kelgan ortiqcha tok,  $l$  — uzunligi.



10.1-rasm.

Kanal boshlangan joydan  $x$  masofada

$$i_k = j_k(l - X). \quad (10.2)$$

Agar  $x$  masofada kuchlanish tushishi  $U(x)$  bo'lsa, inversion qatlam  $R_x$  qarshiligi  $U(x)$  ga proporsional, ya'ni

$$R_x = AU(x) \quad (10.3)$$

bunda  $A$  – atrof-muhitga bog'liq koeffitsiyent.  $x$  kesim uchun

$$\frac{du}{dx} = -R_x i_x = AU_x(l - x) \quad (10.4)$$

tenglamani yozish mumkin. Bu tenglamani integrallasak

$$\int \frac{du}{u} = -Aj_k \int_0^l (l - x) dx;$$

$$\ln(U_l/U_0) = Aj_x(l/2), \quad (10.5)$$

bundan

$$I = \sqrt{\left(2 \ln \frac{U_l}{U_0} / Aj_x\right)},$$

$$i_k = i_k I = \sqrt{\frac{2 j_k}{A} \ln(U_l/I_0)}, \quad (10.6)$$

$U_l$  – kanal oxiridagi kuchlanish,  $I_0$  – berilgan kuchlanish.

Yuqori omli materiallarda kanallar oson hosil bo'ladi, chunki bu holda inversion qatlam hosil bo'lishi uchun qiyosan kichik sohalar engilishi kifoya.

Agar asbobning sohalari bir-biriga yaqin qarshilikka ega bo'lsa, atrof-muhit o'zgarganda, masalan, nam atmosferadan quruq kislorodga o'tilganda dastlab  $p$ -sohada, keyin esa  $n$ -sohada kanal paydo bo'lishi mumkin.  $p$ -materialda kanallar oson hosil bo'ladi va  $n$ -materialdagiga nisbatan barqarorroq bo'ladi.

$p$ - $n$ -o'tishdagi kuchlanish muayyan kritik qiymatdan oshganda o'tishning teskari toki keskin ko'payadi va teshilish hodisasi kuzatiladi. Teshilish kuchlanishining hajmdagiga nisbatan pasayishi sababi: sirt yaqinida  $p$ - $n$ -o'tish sohasining torayishi bo'ladi, o'tish ichida maydon kattalashadi. Bu holda sirtga yaqin sohada zaryad tashuvchilarining ko'chkisimon ko'payib ketishiga sharoit paydo bo'ladi. Bu effekt bilan  $p$ - $n$ -o'tishning teskari toki dreyfi ham bog'langan.

Sirtga yaqin soha zaryad tashuvchilarning ko‘payishi tranzistorning impuls rejimida ishlash sharoitini o‘zgartirib yuboradi.

### 10.3. Tokni uzatish koefitsiyentiga sirdagi holatlar ta’siri

Tranzistorning umumiy bazali sxemasida tokni uzatish koefitsiyenti  $\alpha$  ni va umumiy emitterli sxemasida tok bo‘yicha kuchaytirish koefitsiyenti  $\beta = \frac{\alpha}{(1-\alpha)}$  ni baza sohasida rekombinatsiya orqali aniqlanadi. Bazada zaryad tashuvchilar yashash vaqt qancha kichik bo‘lsa, bazaga kiritilgan tashuvchilarning shuncha katta qismi rekombinatsiyalanadi. Demak, ular kollektorga yetib bormaydi,  $\alpha$  uzatish koefitsiyenti kamayadi.  $\alpha$  hajmdagi rekombinatsiya sur’atiga ham, sirdagi rekombinatsiya  $s$  tezligiga ham bog‘liq.

$\alpha$  ning  $s$  ga bog‘liqlik ifodasi:

$$\alpha = 1 - \frac{\sigma_b \omega}{\sigma_e L_e} - \frac{s C_k w}{S_k D_p} - \frac{w^2}{2 L_b^2}, \quad (10.7)$$

bunda,  $w$  — baza kengligi,  $\sigma_b$  va  $\sigma_e$  — mos ravishda baza va emitter o‘tkazuvchanligi,  $L_b$  va  $L_e$  — baza va emitterda diffuziya uzunligi,  $S_k$  — ko‘ndalang kesim yuzi,  $C_k$  — rekombinatsiya effektiv sirti.

$\alpha$  bilan  $s$  orasidagi bog‘lanish kuzatiladigan  $\sigma$  ning uzun to‘lqinli dreyfi effektini aniqlaydi.  $\alpha$  ning dreyfi emitter toki keskin o‘zarganda (tok dreyfi) tranzistor temperaturasi o‘zgarganda (temperaturaviy dreyf) kuzatiladi. Ikki effekt ham sirt holatiga bog‘liq. Injeksiya sathi (emitter toki) o‘zgorganida tokni uzatish koefitsiyenti  $\alpha$  o‘zining qandaydir statsionar qiymatigacha sekin o‘zgaradi. U sirtning ishloviga bog‘liq. Darvoqe, injeksiya sathi o‘zgorganida sirdagi holatlarga ushlab olingan zaryad, demak, sirdagi potensial sekin o‘zgaradi. Bu esa  $s$  ni o‘zgartiradi,  $s$  ning o‘zgarishi  $\alpha$  ga ta’sir qiladi. Dreyf vaqt «sekin» sirdagi holatlar relaksatsiya vaqt tartibida bo‘ladi. Agar sirt tuzoqlarini (sathlarni), bazani emitter yaqinida kuchli yutiladigan yorug‘lik bilan yoritib, to‘ldirilsa, bu holda tok bo‘yicha kuchaytirish ancha katta bo‘ladi.

Tok bo‘yicha kuchaytirish koefitsiyentining temperaturaviy dreyfining bir necha xili bor:

1. Agar tranzistorni uzoq vaqt xona temperaturasidan yuqori temperaturada tutib turilsa, bu holda  $\alpha$  va  $\beta$  ning sekin kamayib

borishi kuzatiladi. Bu effekt yarimo'tkazgich (masalan, Ge) sirtining oksidlanish jarayoniga bog'liq. Bunda  $\alpha$  va  $\beta$  o'zgarmaydi.

2. Tranzistorni xona temperaturasiga yuqori temperaturali holatdan sovitganda  $\alpha$  va  $\beta$  parametrlarning kamayishi kuzatiladi. Xona temperaturasida tranzistorlar saqlanganda  $\alpha$  va  $\beta$  sekin ortib, 5–10 kecha-kunduzdan so'ng statsionar qiymatga erishadi. Jarayon qaytar va u shunday tushuntiriladi: qizdirganda oksid qatlidan namlik tranzistor ichiga kiradi. Tranzistor sovitila boshlanganda oksid qatlam namlanadi, uning tezligini oksid parda qalinligi orqali aniqlanadi va u namlik chiqishdag'i (degidratatsiyadagi) tezlikdan ancha kichik bo'ladi. Bu jarayon  $\alpha$  va  $\beta$  ning sekin dreysmi tushuntiradi.

3. «48 soatli effekt» ham oksid qatlama namlik ko'chishi bilan bog'liq. Agar  $p-n-p$  tranzistorni yuqori ( $100^\circ C$  chamasidagi) temperaturada biror vaqt tutib turilsa, keyin xona temperaturasigacha sovitilsa,  $\alpha$  va  $\beta$  vaqt bilan sekin o'zgaradi. Bunda parametrlarning statsionar qiymatiga 48 soat o'tgandan keyin erishiladi. Temperaturaviy dreys vaqt oldingi holdagidek, ammo effektning ishorasi teskari. Bu effekt qaytar effekt.  $\alpha$  va  $\beta$  ning pasayish vaqt oksid qatlami qalinligiga bog'liq emas.

#### 10.4. 1/ $f$ shovqinlar

Kremniy va germaniyadan tayyorlanadigan yarimo'tkazgichli qurilmalarning ortiqcha shovqini bor. Uning spektri 1/ $f$  qonuniga bo'y-sunadi. 1/ $f$  shovqin yetarlicha katta chastotalar oralig'ini egallaydi. Ipsimon Ge namunasi uchun 1/ $f$  qonun  $2,5 \cdot 10^{-4}$  Hz dan 1 MHz gacha oralidagi chastotalar sohasida qoniqarli bajariladi. Bu shovqinlar temperaturaga kuchsiz bog'langan bo'lib, kristall sirti holatiga bog'liq bo'ladi. Ular sirning ishlovi va atrof atmosferasiga juda sezgir. Masa-lan,  $p-n-o'$ tishni suv bug'lari atmosferasiga joylansa, 1/ $f$  shovqinlar bir necha tartibga ortib ketadi.

Mazkur shovqinlarni kamaytirish maqsadida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Sirt o'tkazuvchanlik minimumiga mos bo'lgan sirt potensiali qiymatlari sohasida sohalar ancha egilishi sirt o'tkazuvchanlikka kuchsiz ta'sir qiladigan holda 1/ $f$  shovqinlar juda kam bo'ladi. Kuchsiz shovqinlar s( $Y_s$ ) bog'lanish maksimumiga mos  $Y_s$  lar sohasida ham kuzatilishi mumkin. Boyitilgan qatlidan inversion qatlamga o'tganda shovqinning ancha ortib ketishi kuzatilgan.

## **10.5. Yarimo'tkazgich asboblar sirtini barqarorlash**

Tranzistorlarni tok bo'yicha kuchaytirish koefitsiyenti yuqori bo'lishi uchun bazaning sirti mumkin bo'lganicha, kichik sirt rekombinatsiyasi tezligiga ( $s$ ) ega bo'lishi kerak. Sirt potensial kattaligi uncha katta bo'lmasligi lozim, chunki sirtda inversion qatlamlarda kanallar hosil bo'ladi, kuchli darajada jamg'aruvchi qatlamlar holida esa teshilish kuchlanishi pasayadi.

Asosiy talab – kristall sirtini ataylab oksidlab qalin va mustahkam himoyalovchi oksid pardasi hosil qilishdir. Bu usul kremniy asosidagi asboblar tayyorlashda ayniqa samaralidir. Kremniya kislorod oqimida yuqori temperaturali ishlov berib, uning sirtida mustahkam kremniy oksidi  $\text{SiO}_2$  pardasi hosil qilinadi. Uning qalinligi 500 Å dan 1 mkm gacha. Parda sirtni keyingi oksidlashdan saqlaydi. Bunday qoplamli asbob atrof-muhitdag'i o'zgarishlarni sezmaydi.

Sirtni asbobni tayyorlashdan oldin oksidlasa yaxshi bo'ladi. Ammo asbob tayyorlangandan keyin ham uni oksid parda bilan qoplasa bo'ladi. Buning uchun past temperaturalda tayyor asbob sirtida oksid parda olish uchun namunani ozon atmosferasida qizdirish yoki xona temperaturalasida suvsiz eritmada anodli oksidlash usullaridan foydalaniladi.

Yarimo'tkazgichli asboblar va integral mikrosxemalarni planar texnologiya bo'yicha tayyorlashda himoyaviy dielektrik pardalar (qatlamchalar) katta rol o'ynaydi.

Kimoyaviy dielektrik pardalarga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi: boshlang'ich taglik sirtiga diffuziyalanuvchi elementlarning (bor, surma, arseniy va b.) kirishini to'la himoyalash; vaqt o'tishi bilan kimyoviy barqarorlik va turg'unlik; bir jinslilik va nuqsonsizlik; yuqori solishtirma qarshilik va elektr mustahkamlik; yuqori mexanik mustahkamlik talablari qo'yiladi. Albatta bu talablarni to'la bajaradigan moddani topish qiyin. Biroq, ma'lum talablarga javob beradigan moddalar mavjud.

### **10.5.1. Kremniyni termik oksidlash.**

### **10.5.2. Suv bug'ida kremniyni termik oksidlash**

Bunda boshlang'ich kremniy (Si) taglikda oksidlovchi muhitda qizdirish natijasida himoyaviy dielektrik  $\text{SiO}_2$  pardasi hosil qilinadi. Bu usul qalinligi va tuzilishi bo'yicha tekis hamda yuqori himoyaviy

va dielektrik xossaga ega bo'lgan sifatli niqoblovchi parda olish imkoniyatini beradi.

Kremniy sirtida yuqori tozalikdagi ( $p \sim 10-20 \text{ mOm}\cdot\text{sm}$ ) himoyaviy dielektrik parda olish uchun suv bug'ida oksidlashda foydalaniлади. Bug' miqdori reaksiya tezligini chegaralamagan holda yuqori temperaturada kerakli reaksiyalar yuz beradi. Suv bug'i parsial bosimini saqlash uchun kremniy plastinkalar sirtida suvni qizdirib turish kerak. Oksid pardasining shakllanishi kremniy sirtiga oksid qatlam orqali suvning diffuzion ko'chishi hisobiga bo'ladi. Albatta oksid qatlamning o'sish tezligi taglikning yo'naliishiga, elektr o'tkazuvchanlik turiga va taglikdagi kirishmalar zichligiga ham bog'liq.


Oksidlanish jarayoni  $1100^\circ \text{C}$  dan yuqorida oksid qatlamning  $x$  qalinligi vaqtida parabolik  $x^2 = Bt$  qonun bo'yicha,  $1100^\circ \text{C}$  dan pastda esa  $x_2 + b_1x = b_2 t$  qonun bo'yicha o'sadi. Oksidlanish temperaturasi qancha kichik bo'lsa, oksid qatlam o'sish qonuni chiziqlikka shuncha yaqin bo'ladi. Bu hol  $500-800^\circ \text{C}$  da yuqori bosimli suv bug'i atmosferasida oksidlashda kuzatiladi.

#### 10.5.3. Quruq kislород мухитида кремниини термик оксидлаш

Bu usul yuqori temperaturada o'tkaziladi. Bunda hosil bo'lgan parda yuqori sifatli niqob xossasiga ega bo'ladi. Kremniy-oksid chegarasida bog'langan zaryadlar kam bo'lishini ta'minlaydi.

Atmosfera bosimida oksidlash jarayonining temperaturasi  $850-1200^\circ \text{C}$  oralig'ida bo'ladi. Tegishli qurilma 10.2-rasmida tasvirlangan.

Ishchi sohada temperaturani  $900-1200^\circ \text{C}$  oralig'ida o'zgartirish mumkin. Pechkaning ishchi kanaliga reaktor 4 o'rnatiladi, ushlagich 3 ga plastinkalar o'rnatilib, reaktorga joylashtiriladi. Reaktor 1 ga quritgich, filtr 2 orqali quruq kislород kiritiladi va quyidagi reaksiya boradi:  $\text{Si} + \text{O}_2 \rightarrow \text{SiO}_2$ . Oksid o'sishi tezligini temperaturaga va parda qalinligiga bog'liqligini turli bosqichlarda nazorat qilish mumkin.



10.2-rasm.


Yarimo'tkazgichli asboblar va IMS lar ishlab chiqarishda yuqorida ko'rilgan usullarning umumlashgan ko'rinishidan iborat 2 va 3 bosqichli oksidlashdan foydalilanadi. Termik o'stirilgan pardalarning chegara qalinligi 1–1,5 mkm dan oshmaydi. Planar texnologiyada pardalarning qalinligi 0,2–0,8 mkm bo'lishi kifoya.

#### 10.5.4. Kremniy oksid pardalarini pirolitik o'tkazish usuli

Bu usul kremniy oksid pardasini har qanday materiallardan tayyorlangan taglikka o'tkazishi mumkin. Uning zaruriy afzalligi shundaki, bu jarayon ancha past temperaturada amalga oshiriladi.

1. **Tetraetoksisilanning parchalanishi.** Bu jarayonda reaksiya mahsulotlari to'g'ridan to'g'ri taglik sirtiga yoki alohida kameraga beriladi. Tetraetoksisilan  $\text{Si}(\text{OC}_2\text{H}_5)_4$  ning parchalanish reaksiyasi 700–750° C da yuz beradi. Reaksiya natijasida  $\text{SiO}_2$ ,  $\text{SiO}$ ,  $\text{SO}$  va gaz ko'rinishidagi organik radikallar ajralib chiqadi. Agar  $\text{Si}(\text{OC}_2\text{H}_5)_4$  parchalanishi taglik bilan bir kamerada o'tkazilsa, unda taglik temperaturasi piroliz temperaturasi bilan bir xil bo'ladi. Agar parchalanish reaksiyasi bir kamerada, taglik boshqa kamerada bo'lsa, unda taglik temperaturasi piroliz temperaturasidan ancha kichik bo'ladi.

2.  **$\text{SiH}_4$  silanning kislород bilan parchalanish usuli.** Bu usul kremniy oksidi pardasini  $\text{A}^{\text{III}}\text{B}^{\text{V}}$  va  $\text{A}^{\text{II}}\text{B}^{\text{VI}}$  turdag'i yarimo'tkazgich birikmalarga, ularning stexiometrik tarkibini buzmagan holda o'tkazish imkonini beradi. Yuqori sifatli  $\text{SiO}_2$  pardasini olish uchun jarayon 150–300° C da olib boriladi:



Bu jarayonlarni o'tkazish uchun boshlang'ich moddalar sifatida monosilan  $\text{SiH}_4$ , argon Ar yoki azot (N) va kislород (O) aralashmasidan foydalilanadi. Kuchli inert gaz bilan aralashtirilgan silan (3–10%) holida oraliq temperaturada  $\text{SiO}_2$  ning o'tkazish tezligi 10–50 nm/min bo'lishi mumkin. Kislорoddan tashqari, oksidlovchi sifatida kislородли birikmalar  $\text{CO}_2$ ,  $\text{H}_2\text{O}$  lardan foydalilanadi.

Yuqoridagi usulda olingan  $\text{SiO}_2$  pardasi plastinka sirti bo'ylab qalinligi birday, kimyoviy tarkibi barqaror bo'ladi.

### 10.5.5. Kremniyning anodli oksidlash usuli

Bunday oksidlashning ikki xili mavjud: kremniy sirtini suyuq elektrolitda oksidlash va gaz plazmada oksidlash.

1. **Elektrolitik anodlash.** Anod oksidlanishi asosan o'zgarmas tok maromida o'tkaziladi. Buni amalga oshirish uchun zaruriy sharoit yaratish kerak. Bunda oksid parda qalinlashishi bilan oksidga qo'yilgan *U* kuchlanish ortib boradi. Agar oksidda *E* maydon bir jinsli bo'lsa,

$$\frac{dV}{dt} = E \frac{dx}{dt} = J \frac{EM}{\alpha F \rho}$$
 tenglama o'rinni bo'ladi, bunda *J* – chegara qismida tok zichligi, *M* – oksidning gramm-mol miqdori, *ρ* – uning zichligi,  $\alpha F$  – bir gramm-mol oksid hosil qilish uchun kerakli elektr miqdori, *F* = 9,65 C/mol – Faradey soni.

Elektrolitlar sifatida odatda suv miqdori oz bo'lgan organik eritmalaridan foydalaniladi. Elektrolit o'tkazuvchanligini boshqarish uchun  $HNO_3$ ,  $H_2PO_4$ ,  $NaOH$ ,  $NaNO_3$  va boshqalarni kiritish mumkin. Bu birikmalarning anionlari oksidlovchi sifatida elektrkemyoviy jarayonlarda qatnashadi.

2. **Kremniyini gazli oksidlash.** Bu usulda elektrolit o'rniqiga gazdan foydalaniladi. Gazli anodlash qalin oksid pardalar olishda qo'llaniladi. Yuqori chastotali maydon bilan paydo qilingan kislorod plazma manfiy zaryadlangan kislorod ionlari manbayi bo'ladi. Plazmadagi kislorod ionlari kremniy plastinalari bilan ta'sirlashadi. Oksidning o'sishi anod oksidlash o'tkazish rejimiga, ya'ni kameraning bosimi, temperatura va plazma zichligiga bog'liq.

### 10.5.6. Past temperaturali ion-plazma yordamida oksidlash

Bu usul hatto uy temperaturasida yuqori tezlikda pardalar olish imkonini beradi. Yarimo'tkazgich sirti qismi – oksid va oksid-tashqi muhit orasidagi tezlantiruvchi maydon o'sishi dreyf tezlikni ko'paytiradi, diffuziya tezligining ortishi esa o'suvchi qatlamda zarrachalar zichligi gradientini o'stiradi. Bu ikki omil kislorod tarkibili plazmada oksidning o'sish mexanizmiga ta'sir qiladi.

Bu usulda oksidlanish 50–200 Pa bosimda olib boriladi. Razryadni qo'zg'atish yuqori chastotali maydon (2,5 GGs gacha) bilan amalga oshirilib, razryadda quvvat 200 dan to 1000 Vt gacha o'zgarishi mumkin.

Plazmaning o'rtacha parametrlari: elektron temperatura  $5 \cdot 10^4$  K, taglikka nisbatan anod potensial +35 V, plazma zichligi  $\sim 10^{13}$  el/sm<sup>3</sup>,


ionlanish darajasi  $(5-6) \cdot 10^{-2}\%$ . Kremniy plastinka yerga ulangan kattodga nisbatan musbat potensial ( $+50 \div +400$  V) ostida turadi. Oksid pardaning o'sish tezligi 8–18 nm/min.

#### 10.5.7. Kremniy nitrid qoplamlarini hosil qilish.

##### Aralash qoplamlar

$\text{SiO}_2$  himoya qatlamlarini ba'zi hollarda qo'llash mumkin bo'lmay qoladi. Bunday hollarda kremniy nitridi  $\text{Si}_3\text{N}_4$  yoki kremniy nitridi va oksid kombinatsiyasidan foydalaniadi. Kremniy nitridi kimyoviy termik barqaror, elektrga chidamli, dielektrik singdiruvchan va yaxshi niqoblash xossasiga ega.  $\text{Si}_3\text{N}_4 - \text{SiO}_2$  tizimda kimyoviy birikmalar – kremniy oksinitridlar hosil qilishi mumkin. Uning ko'p tarqalgan birikmalaridan biri  $\text{Si}_2\text{ON}_2$ .

Kremniy nitrid qatlamini kremniy sirtida vujudga keltirish mumkin. Buning uchun azot (N) yoki uning faol birikmalari bilan kremniy nitridlanadi. Sirtni to'g'ridan to'g'ri nitridlash quyidagi reaksiyalar bo'yicha boradi:



Birinchi reaksiyaga asosan kremniy nitrid pardasini ochiq nay usulida olish lozim. Ishchi kameraga kremniy plastinkalari joylashtiladi va u orqali azot oqimi o'tkaziladi. Temperatura  $1200^\circ\text{C}$  va azot oqimi  $300 \text{ sm}^3/\text{min}$  bo'lganda kremniy plastinka sirtida kremniy nitridi pardasi hosil bo'ladi.

Ikkinchi reaksiyaga asosan, kimyoviy reaksiya bo'lishi uchun temperatura yanada yuqoriq bo'lishi mumkin. Bu usul texnologiyada kam qo'llaniladi. Silanni ammiak bilan nitridlashning kimyoviy reaksiyasini qo'llash  $700-1100^\circ\text{C}$  da kremniy nitridini olish imkonini beradi. Bunda  $1/20$  nisbatda silan va ammiak  $(3 \cdot 5) \cdot 10^3 \text{ sm}^3/\text{min}$ , tezlikda vodorod (H) oqimi bilan birgalikda kremniy plastinalar joylashtirilgan ishchi kamera orqali o'tkaziladi.

#### 10.5.8. Himoyaviy dielektrik pardalarning sifatini nazorat qilish

Pardalarning assosiy ko'rsatkichlari: 1) parda qalinligi; 2) qatlamiy ochiq tirqishlar; 3) kremniy-himoyaviy parda chegarasidagi nuqsonlar miqdori nazorat qilinadi.

Yarimo'tkazgichlar texnologiyasida dielektrik parda qalinligi *mikrotortish*, *interferometr* va *ellipsometr* usullarida aniqlanadi. Mikrotortish usuli namuna taglikka dielektrik pardani qoplamasdan va qoplagandan so'ng mikrotortishga asoslangan. Rang (interferensiya) usulida himoyaviy parda — taglik sirtiga tushuvchi oq nurni to'lдирувчи interferensiya asoslangan. Oq yorug'likning ma'lum bir qismi so'ndiruvchi interferensiyyada qatnashib, pardaning sirti bir xil rangda ko'rindi.

So'nuvchi interferensiya sharti:

$$2dn = \frac{2k-1}{2} \lambda.$$

Bu ifodada,  $d$  — pardaning qalinligi,  $n$  — pardaning sindirish koeffitsiyenti,  $\lambda$  — tushuvchi yorug'lik to'lqin uzunligi,  $k=1,2,3$  — interferensiya tartibi. Rang usulida parda qalinligini aniqlashda nisbiy xatolik 10% dan oshmaydi.

Ellipsometrik usulda  $Si_2O$  va  $Si_3N_4$ - pardalarning qalinligini o'lchash chizig'i bo'yicha qutblangan nurning himoyaviy parda sirti dan qaytishiga asoslangan. Ma'lum burchak ostida tushgan nur qaytishida elliptik qutblangan to'lqin hosil bo'ladi. Yorug'lik manbayi sifatida lazer nurlaridan ham foydalanish mumkin.

G'ovaklarni aniqlashda bir necha usullardan foydalaniladi. Misni elektrolitik o'tkazish usulida sirtida  $Si_2O$  vujudga keltirilgan plastinka mis ionli elektrolitga joylashtiriladi. Unga manfiy potensial beriladi. Elektroliz jarayonida mis ionlari plastinadagi g'ovaklar bor joylarga o'tiradi. Bu joylarning miqdoriga qarab parda sifati to'g'risida xulosa chiqariladi.

Diffuzion legirlash usulida yarimo'tkazgich taglik materialga diffuziya jarayonida kirishmalar kirib material elektrik o'tkazuvchanligini o'zgartirishiga asoslangan. Diffuziya jarayoni o'tkazilgandan so'ng pardaning qayerida g'ovaklar bo'lsa, o'sha yerdan diffuziya boradi, mahalliy  $p-n-o'tishlar$  hosil bo'ladi. Keyin kimyoiy parda taglikdan ketkaziladi va mahalliy  $p-n-o'tishlar$  pardalardagi g'ovaklar miqdori to'g'risida ma'lumot olish mumkin bo'ladi.

Elektrografik usulda ham pardalardagi g'ovaklar nazorat qilinadi. Gidroxinonning 3–4% li eritmasidan qo'llangan fotoqog'ozlar plastinkalar sirtiga joylashtiriladi. Fotoqog'ozli plastinkaga ikkita metall disk — elektrod qisib, ular orqali tok o'tkaziladi. Bu toklar fotoqog'oz emulsiyasiga yorug'likday ta'sir qiladi.

Pardadagi nuqsonlar miqdori va o'lchami mikroskop yordamida aniqlanadi. Dielektrik-yarimo'tkazgich chegarasi holati, undagi zaryad tashuvchilar zichligi, sirt potensiali, dielektrikdagi qo'zg'almas zaryadlar sirt holatlari zichligi, qo'zg'almas zaryadlar turg'unligi, sirt holatlarining relaksatsiyasi vaqt bilan baholanadi. Bu parametrlarni metall-dielektrik-yarimo'tkazgich (MDY) tuzilmalar tayyorlab, avtomatik qurilmalarda volt-farad tavsiflarini o'lchash bilan nazorat qilinadi.

#### **10.5.9. *p-n*- o'tishlarni himoyalash usullari**

Bu yerda qotishmali, qotishma-diffuzion va liza-qotishmali usularda olingan *p-n*- o'tishlarni himoyalash masalalari haqida ma'lumot beramiz. Bu turdagi asboblarga  $\text{Si}_2\text{O}$  va  $\text{Si}_3\text{N}_4$ - pardalar *p-n*- o'tishlar va omik kontaktlar olingandan so'ng qoplanadi. Oldin aytiganidek, kislorod tarkibli birikmalarning suvli eritmalaridan ham foydalanish mumkin. Ular kremniy bilan o'zaro ta'sirlashib, sirtini oksidlaydi – yupqa himoya pardasini hosil qiladi. Masalan, 100 ml suv va 50 mg natriy asetati, 200 ml suv va 70 ml ortofosfat kislota, 100 ml suv va 50 ml sulfat kislota, 150 ml suv va 10 g dinatriy fosfat va boshqa aralashmalardan foydalanish mumkin.

Metall oksid pardalar yarimo'tkazgich material sirtida himoya qoplamasini hosil qiladi. Bu pardalarning solishtirma qarshiligi  $10^{14}$ – $10^{15}$   $\text{Om} \cdot \text{sm}$  bo'lib, namga barqaror va issiqqa chidamlidir.

$\text{Al}_2\text{O}_3$ ,  $\text{BeO}$ ,  $\text{TiO}_2$ ,  $\text{ZrO}_2$  himoya pardalarini o'tqazish uchun manba temperaturasini  $800$ – $1200^\circ\text{C}$  da, *p-n*- o'tishli kristall temperaturasini  $350$ – $500^\circ\text{C}$  da ushlab turish kerak. Manba va yarimo'tkazgichlar kristall orasidagi masofa  $10$ – $20$  sm bo'lishi maqsadga muvofiqliqdir. Parda hosil qilish jarayoni kvars nayda olib boriladi, uning bir uchiga manba (masalan,  $\text{Al}_2\text{O}_3$  li tigel) va ikkinchi uchiga *p-n*- o'tishli kristall joylashtiriladi. Kvars naydan avval havo chiqarilib, keyin kerakli miqdorda tashuvchi reagent (masalan,  $\text{HCl}$ ,  $\text{HBr}$  gazi) kiritiladi. Himoya pardalari manbalari sifatida ishqoriy yer metallari; titanatlar, sirkonatlar va staniatlardan foydalaniladi.

Ko'pchilik yarimo'tkazgichli asboblar va IMS lar uchun shisha pardalar bilan himoyalash qo'llaniladi. Shisha bilan himoyalash asboblar elektrik parametrlarini yaxshilaydi – asbobning turg'unligi, mustahkamligi va ishslash muddatini oshiradi.

Kremniy asosidagi asboblarni himoya qilish uchun borosilikatli, fosforosilikatli va qo'rg'oshinsilikatli shishalar ishlataladi. Yana boshqa murakkab tarkibli shishalardan ham foydalanish mumkin. *p-n-* o'tishlarni himoyalashda alumosilikatli shishalar ko'p qo'llanilmoqda, chunki bu shishalar va kremniyning termik kengayishi koefitsiyentlari bir-biriga yaqin. Oksidlangan kremniy sirtiga shishani o'tqazish himoyalashni yanada yaxshilaydi – oksid qatlama kremniy bilan shisha orasidagi yopishqoqlikni oshiradi.

Alumosilikatli shishani odatda 0,2 mkm dan yupqa bo'lмаган оксид qatlamlı kremniy kristaliga surkaladi. Agar oksid qatlami undan yupqa bo'lsa, oksid qatlam orqali yarimo'tkazgich materialiga natriy ionlari kirib borishi mumkin. Bunday shishalarda natriy ionlari bor bo'ladi (masalan, 35%  $\text{SiO}_2$  + 35%  $\text{Al}_2\text{O}_3$ , 29,9%  $\text{BeO}$ +0,1%  $\text{Na}_2\text{O}$ ). Shuning uchun alumosilikatli shishalar asosan yetarlicha qalinlikdagi  $\text{Si}_2\text{O}$  qatlami mavjud yarimo'tkazgichli kristallarda qo'llaniladi. Himoya pardalari sifatida xalkogenid va murakkab tarkibli shishalar ishlataladi.

## ؟ Savol va topshiriqlar

1. Yarimo'tkazgichli asboblarning qanday parametrlari sirt holatiga bog'liq bo'ladi?
2. Sirda kanallar qanday hosil bo'lishini aytib bering.
3. Sirtning elektrik teshilishi qaysi sharoitda yuz beradi?
4. Asboblarda yuz beradigan shovqinlar nimadan kelib chiqadi?
5. Yarimo'tkazgichlar sirtini barqarorlash uchun qanday tadbirlar ko'rildi?

## XI BOB. YARIMO'TKAZGICH SIRTI BILAN HAJMINING O'ZARO TA'SIRI

### 11.1. Yarimo'tkazgichning sirti va hajmidagi xossalari orasidagi bog'lanish

Yarimo'tkazgichning sirtidagi  $E_{F_s}$  va hajmidagi  $E_{F_V}$  Fermi sathi orasida bir qiymatli bog'lanish bor. Bu bog'lanish butun kristallning elektrneytrallik shartidan keltirib chiqariladi:

$$\sigma + \int_0^{\infty} \rho(x) dx = 0 \quad (11.1)$$

bunda  $\sigma$  — sirt zaryad zichligi,  $\rho(x)$  — hajmiy zaryadning  $x$  tekislikdagi zichligi. Yarimo'tkazgich  $x > 0$  yarimfazoni egallaydi, deb faraz qilinadi.

$\sigma$  zichlik, bosim  $g$ , temperatura  $T$  va sirtdagи Fermi sathi holati  $E_{F_s}$  ning funksiyasi

$$\sigma = \sigma(P, T, E_{F_s}) \quad (11.2)$$

(11.1) dagi ikkinchi had  $T, E_{F_s}, E_{F_V}$  lar funksiyasi, ya'ni

$$\int_0^{\infty} \rho(x) dx = R(T, E_{F_s}, E_{F_V}). \quad (11.3)$$

Endi elektroneytrallik sharti

$$\sigma(P, T, E_{F_s}) + R(T, E_{F_s}, E_{F_V}) = 0 \quad (11.4)$$

bo'ladi. Bundan  $E_{F_s}$  ni  $E_{F_V}$  funksiyasi sifatida aniqlash mumkin.

$$E_{F_s} = f(P, T, E_{F_V}) \quad (11.5)$$

Bu amal murakkab, shuning uchun uni ayrim xususiy hollardagina bajarish mumkin.  $E_{F_V}$  ni kristall ichidagi elektrneytrallik shartidan, ya'ni

$$\rho(E_{F_V}) = 0 \quad (11.6)$$

topilsa, u holda (11.5) dan  $E_{F_s}$  aniqlangan bo'ladi. (11.4) tenglamani yechmasdan

$$(dE_{Fs}/dE_{FV}) > 0 \quad (11.7)$$

bo'lishligini ko'rsatish mumkin. Sirt yaqinida sohalar egilishini

$$V_s = V(0) = E_{Fs} - E_{FV} \quad (11.8)$$

kattalik orqali tavsiflash o'rini. Bu *sirt potensiali* deyiladi. Bu sirt fizikasida muhim o'rinn tutadigan kattalik bo'lgani uchun uni aniqlab olish juda zarur.

Hisoblashlar quyidagi natijalarga olib keladi

a) deyarli ionlanmagan kirishma holida:

$$2 \operatorname{sh} \frac{V_s}{2kT} = -\frac{\sigma}{\sigma^*} \quad (11.9)$$

$$\text{Bunda } \sigma^* = \sqrt{\left(\frac{\pi k T}{2m}\right)^n}, n^* = p + N_+ = n + N_- \quad (11.10)$$

b) deyarli ionlangan kirishma holida:

$$p \left( l^{V_s/kT} - 1 - \frac{V_s}{kT} \right) + n \left( l^{-V_s/kT} - 1 + \frac{V_s}{kT} \right) = n * \left( \frac{\sigma}{\sigma^*} \right)^2. \quad (11.11)$$

Sirtiy  $V_s$  potensial turli omillarga bog'liq.

1. Sirt potensiali sirdagi  $\sigma$  zaryadga bog'liq. Bunda ikki chegaraviy holni ko'rib chiqaylik:

a)  $|V_s| \ll kT$  bo'ladigan oz egilgan sohalar holida (11.9) va (11.11) tenglamalardan

$$V_s = -kT \frac{\sigma}{\sigma^*} \quad (11.12)$$

ifoda kelib chiqadi.  $|\bar{V}_s| \ll kT$  bo'lgani uchun  $\sigma/\sigma^* \ll 1$ ;

b) kuchli egilgan sohalar holida (11.9) dan

$$V_s = \pm kT \ln\left(\frac{\sigma}{\sigma^*}\right) \quad (11.13)$$

ifoda olinadi, bunda agar  $\sigma < 0$  bo'lsa, yuqoriga (+) ishora,  $\sigma > 0$  bo'lsa, pastga (-) ishora o'rini bo'ladi;  $|\sigma| >> \sigma^*$  ko'rilmagan hollarda  $V_s$  sirt  $\sigma$  zaryadga chiziqli, logarifmik bog'langan. Bu holda (11.11) dan

$$V_s = \pm kT \ln\left(\frac{\sigma}{\sigma^*}\right)^2 \quad (11.14)$$

kvadratik bog'lanish ifodasi kelib chiqadi.

2. Sirt potensiali  $V_s$  ga kristall ichidagi kirishmalar ta'sir qiladi. Oldingi ifodalardan ko'rindiki, asosiy zaryad tashuvchilar zichligi

$n^*$  qancha katta bo'lsa,  $\sigma^*$  shuncha katta, binobarin,  $V_s$  shuncha kichik bo'ladi. Demak, kirishmalar kiritib sohalar egilishini ( $V_s$  ni) kamaytirish mumkin.

3. Sirt  $V_s$  potensiali  $T$  temperaturaga bog'liq. Haqiqatan  $T$  temperatura oshgan sari  $n^*$  ortib boradi,  $V_s$  esa kamayadi.

4. Sirt  $V_s$  potensialiga adsorblash ham ta'sir ko'rsatadi. Agar adsorblangan zarralarning sirt zichligi  $N$  deb olinsa, undagi zaryad  $\sigma_a = \pm eN$  bo'ladi, demak, adsorblash hisobidan sohalar egilishi o'zgarishi  $\Delta V_s$  uchun oz ionlangan yoki to'la ionlangan kirishmalar hollarida

$$\Delta V_s = \pm 2kT \frac{eN}{|\sigma_\beta|} \quad (eN \ll |\sigma_\beta|), \quad (11.15)$$

$$\Delta V_s = \pm kT \ln\left(\frac{eN}{\sigma_\beta}\right) \quad (eN \gg |\sigma_\beta|) \quad (11.16)$$

ifodalar olinadi.

## 11.2. Sirtning zaryadlanishiga bog'liq effektlar

Sirtda sathlar mavjud bo'lishi sirtning zaryadlanishiga olib keladi. Bu esa qator effektlarni keltirib chiqaradi:

1. Sirdagi zaryad yarimo'tkazgichdan elektronlarning chiqish ishiga ta'sir qiladi. Binobarin, sirtda adsorblangan zarralar zichligi va tabiatchi chiqish ishini aniqlashda muhim bo'ladi.

2. Sirdagi zaryadga elektrik o'tkazuvchanlik ham bog'liq.

3. Sirt zaryadining kattaligi va ishorasiga yarimo'tkazgich hajmidaagi kirishmalar taqsimoti bog'liq.

4. Agar yarimo'tkazgich sirti zaryadlangan bo'lsa, bu holda sirt yaqinida sohalar egrilanishi oqibatida sirtda turli masofada zaryad tashuvchilar zichligi turlicha bo'ladi. Demak, sirt o'tkazuvchanlik hajmiy o'tkazuvchanlikdan farq qiladi. Sirt o'tkazuvchanlikni  $\chi_s$  deb belgilab, uning  $V_s$  ga bog'lanishini topamiz.

Harakatchanliklar  $\mu_n$  va  $\mu_p$  yarimo'tkazgichning hamma joyida o'zgarmas qiymatga ega deb hisoblansa:

$$\chi_s = \chi - \chi_0 = e\mu_n \int_0^\infty (n(\chi) - n_v) d\chi + e\mu_p \int_0^\infty (p(\chi) - p_v) d\chi, \quad (11.17)$$

bundagi  $n_v$  va  $p_v$  — elektronlar va kovaklarning hajmdagi zichliklari.

Belgilashlar bu yerda quyidagicha:

$$\chi_{nV} = e\mu_n n_V, \quad \chi_{pV} = e\mu_p p_0, \quad i^{V_M/V_T} = \chi_{nV}/\phi_{pV} \quad (11.18)$$

Integrallash natijasi:

$$\chi_s = 4 \sqrt{\chi_{nV} \chi_{pV}} \int_0^s \left( \operatorname{sh} \frac{V_M - V}{2kT} \operatorname{sh} \frac{V}{2kT} \right) \left( \frac{dV}{d\chi} \right)^{-1} dV. \quad (11.19)$$

$V_s = V_M$  bo'lganda  $\chi_s(V_s)$  egri chizig'i minimumdan o'tadi, chunki

$$\frac{d\chi_s}{dV_s} = 4 \sqrt{\chi_{nV} \chi_{pV}} \left( \operatorname{sh} \frac{V_M - V_s}{2kT} \right) \left( \operatorname{sh} \frac{V_s}{2kT} \right) \left( \frac{dV}{d\chi} \right)_{\chi=0}^{-1}. \quad (11.20)$$

Sohalar kuchli darajada egilib kambag'allashgan qatlam hosil qilganda sirt yaqinidagi o'tkazuvchanlik turi hajmdagidan boshqacha bo'lishi mumkin. Bu hodisa o'tkazuvchanlik inversiyasi deb ataladi. Shu hodisaga erishiladigan sohalar egriligi  $V_i$  inversiya potensiali deyiladi.

$$e\mu_n n(V_i) = e\mu_p p(V_i) \quad (11.21)$$

shartidan topiladigan inversiya potensiali

$$V_i = \frac{1}{2} V_M \quad (11.22)$$

ga teng bo'ladi.

5. Tashqi maydon va adsorblash o'tkazuvchanligiga ta'sir ko'rsatadi. Umuman aytganda, sirt o'tkazuvchanligi  $\gamma_s$  va  $V_s$  ni o'zgartira oladigan barcha sabablar ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, bir plastinka o'rganilayotgan yarimo'tkazgich bo'lgan yassi kondensatorga (uning ikkinchi platinasini maydoniy elektrond deyiladi)  $E$  elektr maydon qo'yilgan bo'lib, yarimo'tkazgich sirtining bir birligida  $\sigma$  elektr zaryad paydo qilingan bo'lsin:

$$\sigma = -\frac{E_0}{4\pi} E, \quad (11.23)$$

bunda  $E_0$  – kondensatorni to'ldiradigan muhitning dielektrik doimisi.  $\sigma$  zaryad sirt holatlari va hajmdagi zaryad qatlami orasida taqsimlangan bo'ladi:

$$\delta = \sigma + \int_0^\infty \rho(\chi) d\chi. \quad (11.24)$$

Muvozanat paytida:

$$\sigma = \sigma(V_s), \quad \int_0^\infty \rho(\chi) d\chi = R(V_s) \quad (11.25)$$

(11.25) ni (11.24) ga qo'ysak,  $E$  va  $V_s$  ni bog'lovchi tenglama hosil qilamiz.

Tashqi maydon ulangan paytda u hosil qilgan zaryad sirt yaqinidagi qatlamda yig'ilgan, sirdagi zaryad esa avvalgiday qolgan bo'ladi. Sirt  $\chi_s$  o'tkazuvchanlik keskin o'zgarib ketadi. Vaqt o'tishi bilan maydon hosil qilgan zaryad tashuvchilar sirt yaqinidagi qatlamdan qisman sirtning o'ziga o'tadi. Natijada  $\sigma$  va  $\chi_s$  o'zgaradi, bunda  $\chi_s$  ning kattaligi o'zining dastlabki qiymatiga yaqinlashadi, ba'zan unga teng bo'lib qoladi.

$V_s$  sirt potensialini, binobarin,  $\chi_s$  ni o'zgartira oladigan yana bir sabab adsorblashdir. Adsorblash oqibatida mazkur o'zgarishlar

$$\Delta V = V_s - V_{s0}; \quad \Delta \chi_s = \chi_s - \chi_{s0} \quad (11.26)$$

ko'rinishida ifodalanadi,  $V_{s0}, \chi_{s0}$  — adsorblash e'tiborga olinmagandagi kattaliklar.

Agar akseptor xossalari zarralar adsorblansa, sirt yaqinidagi qatlamda kovaklar ko'payadi, elektronlar kamayadi. Bu holda  $\Delta V_s > 0$  hamda  $n$ -yarimo'tkazgich holida  $\Delta \chi_s < 0$ ,  $p$ -yarimo'tkazgich holida  $\Delta \chi_s > 0$  bo'ladi .

Donor xossalari zarralar adsorblanganda bu tengsizliklarning aksi bo'ladi. Endi «kvaziyakkalangan» sirt tushunchasi bilan tanishaylik.

Haqiqiy yarimo'tkazgich sirtida holatlar zichligi katta bo'lsa, sirtda o'rnashgan elektronlar va kovaklar zichligi ancha katta bo'ladi. Agar bu zichliklar farqi yetarlicha kichik bo'lsa, bu holda yarimo'tkazgich sirti ancha maxsus xossalarga ega bo'ladi.

O'tkazuvchanlik sohasi bilan Fermi sathi orasidagi masofa hajmda  $E_{FV}$ , sirtda  $E_{Fv}$  bo'lsin. Demak,  $\frac{|\Delta E_{FV}|}{kT} > 1$  bo'ladi. (11.5)  $\frac{|\Delta E_{Fv}|}{kT} \ll 1$  tenglamadan bo'lishligi ma'lum bo'ladi. Bu holda  $E_{Fv}$  vaziyat  $E_{FV}$  vaziyatga bog'liq emas. Bu esa yarimo'tkazgichning sirt xossalarining hajm xossalariiga bog'liq bo'lmaydi, demakdir. Bu holda hajm sirtga ta'sir ko'rsatmaydi, sirtni muayyan  $E_{FV}$  oralig'ida «kvaziyakkalagan» sirt deyish mumkin.

Endi «kvaziyakkalagan» sirtning ba'zi xossalarini ko'rib o'tamiz.  
 «Kvaziyakkalagan» sirt holida sirtdag'i to'la zaryad:

$$\sigma(E_{Fv}) = 0, \quad 11.27)$$

Ammo hajmda

$$p(E_{Fv}) = 0. \quad 11.28)$$

Demak,  $E_{Fv}$  va  $E_{Fs}$  lar bir-biriga bog'liq bo'lman (11.27) va (11.28) munosabatlardan aniqlanadi.

«Kvaziyakkalangan» sirtga bog'liq sirt holatlarining uch turi bor.


**A. Sirt energetik sohalarga tegishli holatlar.** Bunday sohalar mavjud bo'lganida ularda holatlar zichligi  $N_s$  katta bo'ladi. Bu zichlik sirtdag'i elektronlar va kovaklar zichliklari yig'indisidan ancha katta bo'lganda «kvaziyakkalanish» sharti bajariladi.

**B. Turli tuzilish nuqsonlariga tegishli holatlar.** Ular sirtda hamma vaqt mavjud (vakansiyalar, sirtga chiqib olgan panjara atomlari yoki ionlari, yot atomlar, kirishmalar va h.k.).

**D. Sirtda xemosorhlangan atomlar yoki molekulalar.** Ular xuddi tuzilish nuqsonlari bajargan ishlarni bajaradi va sirt holatlarining umumiy zichligiga hissa qo'shami.

Shunday qilib, haqiqiy sirt ham, ideal (mukammal) sirt ham «kvaziyakkalangan» sirt xossasiga ega bo'lishi mumkin.

Baholash ko'rsatishicha,  $N_s > 10^{12} \text{ sm}^{-2}$  bo'lganida sirtni «kvaziyakkalangan» deb hisoblasa bo'ladi. Oldin aytildandek, «kvaziyakkalangan» sirt holida  $E_{Fs}$  vaziyat  $E_{Fv}$  vaziyatga bog'liq emas. Shuning



11.1-rasm.

uchun  $E_{FV}$  qancha o‘zgarsa  $V_s$  ham shuncha o‘zgaradi, ammo  $E_{Fs}$  o‘z joyida qoladi (11.1-rasm).

«Kvaziyakkalangan» sirt holida hajm sirtga ta’sir ko‘rsatadi.  $E_{Fs}$  o‘zgarsa  $V_s$  o‘zgaradi va shuning uchun  $V_s$  bog‘liq hajmdagi xossalari o‘zgaradi.

### 11.3. Zaryadlangan yarimo‘tkazgichning adsorbsion xossalari

Zaryadlangan adsorbentlar xossalari ko‘rib chiqish bir qator muhim effektlarni o‘rganish imkonini beradi:

1. Yarimo‘tkazgichga qo‘yilgan tashqi elektrik maydon yarimo‘tkazgichda zaryad paydo qiladi, u esa adsorbsion xossalarni o‘zgartiradi.

2. Ionlarni xemosorblash yarimo‘tkazgich xossalariiga ta’sir qiladi. Bu holda adsorblangan zarralar zaryad kiritadi, bu esa qator xususiyatlari keltirib chiqaradi.

3. Tashqi nurlanish ostidagi yoki radiofaol qo‘sishimchalar bilan ta’minlangan yarimo‘tkazgichda statcionar zaryad ushlanib turgan holda yarimo‘tkazgichning xemosorbsion xossalari boshqacha bo‘ladi.

Dastlab yarimo‘tkazgich zaryadlangan holda chiqish ishi va adsorbsion qobiliyat o‘zgarishini tekshiramiz. Bu holda zaryad saqlanishi sharti

$$\sigma + \int_0^{\infty} \rho(\chi) d\chi = \delta, \quad (11.29)$$

bunda  $\delta = Q/2S$  – zaryadning yuza zichligi,  $Q$  – berilgan zaryad,  $S$  – yon yoq yuzi. Bu holda sohalar egilishi o‘zgarishi  $\Delta V_s = V_s - V_{s0}$  bo‘lib,  $V_{s0}$  – sistema zaryadsiz ( $\delta = 0$ ) holidagi kattalik. Adsorbsion qobiliyat o‘zgarishi  $\delta N = N - N_0$ , sirtdagisi zaryad o‘zgarishi  $\Delta\sigma = \delta - \sigma_0$ . Masala  $\Delta V_s$ ,  $\Delta N$  va  $\Delta\sigma$  o‘zgarishlarni  $\delta$  ning funksiyalari sifatida aniqlashdan iboratdir.

Bu holda (11.29) ifoda o‘rniga

$$2 \operatorname{sh} \frac{V_s}{kT} - \frac{(\delta-\delta)}{\sigma^*} \quad (11.30)$$

tenglik yoziladi.  $\sigma^*$  ko‘rinishi o‘shanday. Agar dastlabki zaryad adsorblangan zaryaddan ancha katta va barcha nuqsonlar to‘la

#### 11.4. Sirtning yarimo'tkazgich ichida kirishning

ionlangan, deb hisoblansa  $\delta$  va  $N$  lar  $\delta$  ga bog'liq emas, ya'ni  $\sigma = \sigma_0$  (11.30) asosida va yarimo'tkazgich musbat zaryadlangan ( $\delta > 0$ ) desak, boshqa sharoit o'zgarmasa, u holda sohalar yuqoriga egila boradi, ya'ni chiqish ishi ortadi va aksincha, manfiy zaryadlanishda ( $\delta < 0$ ) sohalar pastga egiladi ( $V_s$  kamayadi), chiqish ishi kamayadi.

Ma'lumki,  $N$  – adsorbsion qobiliyat uncha katta bo'limgan sathlar to'ldirilganligi holida quyidagicha:

$$N = \frac{\alpha P}{\eta_o} = \alpha P \left[ 1 + \exp \left( \mp \frac{E_{FV} + V_s - V}{kT} \right) \right]. \quad (11.31)$$

Adsorbsion qobiliyatning nisbiy o'zgarishi

$$\frac{\Delta N}{N_o} = \eta_o^\pm \left[ \exp \left( \mp \frac{\Delta V_s}{kT} \right) - 1 \right], \quad (11.32)$$

bunda  $\eta_o^\pm$  – zaryadlanmagan yarimo'tkazgichda «mahkam» bog'langan zarralarning nisbiy miqdori. Endi (11.30) ifoda boshqacharoq ko'rinish oladi:

$$\exp \left( \frac{V_s}{2kT} \right) = \left( \frac{\delta - \sigma}{2\sigma^*} \right) + \sqrt{\left( \frac{\delta - \sigma}{2\sigma^*} \right)^2 + 1}. \quad (11.33)$$

$\sigma = \sigma_0$  deb hisoblasak va (11.32) ni (11.33) ga qo'ysak,  $\Delta N/N_o$  ning  $\delta$  ga bog'lanishi ifodasini olamiz.

Tashqi elektr maydon yarimo'tkazgichning adsorbsion qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Plastina shaklidagi yarimo'tkazgich tashqi bir jinsli elektr maydonga joylashgan, unda sirtda paydo bo'lgan zaryad zichligi  $\delta$  bo'lsin. Bu holda


$$d = CV = -\frac{\varepsilon_\infty}{4\pi} E, \quad (11.34)$$

bunda,  $V$  – kuchlanish,  $C$  – sig'im.

11.2-rasmdan ko'rinishicha:

a) yarimo'tkazgichdagagi musbat zaryad akseptorlar adsorblanishini kamaytiradi va donorlar adsorblanishini oshiradi va aksincha;

b) effekt simmetrik emas, ya'ni kuchlanish ortib borgan sari musbat



11.2-rasm.

effekt ortadi, shu vaqtida manfiy effekt  $\Delta N/N_0 = -\eta_0^+$  kattalikka asimptotik yaqinlashib boradi. Xulosa shuki, sirtning adsorbsion qobiliyatining tashqi maydon ta'sirida o'zgarishi sirtda xemosorblashning zaryadlangan shakli o'zgarishi bilan bog'liq.

Yarimo'tkazgich sirtida *ionlarning adsorblanish hodisasi* ham e'tiborga loyiqidir. Yarimo'tkazgich yassi parallel plastinkadan iborat bo'lsa, uning ikkala sirtida bir muayyan tur zarralar xemosorblangan bo'lsin.  $N$  bilan sirt birligida adsorblangan zarralar sonini belgilaymiz. Barcha zarralar neytral bo'lgan va ular bir zaryadli ionlar bo'lgan hollarda  $V_s = V_s(N)$  bog'lanishni aniqlaylik. Kristall ichida kirishmalar oz ionlangan deb hisoblaymiz. Yana  $\left(\frac{\delta-\sigma}{\sigma^*}\right)^2 \gg 1$  deb faraz qilamiz. Bu hollarda

$$V_s = \pm kT \ln \left( \frac{\delta-\sigma}{\sigma^*} \right)^2. \quad (11.35)$$

Zarralar neytral bo'lganda

$$\sigma = \sigma_\beta \pm eN^\pm, \quad \delta = 0 \quad (11.36)$$

va kichik to'ldirilganlik sharoitida, ya'ni

$$eN \ll |\sigma_\beta|, \quad (11.37)$$

sirt potensial

$$V_s = V_s(0) \pm \frac{2kTe}{|\delta_\beta|} N^\mp, \quad (11.38)$$

bundagi  $\sigma_\beta$  — oldin bo'lgan (biografik) zaryadlar sirt zichligi.

Agar barcha adsorblangan zarralar bir zaryadli ionlar bo'lsa, u holda  $\sigma = \sigma_\beta^\mp eN$  va  $\delta = +eN$ , demak,

$$\begin{aligned} \sigma - \delta &= \sigma_\beta \pm e(N - N^\pm) = \sigma_\beta \pm eN_0, \\ \sigma &= \sigma_\beta^\mp eN^\mp \quad \text{va} \quad \sigma = +eN, \end{aligned} \quad (11.39)$$

bunda  $N_0$  — zaryadini saqlovchi ionlarning sirt zichligi. (11.39) ni (11.35) ga qo'ysak va (11.37) ni e'tiborga olsak,

$$V_s(N) - V_s(0) = \mp \frac{2kTe}{|\delta_\beta|} N_0 \quad (11.40)$$

Bu ifoda manfiy ionlarning adsorblanishi sohalarni pastga egilishini ko'rsatadi. Ikkala holda ham chiqish ishi, o'tkazuvchanlik o'zgaradi.

## 11.4. Sirtning yarimo'tkazgich ichida kirishmaning taqsimlanishiga ta'siri

Cheklangan yarimo'tkazgich holida sirt holatlarining mavjudligi sirtda zaryad paydo bo'lishiga sababchi bo'ladi. Bu zaryadning elektr maydoni yarimo'tkazgich kristali ichiga qandaydir masofaga kiradi, kirishmalarning tekis taqsimoti buziladi. Sirt yaqinidagi maydon zaryad tashuvchilarning dreyf tokini hosil qiladi. Buning natijasida ionlangan kirishmaning zaryadi sirtdagи zaryadga teskari ishorali bo'lgan zarralari sirtga tomon suriladi, bир xil ishoralilari esa sirtdan ichkariga ko'chadi. Bunda sirt bilan hajm orasida zarralar zichligi gradiyenti hosil bo'ladi. Bu esa dreyf tokka qarshi diffuzion tokni vujudga keltiradi. Shu ikki tok muvozanatlashganda kirishmaning muvozanatdagi taqsimoti yuzaga keladi, bunda sirt yaqinidagi qatlamda kirishmalar ko'proq yoki ozroq bo'ladi. Yarimcheksiz yarimo'tkazgichni ko'rib chiqamiz, u  $x > 0$  yarimfazoni egallagan bo'lsin. Yarimo'tkazgichda qatlam donor kirishma bo'lsin ( $n$ -tur). Kirishma zichligini  $N_d$ , uning neytral va zaryadli qismlarini  $N_d^0$  va  $N_d^+$  deb belgilaymiz.

Ravshanki,

$$N_d = N_d(x), \quad N_d^0 = N_d^0(x), \quad N_d^+ = N_d^+(x), \quad (11.41)$$

bunda

$$N_d = N_d^0 + N_d^+.$$

Quyidagi belgilarni kiritamiz:

$$N_{dV} = N_d(\infty), \quad N_{dV}^0 = N_d^0(\infty), \quad N_{dV}^+ = N_d^+(\infty) \quad (11.42)$$

Masala (11.41) dagi funksiyalarni aniqlashdan iborat. Bu funksiyalar elektronlar muvozanati sharoitida o'zarob bog'langan:

$$N_d^0(x) = \frac{N_d(x)}{1 + \exp[(-E_d + E_F(x))/kT]}, \quad (11.43)$$

$$N_d^+(x) = \frac{N_d(x)}{1 + \exp[(E_d - E_F(x))/kT]}. \quad (11.44)$$

Demak,

$$\frac{N_d^+(x)}{N_d^0(x)} = \exp\left(\frac{E_F(x) - E_d}{kT}\right); \quad \frac{N_d^+(x)}{N_V^0} = \exp\left(\frac{E_{FV} - E_d}{kT}\right). \quad (11.45)$$

Puasson tenglamasi:

$$\frac{d^2V}{dx^2} = \frac{4\pi e^2}{\epsilon} [N_d^+(x) - n(x)] \quad (11.46)$$

$$\text{ifodasida } n(x) = n_v \exp(-V(x)/kT). \quad (11.47)$$

Tegishli chegaraviy shartlardan foydalaniib, (11.46) tenglama yechilsa,

$$IV(x)/2kT = \frac{\exp x/l + \operatorname{th}(V/kT)}{\exp x/l - \operatorname{th}(V/kT)}, \quad (11.48)$$

bundagi  $l$  – ekranlanish uzunligi. Yana ba’zi amallarni bajarib, ushbu natijalarni olamiz:

$$N_d(x) = \begin{cases} = N_{dv} + n^* \left[ \operatorname{sh}^2 \frac{1}{2} \left( \frac{x}{l} - \gamma \right) \right]^{-1} (V_s) \geq bo'lganda, \\ = N_{dv} - n^* \left[ \operatorname{ch}^2 \frac{1}{2} \left( \frac{x}{l} + \gamma \right) \right]^{-1} (V_s) < bo'ladi. \end{cases} \quad (11.49)$$

$$\gamma-o'chamsiz kattalik V_s bilan bog'langan \\ \pm V e^{-\gamma} = \operatorname{th} V_s / 4kT. \quad (11.50)$$

Bundan tashqari,

$$\left( \frac{dV}{dx} \right)_{x=0} = - \frac{4\pi e}{\epsilon} \sigma \quad (11.51)$$

bo‘lishini ham bilamiz. Bu ifoda yordamida mazkur masala tahlilini davom ettirish mumkin. Xulosa shuki, (11.49) ifoda oldimizga qo‘ygan masalaning yechimidir.

Kirishmalar yarimo‘tkazgichning adsorbsion qobiliyatiga ta’sir ko‘rsata oladimi? Tahlil bu savolga «ha» deb javob beradi.

Yarimo‘tkazgichning adsorbsion qobiliyatni uning sirtida Fermi sathi holatiga bog‘liq bo‘ladi. Akseptor gaz uchun Fermi sathi qancha pastda bo‘lsa adsorbsion qobiliyat shuncha katta, donor gaz uchun esa aksincha.

Har qanday donor kirishma hamma vaqt  $E_{FV}$  ni kamaytiradi, akseptor kirishma esa  $E_{FV}$  ni orttiradi. Shuning uchun donor kirishma sirtning donor gazga nisbatan adsorbsion qobiliyatini kamaytiradi, akseptor gazga nisbatan oshiradi. Akseptor kirishma esa aksincha ta’sir ko‘rsatadi. Tajribalar buni tasdiqlaydi.

Kirishmalarni xemosorplashga faqat Fermi sathini (elektronlar muvozanatini) siljитish yo'li bilan emas, balki xemosorbsion zarralar va kimyoviy birikma hosil qilish yo'li bilan ham ta'sir ko'rsatish mumkin.

### 11.5. Metall ustidagi yarimo'tkazgich pardasi

Ayrim metallar ko'pincha binar birikma shaklidagi yarimo'tkazgich parda bilan qoplangan bo'ladi. Binobarin, ko'p jarayonlar shu yarim-o'tkazgich sirtida kechadi. Agar pardaning  $L$  qalinligi ekranlanish uzunligidan kichik bo'lsa, pardaning xemosorbsion xossalari uning qalinligi va metallning xossalariiga bog'liq bo'ladi. Bu masala pardaning tashqi sirtidagi Fermi sathi vaziyatini  $L$  va metalldan chiqish ishi  $A_0$  ning funksiyasi sifatida aniqlashdan iborat.

Agar elektronning parda sirtidagi potensial energiyasini  $V_L$  orqali, metall va yarimo'tkazgich orasidagi kontakt potensiallar ayirmasini  $V_0$  bilan belgilasak, masala

$$V_L = V_L(L, V_0)$$

funksiyani tahlil qilishga keladi.

Tahlil quyidagicha xulosalar chiqarishimizga sabab bo'ladi. Agar parda sirti musbat zaryadlangan ( $\sigma > 0$ ) bo'lsa, uning adsorbsion qobiliyatni donor gazga nisbatan parda yupqalashgan sari ortib boradi, akseptor gazga nisbatan kamayadi.

Agar parda sirti mansiy zaryadlangan ( $\sigma < 0$ ) bo'lsa, donor gazga nisbatan pardaning adsorbsion qobiliyatni u yupqalashgan sari ortadi, maksimumdan o'tadi, so'ngra kamayadi, akseptor gazga nisbatan kamayadi, minimumdan o'tadi, so'ngra ortadi.

Pardaning katalitik xossalari ham uning qalinligi va taglik sifatida olingan metallning tabiatiga bog'liq bo'ladi.



#### Savol va topshiriqlar

1. Yarimo'tkazgichning sirti bilan hajmi orasida qanday bog'lanishlar bor? Misol yordamida tushuntiring.
2. Sirtning zaryadlanishida qanday effektlar muhim ahamiyatga ega?
3. Zaryadlangan yarimo'tkazgichning adsorbsion xossalariini tushuntiring.
4. Sirt kirishma taqsimotiga ta'sir ko'rsatadimi?
5. Metall ustiga o'tkazilgan yarimo'tkazgich pardasining xossalari qanday?

## **XII BOB. YARIMO'TKAZGICHNING KATALITIK TA'SIRI**

### **12.1. Katalizning asosiy tushunchalari**

Yarimo'tkazgichlar ko'pgina kimyoviy reaksiyalarda katahzator vazifasini o'taydi.

Mis oksidi, rux oksidi, vanadiy besh oksidi kabi yarimo'tkazgichlar katalizator vazifasini bajaradi. Metallarning ba'zilari ham katalizator bo'ladi. Ammo yarimo'tkazgichlarda kataliz ko'proq qo'llaniladi.

Metallarning ko'pchiligi yarimo'tkazgich pardasi bilan qoplangan bo'ladi. Bu pardani ketkazish qiyin.


Kataliz haqidagi tushunchalar fizika va kimyoda ko'p o'r ganiladi. Yarimo'tkazgich ichiga kiritilgan kirishmalar uning katalitik xossalariiga ta'sir ko'rsatishi va yarimo'tkazgichning elektr o'tkazuvchanligi bilan uning katalitik ta'siri orasida bog'lanish boriigi, yarimo'tkazgichda ichki fotoeffektni paydo qiladigan yorug'likning uning adsorbsion va katalitik faolligiga ta'siri kuzatilgan. Yarimo'tkazgich katalizator bo'lib ishlagan vaqtida uning elektr o'tkazuvchanligining va chiqish ishining o'zgarishi aniqlangan.

Yarimo'tkazgich katalitik jarayonda faol qatnashadi. Yarimo'tkazgichning katalitik xossalari uning tarkibi va elektronlar holatlariga ko'ra aniqlanadi.

#### **Katalizatorning aktivligi va tanlovchanligi**

Faraz qilaylik, reaksiyada ishtirok etuvchi gazlar aralashmasiga qattiq jism – katalizator kiritildi. Bunda reaksiya tezligi ortadi. Tezlikning nisbiy ortishini *katalizator faolligi* deyiladi.

Masalan, karbon oksidi oksidlanishi karbonat angidrid hosil bo'lishiga olib keladi:



Katalizator ishtirokisiz bu reaksiya juda sekin boradi. U ham bo'lsa, bir necha yuz gradusga teng yuqori temperaturalarda sodir bo'ladi.  $\text{MnO}_2$ ,  $\text{Ag}_2\text{O}$ ,  $\text{Co}_2\text{O}_3$  kabi katalizatorlar ishtirokida bu reaksiya hatto  $-60^\circ\text{C}$  da ham katta tezlik bilan boradi.

Katalizator kimyoviy reaksiyalarning ayrim bosqichlari tezligini har xil darajada o'zgartiradi. Reaksiyaning natijaviy tezligini eng sekin borgan bosqichga ko'ra aniqlanadi.

Agar reaksiyada ishtirok etuvchi moddalar parallel borgan reaksiyalarda qatnashsa, u holda ularning har biri tezligini katalizator turlicha o'zgartirishi mumkin. Demak, katalizator ta'sirida reaksiyaning o'z yo'nalishi o'zgartirilishi mumkin. Katalizatorning bu qobiliyati *katalizatorning selektivligi (tanlovchanligi)* deyiladi.

Masalan, izopropil spirt  $C_3H_7OH$  ning parchalanishi ikki yo'nalishda borishi mumkin:

- 1)  $C_3H_7OH \rightarrow CO + (CH_3)_2 + H_2O$  (degidridlanish yo'nalishi);
- 2)  $C_3H_7OH \rightarrow C_3H_6 + H_2O$  (degidratatsiya yo'nalishi).

Birinchi yo'nalishda katalizator sifatida  $ZnO$ , ikkinchi yo'nalishda  $Al_2O_3$  ishlataladi.

Yarimo'tkazgichning katalitik faolligi va selektivligi (tanlovchanligi) u yo bu tashqi ta'sir oqibatida o'zgarishi mumkin. Masalan, temperatura ko'tarilganda katalizator faolligi ortadi.

Yarimo'tkazgichga kirishmalar kiritib ham katalizator xossalarini o'zgartirish mumkin. Bu xossalardan yarimo'tkazgichning xususiyatiga ham bog'liq bo'ladi.

Ko'pincha katalizator tarkibi reaksiya jarayonida o'zgarishi mumkin. Masalan, reaksiya katalizatorni zaharlashi mumkin, bunda uning faolligi pasayadi.

Ideal holda katalizator reaksiyadan keyin to'la tiklanadi. Amalda esa u reaksiya jarayonida asta-sekin o'zgarib boradi, ma'lum vaqtidan so'ng faolligi to'xtaydi. Reaksiyani tezlashtiruvchi katalizatorning o'zi ham kimyoviy jarayonda qatnashadi.

### Reaksiyani faollash energiyasi

Qattiq jism tomonidan tezlashtirilayotgan har qanday kimyoviy jarayon adsorblash va desorblash bosqichlarini o'z ichiga oladi. Faraz qilaylik, qattiq jism (katalizator) gazsimon faza bilan tutashgan.

Gaz molekulalari dastlab qattiq jism sirtida adsorblanadi, keyin o'zaro yoki gaz molekulalari bilan reaksiyaga kirishadi. Shundan keyin reaksiya mahsuloti desorblanadi (ajralib chiqadi). Demak, katalizator gazlar aralashmasiga kiritilganda reaksiya amalda gazlar fazasidan qattiq jism sirtiga ko'chadi.

inig Ikki faza chegarasida boradigan reaksiya — *geterogen katalitik reaksiya* deyiladi.

Reaksiyaning tezlik doimiysi  $K(T)$  temperatura funksiyasi orqali ko'pincha sirtning katalitik faolligi tavsiflanadi. Uning (Arrhenius qonunining) ko'rinishi:

$$K(T) = K_0 \exp(-E/RT) \quad (12.1)$$

bo'lib, bundagi  $E$  — reaksiyani aktivlash energiyasi.

$\ln K$  ning  $1/T$  ga bog'lanishi to'g'ri chiziq bilan tasvirlanadi. Uning ordinata bilan kesishishi  $\ln K_0$  bo'ladi.  $E$  va  $K_0$  namunaning tayyorlanishi usuliga, uning tabiatи va kirishmalar miqdoriga bog'liqdir.

**Katalizning elektron nazariyasi.** Adsorblash katalizda kimyoiv adsorblash (xemosorblash) bo'ladi. Geterogen kataliz nazariyasi xemosorblash nazariyasi bilan chambarchas bog'langan. Asosiy maqsad katalizator tanlash bo'lgani uchun katalizator ishlashi mexanizmini biliш zarur.

Kimyoiv jarayonda har qanday geterogen kataliz jarayoni elektron mexanizmga ega. Shu mexanizmni o'rganish — katalizning elektron nazariyasi vazifasidir.

Yarimo'tkazgichda yuz beradigan elektron jarayonlar uning elektr, optik, magnit xossalari bilan bir vaqtida katalitik xossalarni ham belgilab beradi. Yarimo'tkazgichning elektronlar aniqlab beradigan xossalari va uning katalitik xossalari orasida muayyan bog'lanish bor. Shu bog'lanishni topish nazariya oldidagi asosiy vazifadir.

Bu nazariyaning vujudga kelishi hozirgi zamон yarimo'tkazgichlar fizikasining kataliz hodisalari sohasiga kirishi edi. L.V.Pisarjevskiy qattiq jismlarning katalitik xossalarni, ularning elektron xossalari bilan bog'liqligini aniqlagan. Ammo uning nazariyasi kvant mexanika paydo bo'lishidan oldin, N.Bor nazariyasi asosida yaratilgan edi. Hozirgi vaqtida elektron nazariya mukammal nazariy asoslar asosida ish yuritadi.

## 12.2. Katalizda Fermi sathi

Katalizator sirtida xemosorblangan zarrachalarning hammasi emas, balki ularning muayyan qismi reaksiyada qatnashadi. Demak, xemosorblashning faol va nofaol shakllari bo'ladi. Reaksiya tezligi, sirdagi faol shakllarning nisbiy miqdoriga ( $\eta^0$ ,  $\eta^-$ ,  $\eta^+$ ) bog'liq. Reaksiya tezligi  $g$  ifodasiga shu  $\eta^0$ ,  $\eta^-$ ,  $\eta^+$  kattaliklar kiradi. Elektron muvozanat

holida bu kattaliklar Fermi sathi vaziyatiga bog'liq bo'ladi. Fermi sathining esa sirt tekisligida o'tkazuvchanlik sohasi ostidagi chuqurligi  $E_{F_3}$  deb hisoblanadi. U holda

$$g = g(E_{F_3}). \quad (12.2)$$

Bu funksiyaning ayrim reaksiyalar uchun ko'rinishi bilan keyinroq tanishamiz. Fermi sathi vaziyati sirtning muayyan to'ldirishlari hollarida ham reaksiya tezligi aniqlanadi.

Ikki holni farqlash lozim:

$$\frac{dg}{dE_{F_3}} < 0 \text{ va } \frac{dg}{dE_{F_3}} > 0. \quad (12.3)$$


Fermi sathi qancha yuqori bo'lsa, reaksiyalar shuncha tez boradigan va  $(dg/dE_{F_3}) < 0$  holga mansub bo'ladi. Bu — elektronlar tezlashtiradigan reaksiyalardir. Ularni *akseptor reaksiyalar* yoki *n-sinf reaksiyalar* deyiladi.  $(dg/dE_{F_3}) < 0$  holga mansub reaksiyalarning tezligi Fermi sathi qancha past bo'lsa, shuncha katta bo'ladi. Ularni *donor reaksiyalar* yoki *p-sinf reaksiyalar* deyiladi. Bu — kovaklar tezlashtiradigan reaksiyalardir.

Shuni ta'kidlash kerakki, ayrim hollarda reaksiya tezligi Fermi sathi  $E_{F_3}$  vaziyatiga bog'liq bo'ladi. Spirning kichik  $E_{F_3}$  larda degidrlanishi (bunda  $H_2$  ajraladi) va yetarlicha katta  $E_{F_3}$  larda degidratlanishi (bunda  $H_2$  ajraladi) misol bo'la oladi (12.1-rasm).

Reaksiyaning akseptor yoki donor sinfiga mansubligini tajriba orqali bilish mumkin. Buning uchun uni: a) boshqa sharoit o'zgar-magan holda akseptor va donor kirishmalarining reaksiya tezligiga ta'siri bo'yicha; b) reaksiya tezligi va yarimo'tkazgichning elektr o'tkazuvchanligi orasidagi bog'lanish bo'yicha; d) reaksiya tezligi va yarimo'tkazgichning chiqish ishi o'zgarishidagi parallelilik bo'yicha tajriba ma'lumotlari asosida yechiladi.

Katalizda kollektiv va mahalliy effektlar farqlanadi. Fermi sathi xemosorblash va katalizda asosiy o'rin tutgani sababli kollektiv effektlar haqida so'z yuritiladi. Bu holda adsorblangan zarraning bir butun sifatidagi kristall panjarasi bilan o'zaro ta'siri qaraladi. Bunda panjaraning barcha elektronlari va kovaklari reaksiyada qatnashadi.

Boshqa bir holda adsorblangan zarra adsorblash markazi bilan o'zaro ta'sirlashadi, bunda adsorblangan zarra va u zarrani biriktirib olayotgan zarraning elektronlari reaksiyada qatnashadi. Bunday effekt ni *mahalliy effekt* deyish mumkin.



**12.1-rasm.**


Kirishmalarning adsorbsion va katalitik xossalarga ta'siri masalasi ham kollektiv o'zaro ta'sirlanish sifatida ikki yoqlama qaralishi mumkin.

Birinchidan, kirishma tabiatи va zichligi bilan Fermi sathi vaziyati bog'liq, Fermi sathiga esa sirtning adsorbsion qobiliyati va katalitik faollik bog'langan. Bunda kirishmaning ta'sir effekti naqd kollektiv effektdir.

Ikkinchidan, kirishma atomlari adsorblash va katalizza faol markazlar vazifasini bajarishi yoki aksincha, bunday markazlarni ishdan chiqarishi mumkin. Bu holda biz *mahallyi effekt* bilan ish ko'ramiz. Sharoitga qarab bu ikki effektdan biri ustun bo'lishi mumkin.

### 12.3. Katalitik reaksiyalarning elektron mexanizmlari

**Vodorodning oksidlanishi.** Dastavval vodorodning oksidlanish reaksiyasini ko'raylik:



Bu reaksiyaning katalizatorlari ham *n*-tur, ham *p*-tur yarimo't-kazgichlar ( $\text{ZnO}$ ,  $\text{V}_2\text{O}_3$ ,  $\text{NiO}$ ,  $\text{CuO}$  va b.) bo'ladi. 12.1-rasmda reaksiyaning mexanizmi tasvirlangan.

Yarimo'tkazgich sirtida xemosorblangan kislород atomlari bo'lib, ular elektroneytral yoki manfiy zaryadlangan holatda bo'ladi, deb hisoblaymiz. Reaksiyaning birinchi bosqichida  $H_2$  molekulasi  $O^-$  ioniga adsorblanadi (12.1-rasm, a). Natijada sirtda H atomlari va OH molekulalari vujudga keladi. Ular yo neytral, yoki  $H^+$  va  $OH^-$  ionlar ko'rinishida bo'ladi.

Reaksiyaning ikkinchi bosqichida H atomi OH molekulasi bilan birlashadi,  $H_2O$  molekulasi desorblanadi (ajraladi).

Bu holda reaksiya tezligi doimysi

$$K = K_0 \exp\left(-\frac{E + E_{FS}^+}{kT}\right). \quad (12.4)$$

Reaksiya tezligi kristall sirtdagи Fermi sathiga bog'liq bo'lar ekan. Demak, Fermi sathini siljитib, reaksiya tezligini boshqарish mumkin. Yuqoriga siljish reaksiyani sekinlatadi, pastga siljish uni tezlatadi. Bu reaksiya donor reaksiyalar sinfiga tegishlidir.

Tajribadan ma'lumki, vodorod atmosferasida namunani qizdirish Fermi sathini ko'taradi, katalitik faollikni kamaytiradi. Kislород atmosferasida qizdirish Fermi sathini pasaytiradi, faollik ortadi.

#### **12.4. Chiqish ishi, elektr o'tkazuvchanlik va katalitik faollik orasidagi bog'lanish**

Bu bog'lanishning kelib chiqishi quyidagicha izohlanadi. Oldin aytilganidek, katalitik faollikni (boshqa sharoit bir xil bo'lgани holda) kristall sirtdagи Fermi sathi vaziyatiga qarab aniqlanadi. Bundan ikkita muhim xulosa kelib chiqadi.

Birinchi xulosa – katalitik faollik bilan elektronning yarimo'tkazgichdan chiqishi orasida muvofiqlik mavjud.

$g$  – reaksiya tezligi,  $\gamma_t$  – termoelektron chiqish ishi, Fermi sathining o'tkazuvchanlik sohasidan uzoqligi sirtda  $E_{Fs}$ , hajmda  $E_{FV}$  bo'lsin. U holda

$$g = g(E_{Fs}), \quad (12.5) \quad \varphi_t = E_{Fs} + \sigma + V_d \quad (12.6)$$

bunda,  $\sigma$  – panjarada erkin elektronning yaqinlik energiyasi,  $V_d$  – chiqish ishining dipol tashkil etuvchisi. Yuqoridagi ifodalardan:

$$\frac{dg}{d\varphi_t} - \frac{dg}{dE_{Fs}} = \begin{cases} > 0, & \text{donor reaksiya holida} \\ < 0, & \text{akseptor reaksiya holida} \end{cases}. \quad (12.7)$$

Ikkinchchi xulosa – katalitik faollik  $g$  va elektr o'tkazuvchanlik  $\chi$  orasida muvofiqlik mavjud.

Umumiy holda:  $\chi = \chi(E_F, E_{FV})$ . (12.8)

Elektron o'tkazuvchanlik holda:

$$\frac{d\chi}{dE_{F_S}} < 0, \quad \frac{d\chi}{dE_{F_V}} < 0. \quad (12.9)$$

Kovak o'tkazuvchanlik holda:

$$\frac{d\chi}{dE_{F_S}} > 0, \quad \frac{d\chi}{dE_{F_V}} > 0. \quad (12.10)$$

(12.5) va (12.8) ifodalardan:

$$\frac{dg}{d\chi} = \frac{dg dE_{F_S}}{(d\chi dE_{F_S})}. \quad (12.11)$$

$(dE_{F_V}/dE_{F_V}) > 0$  ekanligini e'tiborga olsak, (12.10) ifodadan quyidagi natijalarga egamiz:

	$n$ -yarimo'tkazgich	$p$ -yarimo'tkazgich
$n$ -reaksiya	$d\partial/dx > 0$	$D\partial/dx < 0$
$p$ -reaksiya	$D\partial/dx > 0$	$D\partial/dx < 0$

Demak,  $\chi$  o'tkazuvchanlik va  $\partial$  kattaligi faollik orasida muayyan muvofiqlik bor. Yuqoridagi tahlil shunday xulosaga olib keladi: *yarimo'tkazgichning chiqishishini yoki elektr o'tkazuvchanlikni o'zgartiradigan omillar (sabablar) uning katalitik faolligini ham o'zgartirishi kerak*. Ushbu muvofiqlik juda ko'p tajribalarda tasdiqlangan. Yana shuni ta'kidlaymizki, elektr o'tkazuvchanlik bilan adsorbsion qobiliyat orasida ham bog'lanish mavjud.

## 12.5. Turli omillarning katalitik faollikka ta'siri

### 12.5.1. Tashqi elektr maydon ta'siri

Yarimo'tkazgichga turli omillar bilan ta'sir ko'rsatib, uning kattalik qobiliyatini boshqarish mumkin:


1) yarimo'tkazgich hajmiga yoki sirtiga kiritiladigan kirishma;

2) fotoelektrik jihatdan faol yoruglik bilan kristallni yoritish;

3) tashqi elektr maydon katalizator sirtiga ko'ndalang qo'yiladi;

4) pardaning qalinligi.

Tashqi elektr maydonning katalitik faollikka ta'siri *elektrokatalistik effekt* deyiladi. Uni maydon ta'sirida reaksiya tezligining nisbiy o'zgarishi sifatida tavsiflanadi:



12.2-rasm.

bundagi  $\partial$  va  $\partial_0$  – maydon bor va yo'q holidagi reaksiya tezliklari:  $\partial = \partial(E_F)$ ,  $\partial = \partial(E_{F0})$ ,  $E_F$  va  $E_{F0}$  – tegishli Fermi sathlari.

Hisobning natijasi:

$$\frac{\Delta\partial}{\partial_0} = \exp(e\Delta V_s/kT) - 1, \quad (12.13)$$

bunda  $\Delta V_s = V_s - V_{s0}$  – maydon paydo qilgan sohalar egilishining o'zgarishi. Ammo  $\Delta V_s$  beriladigan  $U$  tashqi kuchlanishga bog'liq. Binobarin,  $\Delta\partial/\partial_0$  ham shu  $U$  ga bog'liq ravishda tekshiriladi. 12.2-rasmida akseptor (1-egri chiziq) va donor (2-egri chiziq) hollari uchun mazkur bog'lanish tasvirlangan.

Yarimo'tkazgichning adsorbshon qobiliyatiga maydon ta'siri *elektroadsorbshon effekt* deyiladi.

### 12.5.2. Metall sirtida hosil qilingan yarimo'tkazgich pardasining katalitik xossalari

Pardaning qalinligini  $L$ , taglik metallning chiqish ishini  $A$  deb belgilasak,  $\partial = \partial(A_L)$  va  $A_L = A_L(L - A_0)$  bog'lanishlar tahlih quyidagi xulosalarga olib keladi:

1. Agar  $L$  yetarlicha katta bo'lganda pardaning sirti musbat zaryadlangan bo'lsa ( $\sigma_L > 0$ ) yoki mansiy zaryadlangan bo'lsa ( $\sigma_L < 0$ ) va  $V_0 > V_L$  bo'lsa ( $V_L$  va  $V_0$ ) elektronning tashqi va ichki sirdagi potensial energiyasi,  $\sigma$  – sirt zaryad zichligi.  $L$  kichrayganda

pardaning katalitik faolligi donor reaksiyaga nisbatan bir tekis ortib boradi, akseptor reaksiyaga nisbatan kamayib boradi.

2. Agar muayyan qalinlikdagi pardadagi reaksiya tezligini donor reaksiya bosqichidan aniqlasa, yupqaroq pardada reaksiyaning akseptor bosqichi ustun bo'lishi mumkin.

3. Reaksiya ikkita parallel yo'nalishda ketsa, ulardan biri donor, ikkinchisi akseptor reaksiya bo'ladi.  $\partial_a/\partial_d$  nisbat katalizatorning tanlovchanligini ifodalaydi.  $\partial_a >> \partial_d$  bo'lsa, reaksiya akseptor yo'nalishda,  $\partial_d << \partial_a$  bo'lsa, donor yo'nalishda ketadi. Bu tengsizliklar parda  $L$  qalinligiga bog'liq va  $L$  ning o'zgarishi bilan reaksiya yo'nalishi o'zgaradi.

4. Taglik vazifasini bajarayotgan metallning chiqish ishi  $A_0$  qancha katta bo'lsa, pardaning donor reaksiyaga nisbatan katalitik faolligi shuncha katta.

Demak, (oksid) pardaning qalinligini o'zgartirish yo'li bilan namunaning katalitik faolligi va tanlovchanligini boshqarish mumkin.

Metall xromni qoplagan xrom oksidi pardasida vodorod peroksidi ( $H_2O_2$ ) ni parchalash reaksiyasini o'rganish yuqorida bayon qilingan nazariy mulohazalarini tasdiqlagan edi.

### 12.5.3. Kirishmalar ta'siri

Oldin ko'rib o'tganimizdek, kristallning sirti va hajmiga kirishmalar kiritib kristall sirtidagi Fermi sathini muayyan darajada boshqarish mumkin. Fermi sathining siljishi sirtning adsorbzion qobiliyatiga, katalitik faolligiga kirishmalarning ta'sirini ifodalovchi mexanizm bo'ladi. Kirishma deganda kristall panjarasining har qanday nuqsonlari nazarda tutiladi.

Bilamizki, *akseptor* va *donor* turidagi ikki xil kirishma bo'ladi. Donor kirishma hamma vaqt Fermi sathini yuqoriga siljitadi, akseptor esa pastga siljitadi: temperatura ko'tarilganda yoki kirishma miqdori kamayganda Fermi sathi hamma vaqt taqilangan soha o'rtasiga yaqinlashadi.

Yarimo'tkazgichdagagi kirishma miqdorini o'zgartirish yo'li bilan katalizator xossalari boshqarish mumkin. Agar reaksiya ikki (donor va akseptor) yo'nalishida borayotgan bo'lsa, kirishma kiritib Fermi sathini siljiti reaksiyani bir yo'nalishda tezlashtirish, ikkinchi yo'nalishda sekinlashtirish mumkin.

Ammo yetarlicha yuqori temperaturada (xususiy o'tkazuvchanlik sohasida) Fermi sathi taqiqlangan soha o'rtasi yaqinida bo'ladi va uni kirishma deyarli siljitmaydi.

#### 12.5.4. Kompensatsion effekt

$$K = K_0 \exp(-E/KT) \quad (12.13)$$

Arrenius qonuni bajariladigan hollarda kompensatsion effekt o'rini bo'ladi. Ko'pincha, kompensatsion effekt

$$\ln K_0 = A + BE \quad (12.14)$$

bog'lanish orqali ifodalanadi. Xuddi shuningdek, elektron  $\chi$  o'tkazuvchanlik

$$\chi = \chi_0 \exp(-U/KT) \quad (12.15)$$

qonun bo'yicha o'zgaradi. Logarifmik mashtabda

$$\ln \chi_0 = a + bu. \quad (12.16)$$

Agar (12.14) qonuniyat mavjud bo'lsa (12.1), Arrenius qonuni egri chiziqlari bir nuqtada kesishishi kerak.  $E$  ning o'sishi bilan bir vaqtida  $K_0$  ning o'sishini *kompensatsion effekt* deyiladi. U bunday talqin qilinadi: Arrenius qonunidagi  $K_0$  va  $E$  kattaliklar kirishma zichligiga bog'liq, ular ma'lum darajada bir-birini to'ldiradi. Ba'zi mualliflar tasdiqlashicha, faollash energiyasi  $E$  va ko'paytuvchi  $K_0$  bir tekis yarimo'tkazgich donalari o'lchami  $L$  ga bog'liq. Mana shundan ham kompensatsion effekt kelib chiqadi.

#### ؟ Savol va topshiriqlar

1. Kataliz hodisasini tavsiflang. Katalitik faollik nima?
2. Fermi sathi katalizda qanday o'rinn tutadi?
3. Katalitik reaksiyalar mexanizmlarini aytib bering.
4. Chiqish ishi, elektr o'tkazuvchanlik va katalitik faollik orasida qanday bog'lanishlar bor?
5. Katalizda tashqi elektr maydon qanday ta'sir ko'rsatadi?
6. Metall sirtidagi yarimo'tkazgichlar pardasi katalizda qanday ahamiyatga ega?
7. Kirishmalar katalizga ta'sir ko'rsatadimi?
8. Katalizda kompensatsion effektning o'rni qanday?

### **XIII BOB. YARIMO'TKAZGICHLARNING HAQIQIY SIRTIDAGI JARAYONLAR**

#### **13.1. Sirt tuzilishi nuqsonlarining adsorplashdag'i o'rni**

Biz bu bobda yarimo'tkazgich haqiqiy real sirtining ba'zi maxsus xossalarini qarab chiqamiz. Avvalo sirtni tekislik, ya'ni ikki o'lchamli davriy tuzilma deylik, unda ayrim mahalliy buzilishlar bo'lsin. Ular *sirt nuqsonlari* deyliladi.

Ular vakansiyalar yoki yot atomlar, o'z o'midan (tugunidan) sirtga chiqarib yuborilgan panjaraning xususiy (o'z) atomlari, yot atomlar guruhlari bo'lishi mumkin. Nuqsonlar sirt xossalariga ikki yo'l bilan:


- birinchidan, Fermi sathi orqali ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki u nuqsonlar tabiatini va zichligiga bog'liq;
- ikkinchidan, sirt jarayonlarning o'zida sirt rekombinatsiyada, adsorplashda va katalizda nuqsonlarning bevosita qatnashishi orqali ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bir xil muayyan nuqsonlar bor deb faraz qilaylik. Sirtda bunday nuqsonlarning ko'proq va ozroq zichlikli sohalari bor bo'lsin. U holda Fermi sathi turli joyda har xil vaziyatda bo'ladi:

$$E_F = E_F(y, z).$$

Bu esa sirtda energiya sohalari egrilangan bo'ladi, demakdir. Haqiqatan, nuqsonlar notekis joylashgan holda Fermi sathi  $E_F$  sirtning turli joyida turlicha bo'ladi, adsorblanish qobiliyati ham har xil bo'ladi. Yana bir misol shuki, sirtning turli joylarida xemosorbsion bog'lanish har xil bo'lishi mumkin. Bunday sirt parchalarini «akseptor» va «donor» parchalar deb nomlash mumkin.

$E_F$  har xil joylarda katalitik faollik ko'proq yoki kamroq bo'ladi. Biroq, nuqsonlarning notekis taqsimlanishi sababli hosil bo'lgan sirtning bir jinsli emasligi adsorplash natijasida biroz tekislanshi mumkin. Temperatura ko'tarilgan sari yuza tekislanshi. Bunda nuqsonlar ko'chadi va ularning zichligi tenglashadi.



13.1-rasm.

Endi tuzilish nuqsonida yuz beradigan adsorblashni ko'rib chiqaylik. Misol uchun  $M^+$  va  $R^-$  ionlardan tuzilgan  $MR$  parjadaragi  $F$ -markazda bir valentli elektrmusbat  $C$  atom adsorblanadi, deylik.  $F$ -markaz yonida mahalliylashgan elektron bo'lgan bo'sh metalloid tugunidan iborat. Uni  $DL$  deb belgilaymiz. U mahalliy erkin valentlik bo'lib, o'ziga chet zarrani qabul qila oladi. Agar shu  $F$ -markazdan uning elektroni uzoqlashtirilgan bo'lsa, uni  $D_pL$  bilan belgilaymiz.

13.1-rasmda kristall sirtining energetik sohaviy chizmasi keltirilgan. Rasmda  $F$ -markazlarni mahalliy  $D$  donor sathlar,  $C$  atomlar xemosorblangan  $F$ -markazlarni esa  $CD$  mahalliy donor sathlar bilan belgilangan.

$F$ -markazda adsorblast yuz berganda xemosorblashning «mustahkam» shakli elektron, neytral «sust» shakl esa zaryadlangan. Haqiqatan, mazkur holda xemosorblangan zarra bo'sh metalloid tuguniga bog'lanadi, u esa elektr zaryadiga qiymati teng musbat zaryadga ega deb qaraladi.

«Mustahkam» bog'lanish holida bo'sh tugunning zaryadi bu bog'lanishga jalb qilingan elektron zaryadi bilan to'ldiriladi.

«Sust» bog'lanish holida bu zaryad to'ldirilmaydi. «Mustahkam» bog'lanish – ikki elektronli bog'lanish, «sust» bog'lanish bir elektronli bog'lanish bo'ladi.

Adsorblast sharoitida  $D$  sathlar yo'qolib, ularning o'rniiga  $CD$  sathlar paydo bo'ladi. Bu esa Fermi sathi siljishiga olib keladi.

Agar  $D$  va  $CD$  sathlar o'tkazuvchanlik sohasidan pastda bo'lsa,  $D_pL+eL \leftrightarrow DL$ ,  $CD_pL+eL \leftrightarrow CDL$  o'tishlar bo'lmaydi. Bu holda

neytral va ionlangan  $F$ -markazlarda adsorblash yuz beradi. Shu holda «rangangan» (ya’ni neytral  $F$ -markazlari bor) kristalda «ranglanmagan» (ya’ni ionlangan  $F$ -markazlari bor) kristaldagiga nisbatan adsorbsion qobiliyat  $\gamma$  marta katta bo‘ladi:

$$g = \exp\left(\frac{q-q_0}{kT}\right) = \exp\left(\frac{V_{CD}-V_D}{kT}\right) \quad (13.1)$$

(masalan, xona temperaturasida va  $V_{CD} - V_D = 0,2$  eV bo‘lganda  $\gamma = 10^3$  bo‘ladi).

$F$ -markazlar adsorbsion markazlar sifatida faqat ishqoriy galoid-lardagina emas, balki ixtiyoriy boshqa kristallarda ham uchraydi.

$F$ -markazlar bilan bir qatorda, adsorblanish markazlari sifatida  $V$ - markazlar ham vujudga keladi.

$V$ -markaz  $MR$  kristallardagi yonida kovak joylashgan metalldagi bo‘s sh sath birlashmasidir.  $F$ - va  $V$ -markazlardan tashqari, sirtdagи boshqa nuqsonlar ham adsorblash markazlari bo‘la oladi. Masalan, CO molekulalari uchun xemosorblangan O atomlari adsorblash markazlari bo‘ladi.

Sirtning nuqsonlari adsorblash markazlari va sirtning erkin valentliklari uchun mahalliyashish (o‘rnashish) markazlari bo‘la turib katalizda faol markazlar vazifasini bajarishi mumkin. Shunday nuqsonlar birlashmalari («ansamblari») ham shunday vazifani o‘tay oladi.

Haqiqatda sirtdagи ayrim nuqsonlar va ularning birlashmalari kristall panjarasi bilan bir butunni tashkil qiladi va ularning xossalari panjaraning xossalari bilan aniqlanadi.

### 13.2. Fotoadsorbsion effekt

Yarimo’tkazgichning yorug‘lik ta’sirida adsorbsion qobiliyatining o‘zgarishi *fotoadsorbsion effekt* deyiladi. Sirtning adsorbsion qobiliyati o‘zgarishini yoritish boshlangandan va u to‘xtatilgandan so‘ng adsorbsion hajmda kuzatiladigan bosim o‘zgarishi bo‘yicha aniqlanadi.

Ba’zan yoritish boshlangach bosim pasayadi (fotoadsorblash), gohida bosim ortadi (fotodesorblash). Binobarin, adsorbsion qibiliyatning nisbiy o‘zgarishi yo musbat, yoki mansiy bo‘lishi mumkin. Fotoadsorbsion effekt ichki fotoeffekt paydo qiladigan, ya’ni yarim-

o'tkazgichli elektronlar va kovaklar bilan boyitadigan chastotali yorug'lik bilan yoritgandagina kuzatiladi.

Fotoadsorbsion effektning kattaligi va ishorasi adsorbent va adsorbatning tabiatiga, bosimga, temperaturaga, kirishmalarga bog'liq. Masalan, ZnO sirtida O<sub>2</sub> ning adsorblanishi o'rganilganda xona temperaturasida va kislorod bosimi kichik bo'lganda musbat effekt (fotoadsorplash) kuzatilgan, ammo u bosim ko'tarilishi bilan kamayib borib, manfiy effekt (fotodesorplash) bilan almashingan. O'sha tizimdagagi ZnO ga Al (donor) kirishma kiritilganda manfiy effekt, Li (akseptor) kiritilganda musbat effekt kuzatilgan. Haqiqiy sirt holida effektni quyidagicha tushunish mumkin.

Sirtda uning tuzilish nuqsonlarida joylashgan elektronlar (yoki kovaklar) adsorbsion markazlar xizmatini bajaradi deb hisoblanadi va sirtning adsorbsion qobiliyati shunday markazlarning sirt birligidagi soni bilan aniqlanadi. Yoritish ta'sirida tegishli sirt sathlarining elektronlar va kovaklar bilan to'ldirilganligi o'zgaradi, shu bilan adsorbsion markazlar zichligi va sirtning adsorbsion qibiliyati o'zgaradi.

Yarimo'tkazgichda, xususan, uning sirtida yoritish paydo qilgan o'zgarishlar yoritish to'xtagandan so'ng qancha uzoq saqlanishi, ya'ni yarimo'tkazgichning «xotirasasi» masalasiga murojaat qilaylik. Shuni ta'kidlash o'rinniki, «yoritish» atamasini keng tushunilsa, u faqat elektrmagnit nurlanishni (ko'rinvuchi, ultrabinafsha yorug'lik, rentgen va  $\gamma$ -nurlar) emas, balki zarralar (neytronlar, protonlar, elektronlar,  $\alpha$ -zarralar) bilan nurlashni ham o'z ichiga oladi:

- a) bir marta nurlanishga uchragan yarimo'tkazgich uni doimo eslab qolishi mumkin bo'lgan chegaraviy hol bo'lishi mumkin. Agar yarimo'tkazgichda yadroviy reaksiyalar paydo qiladigan og'ir zarralar bilan nurlash hollarida shunday bo'ladi. Bunda panjaraning o'z atomlari o'rnida yot atomlar paydo bo'ladi. Bu — qaytmas jarayon;
- b) yarimo'tkazgich nurlanishni biror vaqt «eslaydigan», keyin esa asta-sekin «esdan chiqaradigan» hollar bilan ish ko'ramiz. Bunda nurlash yarimo'tkazgichning kimyoiv tarkibini o'zgartirmaydi, ammo panjarada tuzilish (radiatsion) nuqsonlari paydo qiladi. Bu nuqsonlar asta-sekin yo'qoladi, temperatura qancha yuqori bo'lsa, bu jarayon shuncha tez ketadi. Yarimo'tkazgich «xotirasini» yo'qotadi;
- c) bevosita ionlantirish orqali yarimo'tkazgichda muvozanatsiz zaryad tashuvchilar paydo qiladigan, ammo tuzalish nuqsonlari hosil

qilmaydigan elektrmagnitik nurlash muhim ahamiyatga ega. Bu holda yarimo'tkazgich nurlash davom etib turganicha uni «xotirlaydi». Nurlash to'qnashuvdan so'ng amalda bir onda o'zining dastlabki muvozanat holatiga qaytadi. Bir qator hollarda mazkur qoida buziladi: yarimo'tkazgich nurlanish haqidagi «xotirani» qandaydir vaqt saqlab turadi. Fotoadsorbsion effektida xuddi shunday «xotira» mayjud bo'ladi. Shu holga e'tibor beramiz va ba'zi qonuniyatlarni bayon qilamiz:

1. Agar yarimo'tkazgich nurlansa, keyin nurlanish o'chirilsa va biroz vaqt o'tgach adsorblash o'tkazilsa, bu holda qorong'idagi adsorbsion qobiliyat ortadi, nurlash qancha uzoq davom etsa, bu ortish ham shuncha katta bo'ladi. Yetarlicha uzoq nurlanganda (yori-tilganda) adsorbsion qobiliyat to'yinadi.

2. Dastlab nurlashga uchratilgan shunday yarimo'tkazgichning fotoadsorbsion qobiliyatini kamroq bo'lar ekan, dastlabki nurlash qancha uzoq bo'lsa, u shuncha sezilarli bo'ladi. Dastlabki nurlash davomiyligi uzoq bo'lganda fotoadsorbsion qobiliyat yo'qoladi.


3. Qorong'ilidagi absorbsion qobiliyat ortganda, fotoadsorbsion qobiliyat kamayganda nurlash o'chirilgandan ancha keyin ham saqlanib qoladi. Asta-sekin bu kattaliklar o'zining dastlabki qiymatiga ega bo'ladi.

4. Fotoadsorblash jarayonida nurlash to'xtatilsa, ayrim hollarda adsorblash «inersiya» bo'yicha biroz vaqt davom etadi (ta'sirdan so'nggi effekt).

5. «Ta'sirdan so'nggi effekt» kattaligi, ya'ni nurlash to'xtatilgandan keyin adsorblangan modda miqdori temperatura yuqori bo'lganda kam bo'ladi. Yetarlicha yuqori temperaturada effekt yo'qoladi.

6. Fotoadsorblash uchun  $N = N(t)$  egri chiziq ko'pincha 13.2-rasmdagi ko'rinishda bo'ladi, bunda  $N$  — adsorblangan zarralarning sirt zinchligi,  $t$  — vaqt, uni nurlash boshlanishi paytidan hisob qilinadi. Ko'p tajribalarda nurlash vaqtida vujudga keladigan va nurlash to'xtatilgandan so'ng ancha vaqt saqlanadigan adsorbsion markazlarining tabiatini o'rganilgan. Bunday markazlar vazifasini nurlash paydo qilgan va sirt nuqsonlarda o'tirib olgan muvozanatsiz zaryad tashuvchilar bajarishi tasdiqlandi.

Agar nurlash adsorblashdan oldin o'tkazilsa, bu markazlar oldin paydo bo'ladi. Ular nurlashgacha sirtda mayjud bo'lishi mumkin. Nihoyat, mazkur markazlar adsorblash jarayonida ham paydo bo'ladi.



13.2-rasm.

Mahalliy holatlardagi zaryad tashuvchilarda adsorblanish haqidagi tasavvur fotoadsorplash kinetikasida «induksion davr» ning mavjudligini tushunish imkonini beradi.

Xemosorplash elektron nazariyasining asosiy holatlari quyidagilardan iborat:

1. Yot molekulaning kristall panjarasi bilan o'zaro ta'siri masalasini qarab chiqish xemosorplashning turli shakllari borligini ko'rsatadi. Xemosorblanadigan zarra bilan kristall panjaraning erkin elektronlari va kovaklari bog'lanishlarda ishtirok etishi mumkin.

2. Xemosorplashning turli ko‘rinishlari (elektrik jihatdan neytral, manfiy yoki musbat zaryadli shakllari) orasida valent-to‘yingan shakllarini radikal yoki ion-radikal shakllardan farqlash lozim.
  3. Xemosorplashning turli shakllari bir-biriga o‘tishi mumkin.
  4. Yarimo‘tkazgichdagい elektronlar muvozanatida sirtda turli xemosorplash shakllarining nisbiy miqdori kristall sirtidagi Fermi sathi vaziyati bilan aniqlanadi.
  5. Fermi sathi vaziyati yarimo‘tkazgichlar sirtining mazkur molekulalar turiga nisbatan adsorbsion qobiliyatini, sirtning zaryadlanganlik derajasini va xususiyatini, mazkur reaksiyaga nisbatan sirtning katalitik faolligi orqali aniqlanadi.
  6. Kristall sirtidagi Fermi sathi vaziyati umuman olganda, kristall ichidagi vaziyatiga bog‘liq. Shu sababli kristallning sirtdagi va hajmdagi xossalari orasida bog‘liqlik o‘rnataladi.
- Bu asosiy nazariy natijalardan kelib chiqadigan xulosalarni tajribada tekshirib ko‘rish mumkin.

### Savol va topshiriqlar

1. Adsorplashning *F*-markazida borishi qanday amalga oshadi?
2. Adsorplashning *V*-markazida borishini tushuntiring.
3. Sirtning nuqsonlari adsorplash markazlari vazifasini bajara oladimi?
4. Fotoadsorbsion effekt deb qanday hodisaga aytildi? Tushsuntiring.
5. Xemosorplashning qanday shakllari bor? Ular orasida qanday o‘tishlar bo‘ladi? Javobingizni izohlang.

#### **XIV BOB. YARIMO'TKAZGICH—DIELEKTRIK CHEGARASIDAGI SIRT HOLATLARI TABIATI**


Ko'rib o'tilgan yarimo'tkazgichlardagi sirt holatlari yarimo'tkazgichli moddaning hajmiy xossalaringin, uning chegaralangan holatda, ya'ni bevosita kristall panjaraning uzilgan qismi tufayli vujudga kelgan o'zgarishlariga asoslangan edi.

Lekin real sharoitda har qanday kristall kesilsa yoki sindirilsa, uning sirtida hosil bo'ladigan atomlarning to'yinmagan aloqalari yoki boshqa turdag'i nuqsonlar shu sharoit uchun termodinamik jihatdan muvozanat holatini egallashga intiladi.

Bu jarayon avvalo kristall atomlarining o'zaro ta'sirlashuvi tufayli bo'lsa, asosan, atrof-muhitdagi atom va molekulalarni biriktirib olish orqali sodir bo'ladi. Tajribalardan ma'lumki, juda qisqa ( $10^{-6}$  s) vaqt davomida jarayon  $10^{-5}$  mm simob ustuni bosimidagi vakuumda kechayotgan bo'lsa ham 3–5 qatlamlı oksid pardalari hosil bo'ladi. Oddiy sharoitda, ya'ni ochiq havoda kristallarni kerakli o'lchamlarda qirqish jarayonlarida esa bu oksid qatlami 50–100 Å larni tashkil etadi. Natijada biz kristall sirti deb ta'riflayotgan yuza, aslida shu modda oksiddan iborat bo'ladi. Shuning uchun modda xususiyatlarini o'rganayotganda ularning oksid parda hosil qilish xossalarni e'tiborga olish lozim.

Ko'p hollarda bunday qatlamlardan modda sirtini himoyalovchi vosita sifatida, planar texnologiyalarda esa mikroelementlar orasidagi to'siq sifatida foydalaniлади.

Demak, yarimo'tkazgichli moddalarni elektrfizik xossalarni o'rganishda, ulardan turli xil elektron asboblar tayyorlashda bu qatlam xususiyatlarini, xususan, bunday yarimo'tkazgich—oksid chegarasidagi jarayonlarni bilish va ularni e'tiborga olish zarur ekan (14.1-rasm). Barcha oksidlar elektr o'tkazuvchanligiga ko'ra dielektrik bo'lgani uchun bunday tizimlar yarimo 'tkazgich-dielektrik tipidagi tuzilma deb ataladi. Bu tuzilmaning xossasini o'rganish uchun unga metall kontaktlar qilinishi tufayli tuzilma metall-dielektrik-yarimo'tkazgich (MDY) ko'rinishiga ega bo'ladi. Bu tuzilmada dielektrik (ya'ni oksid) qatlami elektr maydoni, temperatura, radiatsiyalar ta'siriga sezgir,



**14.1-rasm.** Ikki o'lchamli tekislikda oksidlovchi qatlam strukturasi:


1 – tugallanmagan bog'lanish; 2 – ko'priksimon kislород; 3 – ko'priksiz kislород; 4, 5 – harakatchan musbat va manfiy ionlar.

yarimo'tkazgichli qatlam xossalari esa nisbatan kamroq o'zgaradi. Bunday tuzilmada tok tashuvchilarning harakati asosan yarimo'tkazgich-dielektrik chegarasining xossalariiga bog'liq bo'ladi.


Yarimo'tkazgich-dielektrik chegarasidagi sirtdagи holatlarning paydo bo'lishiga kristall sirtdagи kislород atomlarining diffuziyalanishi tufayli erishiladi.

Bu sohadagi sirt holatlari toza atomar sirtdagи holatlardan ancha kam ( $\sim 10^{13} \text{ sm}^{-2}\text{eV}^{-1}$ ) va ularning energetik holatlari yarimo'tkazgichning taqiqlangan sohasida joylashgan. Bu holatlarga xos bo'lgan umumiy bir xususiyat – ularning butun taqiqlangan sohada energiyasi bo'yicha kvaziuzluksiz holdagi taqsimotidir. Ular taqiqlangan sohani ma'lum energetik oraliqda bir tekisda taqsimilanib, soha chegaralarida monoton ravishda ortib boradi (14.2-rasm).

Chegara sohasidagi bunday holatlarning paydo bo'lish mexanizmi va ularning mikroskopik tuzilishi haqida aniq bir fizik-kimyoviy



14.2-rasm.



14.3-rasm.

tushunchalar haligacha mavjud emas. Shunday bo'lsa-da, to'plangan ilmiy-amaliy ma'lumotlar asosida ular haqida umumiylasavvur hosil qilish mumkin.

Misol uchun kremniy-dioksid kremniy rusumidagi tuzilmani ko'r-satadigan bo'lsa, kremniy sirtida  $\text{SiO}_2$  dielektrik qatlarni hosil qilish asosan 800–1200° C da kremniyni kislorod oqimi ostida qizdirish orqali hosil qilinadi.  $\text{SiO}_2$  qatlarning o'sishi  $\text{Si}-\text{O} \rightarrow \text{SiO}_2$  kimyoiy reaksiya orqali boradi va uning tezligi temperatura va kislorod zichligi orqali boshqariladi. Bunday diffuziya jarayonlari tufayli Si va  $\text{SiO}_2$  qatlamlari orasida  $\text{SiO}_2 \rightarrow \text{SiO}_{n-1}-\text{Si}$  tipidagi o'tish qatlami vujudga kelishiga olib keladi ( $n = 2-0$ ). Bunday o'tish qatlaming teknislikdagi ko'rinishi 14.3-rasmida berilgan. Bunday ko'rinishga o'tish sohasidagi kremniy atomlarining buzilgan valent bog'lanishlari, ya'ni elektronlari uzilib, bo'sh qolgan holatlar musbat zaryadlar manbayi bo'lib xizmat qiladi. Bunday markazlarni kremniy kristalida va  $\text{SiO}_2$  qatlamida mavjud bo'lgan metall atomlari bilan o'zaro ta'sirlashuvi ularni qayta taqsimlanishiga olib keladi. Ayrim atomlar  $\text{SiO}_2$  qatlarni hajmiga kirib qolib, undagi elektrneytrallikni buzadi, boshqalari kremniy kristali ichida diffuziyalanadi. Bunday taqsimotni belgilovchi omil segregatsiya koeffitsiyenti ( $\eta$ ) hisoblanadi, ya'ni atomlarning Si va  $\text{SiO}_2$  dagi

diffuziya koeffitsiyentlari nisbati  $\eta = \frac{D_{\text{Si}}}{D_{\text{SiO}_2}}$ . Agar  $\eta < 1$  bo'lsa,  $\text{SiO}_2$

qatlarni aralashma atomni itaruvchi bo'ladi va Si ni chegaraga yaqin qismida bunday atomlar soni ko'proq bo'ladi,  $\eta > 1$  bo'lsa – aksincha.


Bunday jarayonlar tufayli o'tish sohasida musbat va manfiy zaryadlangan metall ionlari, Si—O birikmalarining buzilgan aloqalari kabi tarkibiy buzilishlar vujudga keladi.

Yana  $\text{SiO}_2$  bog'lanish aniq bir shaklga ega emasligi, Si—O bog'lanish uzunligi 1,56 Å dan 1,66 Å gacha, O—O bog'lanishlari 2,5 Å dan 2,7 Å gacha o'zgarib turishini e'tiborga olsak, o'tish sohasini aniq shaklini tasavvur qilish qiyinligi ma'lum bo'ladi. Bulardan tashqari,  $\text{SiO}_2$  qatlami hajmida quyidagi turdag'i nuqsonlar ham bor:


- $\equiv \text{Si} - \text{uch valentli Si} - \text{donor};$
- $\equiv \text{Si} - \text{O bog'lanmagan O} - \text{amfoter markaz};$
- $V_0 = \text{Si} \dots \text{O kislorod vakansiyasi} - \text{ikkilanma donor};$
- $V_{\text{Si}} = \text{kremniy atomi vakansiyasi} - \text{donor};$
- $O_I = \text{tugunlararo kislorod} - \text{donor};$
- $\text{Si}_I = \text{tugunlararo kremniy atomi} - \text{ikkilanma donor};$
- $O_2, V_0, \text{Si-H}, \text{Si: OH}, \text{M-O} \text{ va boshqa komplekslar.}$

Kremniyda esa V, V—P,  $O_I$ ,  $\text{Si}_I$ ,  $O_s$ , M, M—O, O—O kabi nuqsonlar mavjuddir. Bunday nuqsonlarning mayjudligi va tashqi ta'sirlar tufayli ularning o'zaro ta'sirlashuvlari dielektrik-yarimo'tkazgich chegarasidagi sirt holatlariga ham ta'sir etadi. Mana shunday fizik-kimyoviy jarayonlar natijasida musbat va manfiy zaryadli markazlar paydo bo'ladi.



$\equiv \text{Si—O bog'lanmali komplekslari erkin elektronlarni tutib olib, bo'sh o'rinni} - \text{kovaklar hosil qiladi:}$




Bu esa oksid qatlamida manfiy, chegara sohasida esa musbat zaryadlar hosil bo'lishiga olib keladi.  $\text{Si—SiO}_2$  tuzilmalari nurlantirilganda chegaraviy sohada




oksid qatlamda esa



reaksiyalar tufayli gidroksil, kislorod, kremniy ionlari, erkin elektronlar kabi zaryadlar hosil bo'ladi va ular sirt holatlar tabiatini belgilaydi. Agar MDY tuzilmasi tashqi elektr maydonga kiritilsa  $\text{Si—SiO}_2$  chegarasida yarimo'tkazgich tomonida elektronlar to'planishi (boyitilishi) yoki kamayishi kuzatiladi.



14.4-rasm.



14.5-rasm.

MDY ning metall kontaktiga musbat kuchlanish qo'yilsa, bunda *n*-tipdagi Si sohasidagi energetik diagrammani ko'rinishi 14.4-rasmdagi kabi bo'ladi.

Kuchlanish qutblari o'zgartirilsa, ya'ni metall kontaktga manfiy kuchlanish qo'yilsa — elektronlar kamayishi kuzatiladi (14.5-rasm) va kuchlanish yana ham kattalashivi ikkala holda ham o'tkazuvchilikni inversiyaga olib kelishi mumkin.

Elektronlarni ko'payishidan kamayishiga o'tish chegarasida, ya'ni inversiya chegarasidagi tashqi kuchlanish kattaligi tekis soha kuchlanishi deyiladi. Si—SiO<sub>2</sub> chegarasidagi sirt holatlarini o'rganishning asosiy usullaridan biri MDY turidagi tuzilmalarni volt-farada, ya'ni C—V xususiyatlarini o'rganishdir. Bu usul MDY tuzilmalarining C—V xususiyatlarini o'lchab, ularni nazariy hisoblangan xossalari bilan solishtirishdan iborat. Bunday o'lchovlar asosida chegaraviy sohadagi sirt holatlarining  $10^{-10} \text{ sm}^{-2}\text{eV}^{-1}$  gacha bo'lgan miqdorlarni aniqlash mumkin.

### Universal fizik kattaliklar

Elektron zaryadi	$e = 1,6 \cdot 10^{-19}$ KI
Elektronning tinch holatdagi massasi	$m_0 = 9,1 \cdot 10^{-31}$ kg
Bolsman doimiysi	$k = 1,38 \cdot 10^{-23}$ J/kg
Plank doimiysi	$h = 6,63 \cdot 10^{-34}$ J·s
Dielektrik doimiysi	$t = 1,05 \cdot 10^{-34}$ J·s $E_0 = 8,85 \cdot 10^{-12}$ F/m $E_0 = 8,85 \cdot 10^{-14}$ F/sm

### Foydali munosabatlar (ifodalar)

$$\frac{kT}{q} (T = 300 \text{ K}) = 0,0259 \text{ V};$$

$$\frac{kT}{q} (T = 77 \text{ K}) = 0,066 \text{ V};$$

$$1 \text{ eV} = 1,6 \cdot 10^{-19} \text{ J};$$

$$e^x \approx 10^{0,43x} \approx 10^{x/2,3}$$

$$e^1 = 2,7; \quad e^2 = 7,4; \quad e^3 = 20; \quad e^4 = 55;$$

$$e^5 = 178; \quad e^6 = 403; \quad e^7 = 1100; \quad e^8 = 3000;$$

$$e^9 = 8100; \quad e^{10} = 22000.$$

### Dielektriklarning fizik parametrlari

T.r.	Birliklari	Fizik parametrlari	SiO <sub>2</sub>	Si <sub>3</sub> N <sub>4</sub>	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	Ta <sub>2</sub> O <sub>5</sub>
1.	X, eV		0,9	1,95	1,0	2,45
2.	Kg, eV	Taqiqlangan zona	8,0	5,1	8,7	4,45
3.	$\epsilon$	Dielektrik singdiruvchanlik	3,8	6,8	9,0	27
4.	n	Sindirish ko'rsatkichi	1,48	1,97	1,77	2,2
5.	E, V/sm	Elektr maydon kuchlanishi	$1 \cdot 10^7$	$1 \cdot 10^6$	$5 \cdot 10^6$	$5 \cdot 10^6$
6.	$\rho$ , g/sm <sup>3</sup>	Zichlik	2,65	3,44	3,96	8,53
7.	M, g/mol	Molekular massa	60	140	102	442
8.	$\alpha$ , A/V	O'sish doimiysi	5,0	—	15,5	16, 6

### Metallarning termodinamik chiqish ishi

Metall	Mg	Al	Ni	Cu	Au	Ag	Pt
$\phi$ , eV	3,35	4,1	4,55	4,7	5,0	5,1	5,1

## XV BOB. NAMUNAVIY MASALA VA MISOLLAR

**1-masala.** Sirt potensiali  $\varphi_{S1} = 0,3$  V,  $\varphi_{S2} = -0,2$  V,  $\varphi_{S3} = 0,5$  V va  $\varphi_{S4} = -0,9$  V bo‘lgan holatlar uchun solishtirma qarshiligi  $\rho = 1$  Om · sm bo‘lgan elektron-kremniy uchun elektron va kovaklarning sirdagi hajmiy konsentratsiyasini hisoblang. Sirt holatlarini aniqlang. Zonalar diagrammasini chizing.

**2-masala.** Berilgan  $C_{sc} = \text{yar}/\text{o't}$  OP3 sig‘imi va  $Q_{sc} = \text{OP3}$  dan to‘liq umumiy zaryad. Sirt potensiali  $\varphi_{S1} = 0$ ,  $\varphi_{S2} = \varphi_0$  va  $\varphi_{S3} = 2\varphi_0$  bo‘lgan hol uchun  $\rho = 10$  Om · sm p-Si uchun  $Q_{sc}$  va  $C_{sc}$  larning qiymatini toping.

**3-masala.** Solishtirma qarshiligi  $\rho_n = 0,1$  Om · sm bo‘lgan n-Ge uchun sirt potensiali  $\varphi_s = -0,6$  V ga teng bo‘lganda,  $Q_{sc}$  fazoviy zaryad sohasidagi to‘la zaryadni, sirt elektr maydon qiymatini  $E_s$  hamda inversiya kanalidagi kovaklar sonining ko‘pligini  $G_R$  hisoblang.

**4-masala.** Solishtirma qarshiligi  $\rho_n = 15$  Om · sm bo‘lgan elektron kremniy (Si) va germaniy (Ge) uchun ekranlovchi Debay uzunligini hisoblang. Temperatura  $T = 300$  K bo‘lganda va elektr maydonning yarimo‘tkazgich hajmiga kirib borish chuqurligi qachon Debay uzunligidan katta bo‘lishligini (agar mumkin bo‘lsa) ko‘rsating.

